



Qo'qon DPI

**ILMIY
XABARLAR**

ISSN: 3030-3958

No 2/2025

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar



**Кокандский ГПИ.
Научный вестник**

№2/2025

УЎК 5/9(08) КБК 72я5 Қ 99	Bosh muharrir: Qo'qon davlat pedagogika instituti rektori D.Sh.Xodjayeva Mas'ul muharrirlar: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor N.S.Jurayev Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor N.A.Kadirova Mas'ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i D.O'rinboyev Nashr uchun mas'ul: M.Z.Muydinov
MUASSIS: Qo'qon davlat pedagogika instituti Qo'qon DPI. ILMIY XABARLAR- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. Кокандский ГПИ. Jurnal bir yilda o'n ikki marta chop etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro'yxatga olingan. Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart. "Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro'yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagi 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san'atshunoslik fan tarmoqlari bo'yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan. Tahririyat manzili: 150700, Qo'qon shahar, Turon ko'chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Сайт: www.kspi.uz journal.kspi.uz ISBN: 978-9943-7182-7-2 "CLASSIC" nashriyoti 2025	TABIIY FANLAR И.И.Гибатуллина, кандидат биологических наук, (РФ) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O'ZB) V.U.Xo'jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) M.T.Isog'aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'ZB) A.Jh.Xusanov-fizika-matematika fanlari nomzodi, docent (O'ZB) O.A.Turdiboyev, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) G'M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O'ZB) B.No'monov, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O'ZB) FILOLOGIYA FANLAR Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ) В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ) К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O'ZB) G.Israilov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'ZB) IJTIMOIIY FANLAR Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O'ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O'ZB) PEDAGOGIKA FANLAR Р.Ф.Ахтариёва, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O'ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O'ZB)



PEDAGOGLARDA KASBIY REFLEKSIYANING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Jo‘rayev Nurbek Sa‘dullayevich

Qo‘qon davlat pedagogika instituti,

ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor

Psixologiya fanlari nomzodi, professor

Manzil: O‘zbekiston, 150700 Qo‘qon shahar

Email: nurbekjorayev926@gmail.com

ORCID: 0009-0001-3222-9219

Annotatsiya. Maqolada pedagog shaxsida kasbiy refleksiyaning rivojlanishining psixologik xususiyatlari, omillari hamda mexanizmlari ochib berilgan. Ayniqsa, kasbiy refleksiyaning pedagog shaxsida namoyon bo‘lishi borasida xorij olimlarining yondashuvlar, nazariy qarashlarning mazmunlari ilgari surilgan. Shuning bilan birga kasbiy refleksiyaning ta’lim faoliyatidagi o‘rni masalalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: refleksiya, refleksivlik, kasbiy refleksiya, pedagog shaxsi, kasbiy muhim sifat, kasbiy muvaffaqiyat, refleksiv tayyorgarlik, refleksiv kompetensiya, refleksiv-ijodiy imkoniyat, refleksiv qobiliyat, refleksiv madaniyat.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕФЛЕКСИИ У ПЕДАГОГОВ

Аннотация. В статье раскрыты психологические особенности, факторы и механизмы развития профессиональной рефлексии в личности педагога. Выдвигались подходы, содержание теоретических воззрений зарубежных ученых, особенно в отношении проявления профессиональной рефлексии в личности педагога. Вместе с тем раскрыты вопросы роли профессиональной рефлексии в учебной деятельности.

Ключевые слова: рефлексия, рефлексивность, профессиональная рефлексия, личность педагога, профессионально важное качество, профессиональный успех, рефлексивная готовность, рефлексивная компетентность, рефлексивно-творческая способность, рефлексивная способность, рефлексивная культура.

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF PROFESSIONAL REFLEX IN EDUCATORS

Annotation. The article reveals the psychological features, factors and mechanisms of the development of professional reflex in the personality of an educator. Especially when it

comes to the manifestation of professional reflection in the personality of an educator, the approaches of foreign scientists, the content of theoretical views have been put forward. At the same time, the issues of the role of professional reflex in educational activities are revealed.

Keywords: reflex, reflexivity, professional reflex, pedagogical personality, professionally important quality, professional success, reflexive training, reflexive competence, reflexive-creative opportunity, reflexive ability, reflexive culture.

KIRISH

Kasbiy ta’limning vazifalaridan biri - kasbiy refleksiyaning psixologik qonuniyatlarini hisobga olgan holda mutaxassis shaxsini, uning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishdan iborat. Universitet talabasining o‘quv va kasbiy faoliyatida refleksiya asosiy tarkibiy qismlardan biri bo‘lib, kasbiy refleksiya kasbiy ta’limning zarur tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuni ta’kidlash kerakki, kasbiy refleksiyaning tuzilishi bilish jarayonlarni diagnostika qilish va korreksion-shakllantiruvchi faoliyatlarni olib borish uchun zarur asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuning bilan birga o‘quv va kasbiy faoliyat jarayonida sub’yektning rivojlanishini tashkil etish vositalarini ishlab chiqishga yordam beradi.

V.A.Tolochek tuzilmani barqarorlik, o‘zgarmaslik, ichki tashkilot, ma’lum bir tizimning sifatini belgilovchi ma’lum bog‘lanishlar, munosabatlar, komponentlar, elementlar majmui sifatida belgilaydi [8]. O‘z navbatida, tuzilish kasbiy refleksiyaning mohiyatini belgilaydigan tarkibiy qismlardan iborat. Kasbiy refleksiyaning tarkibiy qismlarini aniqlash va rivojlantirish uning namoyon bo‘lish jarayonini aniq refleksiyalashga va uning mexanizmini tushunishga yordam beradi. Bunday holda, komponent Ye. F. Gubskiy tomonidan tuzilmaning ajralmas qismi sifatida tushuniladi [3].

O‘qituvchining kasbiy refleksivligi nima ekanligini yaxshiroq tushunish uchun, birinchi navbatda, umuman olganda, kasbiy refleksiya tushunchasining mazmunini aniqlashimiz maqsadga muvofiq. Kasbiy refleksiya tushunchasini birinchi marta B.Z.Vulfovning fikriga ko‘ra, kasbiy refleksiya - bu tanlangan (tanlamoqchi bo‘lgan) kasb talablari bilan o‘zini o‘zi anglash, “Men” ning imkoniyatlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatdir. Kasbiy rivojlanishning zamonaviy psixologiyasida refleksiya shaxsning markaziy kasbiy muhim sifati bo‘lib, uning muvaffaqiyati inson kasbiy faoliyatini o‘zlashtirish va bajarishiga bog‘liq [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kasbiy refleksiyani o‘rganish borasida rus psixologiyasida tafakkur va ijodining refleksiv mexanizmlari, darajalari, shakllari va tipologiyasi haqidagi umumiy qabul qilingan g‘oyalar bilan belgilanadigan tadqiqot yo‘nalishlarining xilma-xilligi va ko‘p qirraliligi mavjud (B.Z.Vulfov, E.F.Zeyer, A.V.Karpov, A.K.Markova, V. A. Tolochek, O. N. Rodina, A. M. Stolyarenko va boshqalar) [7]. Jumladan, O.N.Rodina refleksivlikni kasbiy faoliyat sub’yekti sifatida insonning eng muhim kasbiy muhim sifatlaridan biri deb biladi. U kasbiy faoliyat muvaffaqiyatining umumiy bahosining tashqi mezoni (boshqa insonlar tomonidan berilgan

baholar) va ichki (o‘z faoliyatining muvaffaqiyatini o‘zi baholashi) o‘z ichiga olishi kerakligiga e‘tibor qaratadi.

O.N.Rodinaning fikrlariga ko‘ra, refleksivlik darajasi yuqori bo‘lgan inson o‘z ishini yetarlicha baholay oladi va tashkil qiladi hamda natijada muvaffaqiyatga erishadi. Akmeologiyada refleksivlik shaxsning refleksiv madaniyati kontekstida o‘rganiladi.

Mutaxassis shaxsining ajralmas sifati sifatida refleksiv madaniyatni rivojlantirish refleksiv tayyorgarlik, refleksiv kompetensiya, refleksiv-ijodiy imkoniyat va refleksiv qobiliyat kabi dinamik komponentlarni tarbiyalashdan iborat (Derkach A.A., I.N. Semenov, A.F. Balayeva, G.I., Davidov T.G. Boldina, Stepanov S.Yu.). Refleksiv qobiliyatlarni o‘zini o‘zi hurmat qilish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi korreksiya qilish o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi (I.N. Semenov). Refleksivlik odatda shaxsning markaziy kasbiy muhim sifatlaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy refleksiya inson faoliyatining muvaffaqiyatini belgilovchi omil sifatida qaraladi. Bu uning ijodiy tafakkurini tashkil etishga, kasbiy mahoratini oshirishga va yangi mutaxassisliklarni egallashga yordam beradi. Bu esa refleksiyani shaxsning shaxsiy va kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish mexanizmi, malakali mutaxassis, ijodiy o‘zini o‘zi anglash mexanizmi sifatida qarashga imkon beradi (B.Z.Vulfov). “Pedagogning kasbiy refleksiyasi” atamasi psixologiya fanida nisbatan yaqinda paydo bo‘ldi. B.Z.Vulfovning fikriga ko‘ra, o‘qituvchi shaxsining refleksivligi har qanday kasbiy refleksiya bilan bir xil, ammo mazmuni bo‘yicha pedagogik faoliyatning xususiyatlariga, birinchi navbatda, o‘zining pedagogik tajribasi bilan bog‘liqdir [2].

Fan va texnika rivojlanishining tez sur‘atlari, ta’lim standartlarini o‘zgarishi va murakkablashishi, o‘qituvchilardan doimiy kasbiy va shaxsiy rivojlanishni talab qiladigan yangi ta’lim va tarbiya texnologiyalarini joriy etish zaruratini taqazo etmoqda. Ularning barchasi XX-XXI asr boshlarida o‘qituvchining kasbiy refleksivligiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirdi (Ye.P.Belozersyev, V.V.Davidov, I.A.Zimnaya, A.I.Markova, L.M.Mitina, G.S.Pyankova, V.A.Slastenin va boshqalar) [7].

Bugungi kunda o‘qituvchilarning kasbiy refleksivligi ilmiy tadqiqot ob‘yekti sifatida kasbiy o‘zini o‘zi anglash, kasbiy o‘zini o‘zi tarbiyalash, kasbiy madaniyat va kasbiy o‘qituvchilar tayyorlash muammolari bo‘yicha tadqiqotlarda markaziy o‘rinlardan birini egallaydi (B.Z.Vulfov, V.N.Xarkov, G.M.Kojaspirova, N.T.Selezneva, V.A.Adolʼf, I.Yu.Stepanova, S.Yu.Stepanov, G.F.Poxmelkina, Ye.P.Varlamova va boshqalar).

So‘nggi paytlarda bo‘lajak o‘qituvchilarni innovasion pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida pedagoglarning kasbiy refleksivligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari bilan bog‘liq holda o‘qituvchilarning refleksivligiga qiziqish sezilarli darajada oshdi (S.N.Batrakova, Ye.N.Dmitriyeva, V.L.Matrosov, O.V.Moskalenko, L.M.Mitina, V.A.Slastenin, L.V.Rudneva va boshqalar) [4].

Ta’lim tizimi uchun mutaxassislar tayyorlashning sifat muammolarini ishlab chiqishda ishtirok etadigan yetakchi mutaxassislar refleksivlik o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasining

muhim elementi ekanligiga qo‘shiladilar (V.A.Adolf, I.N.Stepanova, V.N.Vvedenskiy, Ye.I.Isayev, N.V.Kuzmina, A.A.Rean, G.M.Kodjaspirpova, A.K.Mitina, V.A.Slastenin va boshqalar). Jumladan, N.V.Kuzmina pedagogik refleksiyaning o‘z faoliyati va shaxsning kuchli va zaif tomonlari sohasidagi avtopsixologik kompetensiyasi bilan bog‘laydi. V.N.Vvedenskiy refleksiya o‘qituvchining o‘z xulq-atvorini boshqarish qobiliyatiga ega ekanligini nazarda tutuvchi boshqarish kompetensiyasining bir qismi deb hisoblaydi. U maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, safarbarlik va barqaror faoliyatni, shuningdek, faoliyat natijalarini baholashni boshqaruvchi kompetentlikning tarkibiy qismlari sifatida ko‘radi.

A.K.Markova bo‘yicha kasbiy va pedagogik kompetensiyaning qadriyatli-mazmunli komponentida refleksiya o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘ladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Aksariyat olimlar pedagogik faoliyat sub'yekting kasbiy o‘zini o‘zi anglashini tavsiflash maqsadida “pedagogning kasbiy refleksivligi” atamasidan foydalanadilar. Shu bilan birga, I.V.Orlova ta’kidlaganidek, pedagogning kasbiy refleksivligi o‘qituvchining o‘z faoliyatiga nisbatan analitik pozitsiyasini egallash qobiliyatida namoyon bo‘ladigan murakkab psixologik hodisa sifatida tushuniladi. Jumladan, A.A. Bizyayeva pedagogik refleksiyaning ikki darajasini belgilaydi:

1) refleksiv ongning konstruktiv-ijro etuvchi, motivasion, prognostik jihatlarini o‘z ichiga olgan operativ;

2) o‘qituvchining o‘z faoliyatidagi kasbiy va shaxsiy sub'yektiv yo‘nalishini va refleksiv vaziyatda shaxsiy, sub'yektiv ishtirokini tavsiflovchi shaxsiy daraja [5].

I.A.Stesenko o‘qituvchining kasbiy refleksivligi murakkab tuzilishga ega faoliyat deb hisoblaydi. Olimning fikricha, pedagogik refleksiyaning psixologik tuzilishi motivasion-maqсадli, kognitiv-operativ, affektiv, baholovchi va axloqiy-irodaviy komponentlardan iborat. Pedagogning refleksiv faoliyati tarkibidagi motivasion-maqсадli komponentining mazmuni quyidagilarni o‘z ichiga oladi: refleksiv faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj, pedagogik refleksiyaning yaxshilashga ijobiy munosabat va qiziqish hamda undan foydalanish maqsadlaridan xabardorlik darajasi bilan belgilanadi.

Kognitiv-operasion komponent pedagogik refleksiyaning nazariy asoslarini va pedagogning refleksiv faoliyatini amalga oshirishdagi kasbiy mahoratini belgilaydigan bilimlarni o‘z ichiga oladi. Affektiv komponent o‘qituvchining refleksiv faoliyatini amalga oshirishdagi amaliy harakatlariga hamroh bo‘lgan his-tuyg‘ularni, muvaffaqiyatga ishonch hissini o‘z ichiga qamrab oladi.

Baholash komponenti refleksiv faoliyatda o‘zini o‘zi baholash va nazorat qilishni, axloqiy irodaviy komponent esa samarali refleksiv faoliyatga hissa qo‘shadigan shaxsiy sifatlarni o‘z ichiga oladi [5].

O‘qituvchining kasbiy refleksivligi uning shaxsi va kasbiy faoliyatida o‘zini o‘zi rivojlantirish hamda takomillashtirishdagi roli bo‘yicha olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, refleksiv baholash tufayli o‘qituvchi o‘ziga kasbiy faoliyat

sub'yekti sifatida munosabatni rivojlantiradi. Rivojlangan refleksiv jarayonlar va refleksiv qobiliyat muammoga bir, ko'pincha stereotipik nuqtai nazardan qaralganda, aqliy faoliyatning egosyentrizmini yengish uchun zarur shartdir. O'qituvchi o'ziga va o'z harakatlariga tashqaridan, boshqa shaxs pozitsiyasidan qaray olsa, turli nuqtai nazarlarni hisobga olsagina, u o'zining ijodiy tafakkurini markazsizlashtirishga va biryozqlama munosabatlarni yengishga qodir (S.L.Rubinshteyn, I.N.Semenov, A.A.Tyukov va boshqalar).

Rivojlangan refleksivliksiz o'qituvchi o'z ijodiy kasbiy faoliyatining sub'yekti bo'la olmaydi. Shunday qilib, o'qituvchining kasbiy refleksivligi uning ijodiy individualligini rivojlantirishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Pedagogning kasbiy faoliyatida refleksivlik quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- pedagogik faoliyatni o'zlashtirish jarayonida bo'lajak o'qituvchining kasbiy o'zini o'zi anglashi va kasbiy moslashuvini ta'minlash (Ye.F.Zeyer, I.A.Savenkova);

- bajarilayotgan faoliyatga ongli munosabatni rivojlantirish (B.F.Vulfov, I.N.Semenov, A.A.Tyukov, S.L.Rubinshteyn);

- pedagogik faoliyatni tizimli yaxlit boshqarishni amalga oshirish (B.P. Kovalyov);

- ijodiy tafakkurning mahsuldor va innovasion sifatlarini determinatsiyasi (L.M.Mitina, S.Yu.Stepanov, I.N.Semenov, V.N.Xarkin);

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish (A.A.Rean, T.I.Rudneva);

- o'zini o'zi baholash, o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi boshqarishning psixologik mexanizmlari asosida kasbiy mahorat, pedagogik mahorat, kasbiy kompetensiya va doimiy shaxsiy va kasbiy takomillashtirish va shaxsiy rivojlanish qobiliyatini oshirish (A.A.Bizyayeva, A.K.Markova, N.V.Kuzmina);

- o'qituvchilarni kasbiy deformatsiyadan va "pedagogik inqirozlar" va "pedagogik charchoq" kabi salbiy hodisalardan himoya qilishdan (L.M.Mitina) iborat.

Pedagogning kasbiy faoliyatidagi kasbiy refleksivligining muhim rolini e'tirof etish refleksiv-faollik texnologiyalarini faol rivojlantirishga va ularni, birinchi navbatda, pedagogika mutaxassisligi talabalari va amaliyotchi o'qituvchilar orasida refleksivlikni rivojlantirish uchun amaliy qo'llashga yordam berdi.

Yuqoridagilar bilan bog'liq holda, M.M.Karnelovich tomonidan ilgari surilgan pedagog kasbiy refleksivligi deganda biz o'qituvchi shaxsiga xos bo'lgan xususiyatlarni o'z ichiga olgan, kasbiy faoliyatda o'zini o'zi rivojlantirishini belgilaydigan ajralmas shaxsiy rivojlanishini tushunamiz [6].

XULOSA

Keltirilgan fikrlarga asoslangan holda quyidagi xulosalarni shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Refleksivlikning tipologiyasi, refleksivlikning shaxs shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati va o'qituvchining professional sifatida shakllanishi adabiyotda batafsil ko'rib chiqilgan. Shunday qilib, o'qituvchining kasbiy refleksivligi uning kasbiy fikrlashiga, kasbiy o'zaro munosabatlarning tabiatiga, professional sifatida o'zini o'zi belgilashga va o'zining

kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchilarning kasbiy refleksivligi uni rivojlantirish bo‘yicha maqsadli faoliyat olib borishni talab qiladi.

Hozirgi vaqtda adabiyotda refleksiv ko‘nikmalarning asosini tashkil yetuvchi shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga, shuningdek, refleksiv tafakkur va refleksiv faoliyat usullari va uslublarini o‘zlashtirishga qaratilgan juda ko‘p turli xil shakl va metodlari mavjud. Bizningcha, kadrlar bilan uslubiy ishlar doirasida ta’lim tashkiloti o‘qituvchilarining kasbiy refleksivligini rivojlantirish bo‘yicha bunday maqsadli ishlarni tashkil yetish yeng maqbuldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Вульфов Б.З. Рефлексия: учить, управляя [Текст] / Б.З. Вульфов // Мир образования. – 1997. – № 1. – С. 63–64
2. Гимпель Л. П., Педагогическая рефлексия в структуре профессиональной деятельности [Текст] / Л. П. Гимпель // Личность, семья и общество: вопросы педагогики и психологии: сб. ст. по матер. I междунар. науч.-практ. конф. № 1. Часть I. – Новосибирск : СибАК, 2010.
3. Губский Е.Ф. Философский энциклопедический словарь. М.: ИНФРА-М, 2003 574 с.
4. Дьюи Д. Психология и педагогика мышления [Текст] / пер. с англ.: Н.М. Никольской. – М. : Совершенство, 1997. – 15 с
5. Огнева Т.А. Анкета отношения учащихся к классному руководителю [Электронный ресурс]. // Инфоурок. URL: <https://infourok.ru/anketa-otnosheniya-uchaschihsya-i-roditeley-k-klassnomurukovoditelyu-1998314.html>
6. Карнозова Л.М. Самоопределение профессионала в проблемных ситуациях: психосемантическое исследование на материале организационно-деятельностных игр: Автореф. Дис. канд. психол. наук. [Текст] / Л.М. Карнозова, ПИ РАО – М., 1981 – 18с.
7. Пьянкова Г.С. Рефлексия в структуре интегральной индивидуальности профессионала: монография [Текст] / Г.С. Пьянкова; Краснояр. гос. пед. ун-т им. В.П. Астафьева. – Красноярск, 2008. – 260 с
8. Толочек В.А. Современная психология труда: Учебное пособие СПб.: Питер, 2005

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PSIXOLOGIYA
PSYCHOLOGY

KASBIY MOTIVATSIYANING BO‘LAJAK ICHKI ISHLAR XODIMLARI RUHIY HOLATIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

Bekmuratova Xalima Maksatovna

*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Surxondaryo
akademik litseyi psixologi.*

E-mail: khalima.0818@gmail.com

khalimabekmuratova@gmail.com

+99891 541 08 18

Annotatsiya: Shaxsning kasbiy mahoratini va kelajakdagi faoliyatini muvaffaqiyatli shakllantirish mutaxassislarning ishlashga tayyorligiga asoslanadi. Maqolada yosh mutaxassislarning kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning psixologik xususiyatlari ochib beriladi. Kasbiy motivatsiyaning tarkibiy qismlarida asoslanadi. Ularning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Shuningdek, Yosh mutaxassislarda barqaror ijobiy kasbiy motivatsiyani rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy yo‘nalishlar va psixologik sharoitlar belgilab beriladi.

Kalit so‘zlar: motiv, motivatsiya, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, hissiyotlar, muvaffaqiyatsizlik, kasbiy motivatsiya, kasbiy kompetensiya, qat’iyatlilik, ko‘tarilish, qiziquvchanlik, qo‘zg‘atish, tahlil.

Аннотация: Успешное формирование профессиональных навыков и будущей деятельности человека основано на готовности специалистов к трудовой деятельности. В статье раскрываются психологические особенности формирования профессиональной мотивации молодых специалистов. В его основе лежат компоненты профессиональной мотивации. Это способствует развитию их готовности к успешной профессиональной деятельности. Также определены основные направления и психологические условия, необходимые для формирования устойчивой положительной профессиональной мотивации у молодых специалистов.

Ключевые слова: мотив, мотивация, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, эмоции, неудача, профессиональная мотивация, профессиональная компетентность, решимость, продвижение по службе, любопытство, возбуждение, анализ.

Annotation: The successful formation of a person's professional skills and future activities is based on the readiness of specialists to work. The article reveals the psychological features of the formation of professional motivation of young specialists. It is based on the components of professional motivation. It contributes to the development of their readiness for

successful professional activity. Also, the main directions and psychological conditions necessary for the development of stable positive professional motivation in young specialists are identified.

Keywords: motive, motivation, internal motivation, external motivation, emotions, failure, professional motivation, professional competence, determination, promotion, curiosity, arousal, analysis.

KIRISH (INTRODUCTION) Bugungi kunda Ichki ishlar tizimida faoliyat ko‘rsatmoqchi bo‘lgan nomzodlardan chuqur bilim va salohiyat talab qilinadi. Shu nuqtai nazardan, Ichki ishlar vazirligiga qarashli akademik litsey bitiruvchilarining kasbiy motivatsiyasini shakllantirish alohida ahamiyatga egadir. Jahon ta’limida Ichki ishlar organlari faoliyati uchun mutaxassislarni tayyorlashda o‘qitish tizimida psixologik bilimga ham alohida e’tibor qaratiladi. Chunki u birinchi navbatda, intellektual salohiyat va insonlarni yaxshi bilish ko‘nikmalarini shakllantiradi; ikkinchidan, tizimning asosiy maqsadi jarayonning o‘zi emas, balki jarayonning o‘zi o‘quvchilarning ma’lum bir natijaga erishishi haqidagi g‘oyani o‘z ichiga oladi. Bunda kasbiy motivatsiya, “Kasbiy kompetensiya” tushunchasi kasbiy tayyorgarlik natijasini aks ettiradi. Integratsiyalashgan xususiyatga ega bo‘lgan bu xususiyat bo‘lajak mutaxassisning kasbiy mahorat darajasini, kasbiy faoliyatning real vaziyatlarida yuzaga keladigan murakkab muammolarni hal qilish, bilimlari, kasbiy va hayotiy tajribasi, shuningdek, samarali qarorlar qabul qilish strategiyasini qo‘llash qobiliyatini belgilaydi. Shunday qilib, kasbiy kompetensiya murakkab psixologik tushuncha bo‘lib, mutaxassisning samarali kasbiy faoliyati uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. U bilim, ko‘nikma va ularni real ob’ektlar va jarayonlarda qo‘llash qobiliyatini, shuningdek, maqsadlilik, mustaqillik, mas’uliyat, tashkilotchilik, ijodkorlik kabi kasbiy ahamiyatga ega va shaxsiy fazilatlarni o‘z ichiga oladi[1.]. Yuqori malakali mutaxassisni tayyorlash va kasbiy kompetensiyani rivojlantirish uning uzluksiz ta’limini tashkil qilmasdan mumkin emas, bu esa ichki ishlar vazirligiga qarashli akademik litsey o‘quvchilarini kelajakda ichki ishlar tizimida faoliyat ko‘rsatishi uchun ta’lim jarayonida olayotgan bilimlari o‘zining kasbiy faoliyatida samarali ta’sir ko‘rsatishi zarurligini nazarda tutadi. O‘quvchilarning litseyda ta’lim olish jarayonida, ularning ruhiy barkamolligi ham tizimli, maqsadli, mustaqil ishlashi ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy va tarbiyaviy faolligini oshirish vositasi sifatida qaraladi. Mustaqil ishlash, ta’lim jarayonida mustaqil ishlay olish shunchaki istak emas, balki ochiq zaruratga aylanadi. Shu munosabat bilan bilimlarni o‘zlashtirishning faol usullariga, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, shaxsning ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda individual rivojlanishiga ham e’tibor qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD / (MATERIALS AND METHODS)

Motiv va motivatsiya muammosi jahon psixologiyasida turli tuman nuqtai nazardan yondashish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Uzoq va yaqin chet ellarda o‘ziga xos psixologik

maktab vujudga kelgan bo‘lib, ularning negizida ilmiy pozitsiyalar va konsepsiyalar mohiyati jihatidan farqlanuvchi g‘oyalar va yo‘nalishlar mujassamlashdi.

Rus va sobiq sovet psixologiyasi namoyondalari K.D.Ushinskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazurskiy, A.A.Uxtomskiy, S.V.Rubinshteyn, V.S.Merlin, V.I.Selivanov va boshqalar mazkur muammo yuzasidan tadqiqot ishlari olib borganlar. Bundan tashqari YYevropa va Amerika mamlakatlarida motivatsiyaga oid 30 dan ortiq ilmiy konsepsiyalar mavjuddir[6.].

Insonning xatti-harakati va ma‘lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq faoliyatga undovchi sababga motiv deyiladi. Insonning faoliyat motivlarini o‘rganish shaxsning ma‘naviy-psixologik mohiyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Kishilarning xulq-atvoriga qarab, uning xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularning motivlarini aniqlashga intilish lozim. Shunda xatti-harakatlarni odam uchun tasodifiy yoki qonuniy ekanligini anglash mumkin bo‘ladi.

Bunday xatti-harakatlarni yana takrorlanishini oldindan ko‘ra olish, shaxsiy holatlarning ayrimlarini yuzaga keltirmaslikning oldini olish, boshqalarning taraqqiy etishini qo‘llab-quvvatlash mumkin. Ba‘zilar mehnatga o‘z ehtiyojlariga ko‘ra sidqidildan munosabatda bo‘lsalar, ba‘zilar o‘z burchlarini anglaganliklaridan, yana ba‘zilar o‘zlarining qabih niyatlariga erishish uchun vaqtincha sun‘iy munosabatda bo‘ladilar. Motivatsiya- odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui bo‘lib, xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni hisoblanib unga tashabbus, yo‘nalganlik, tashkilotchilik, qo‘llab-quvvatlash kiradi. Motirovka deganda inson xulq-atvorini tushuntirish bo‘lib, unda “Nima uchun?”, “qanday maqsad bilan?”, “qanday ma‘noda?” kabi savollarning motivatsiyaga bog‘liqligidir[3.].

Motivatsiya inson xulq-atvoridagi ijobiylikni va uning faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi.

Psixologiyada motivlashtirish deganda psixologik hodisalarning o‘zaro mustaqil bog‘langan, lekin bir-biriga to‘la mos kelmaydigan nisbatan mustaqil uchta turi tushuniladi: a) Individdning ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatga undovchi sabablar sifatidagi motivlashtirishdir. Faollik holatini paydo bo‘lishini sub‘ektiv ehtiyojlarini izohlab beradi. b) Motivlashtirish faollik kimga qaratilgani boshqa xulq-atvor emas, balki xuddi shunaqasi tanlaganligini izohlab beradi. Motivlar xulq-atvor yo‘nalishini tanlashni belgilaydigan sabablardir. Bular birgalikda kishi shaxsining yo‘nalishini tashkil etadi. c) Kishi axloqi va faoliyatini boshqaradigan vosita hisoblanadi. Bularga emotsiyalar, istaklar, qiziqishlar kiradi. Ustanovkalar - yo‘nalish, yo‘naltirish ma‘nosini anglatib, kishining tevarak- atrofdagi odamlarga yoki ob‘ektga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishlarini, ularni idrok qilinishi, sezish, ularga baho berish va qandaydir harakat qilishga tayyorgarligini anglatadigan holatdir. Yo‘naltirilgan faoliyat sub‘ektning ma‘lum vaziyatda faol yo‘l topib keta oladigan harakatlari majmuidir. Yo‘nalish – tug‘ilgan yo‘l, maqsad sari shaxsning xatti-harakati va faoliyatini aniq sharoitlardan qat‘iy nazar ma‘lum yo‘lga yo‘naltiruvchi barqaror motivlar majmuidir. Ular asosiy, yetakchi va bosh ehtiyojlar, qiziqishlar, moyillik, e‘tiqod, dunyoqarashlar, yuksak g‘oyalar bilan xarakterlanadi.

Har qanday motivlarning orqasida shaxsning ehtiyojlari yotadi. Inson ehtiyojlari, maqsadi, istagi, qiziqishlari shaxsiy holatlardir.

Ehtiyoj - jonli mavjudodning hayot kechirishning konkret shart-sharoitlariga qaramligini ifoda etuvchi va bu shart-sharoitlarga nisbatan uning faolligini vujudga keltiruvchi holatdir. Amerikalik psixolog A. Maslou “Inson ehtiyojlarini ierarxiya” tizimlarini quyidagicha tavsiya etadi:

Motivatsiyaning bir necha psixologik nazariyalari mavjud:

1. Qaror qabul qilish nazariyasida ta’kidlanishicha inson ongi tafakkurga, iroda va xatti-harakatni tanlash imkoniyatiga ega. Demak, inson xulqi motivining asosi aql, ong va inson irodasidir[5].

2. Instinktlar nazariyasida (Z. Freyd, U. Magdugall) – biologizator nuqtai nazari mavjud bo‘lib, unga asosan insonga, hayvonlarga xos instinktlar biriktirilgan. XX asrning 20-yillarida instinktlar nazariyasi o‘rniga inson xulq-atvorini biologik ehtiyojlar bilan bog‘lovchi kontsepsiya yuzaga keladi.

3. Xulq-atvor motivatsiyasi nazariyasi va oliy nerv faoliyati nazariyasi. XX asr boshida paydo bo‘lib, xulq-atvor “Stimul – reaksiya” sxemada ko‘rib chiqiladi. I.P.Pavlov va uning izdoshlari N.A.Bernshteyn va P.K.Anoxin xulq-atvor dinamikasi funksional sistemasi modelini ishlab chiqqanlar.

4. Motivatsiyaga kognitiv yondashuv nazariyasi – inson xulq-atvorini tushuntirishda uning ongi va bilimi bilan bog‘liq fenomenlarga alohida e’tibor beriladi.

5. Faoliyat nazariyasi (A.N. Leontev) ga asosan motivlarni yuzaga keltiruvchi kuchlar ehtiyojlardir. Bundan shunday qonuniyat yuzaga keladiki, motivlar rivojlanishi faoliyat kengligining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lib, u predmet faoliyatini tashkil etuvchisidir.

Kasbiy motivatsiya - bu “Shaxsning o‘z kasbiy faoliyati jarayonida motivatsion xususiyatlari va holatlari yig‘indisi: faoliyat, rag‘batlantiruvchi, ma’no hosil qiluvchi, uning faoliyatini tartibga soluvchi” (Suvorov V.A., 2003).

N.V. Boytsova kasbiy faoliyat uchun motivatsiyani “murakkabroq metatizim - shaxsiyatdagi murakkab tashkil etilgan tizim” deb talqin qiladi (Boytsova N.V., 2009). U kasbiy faoliyat motivatsiyasi xususiyatlarining qiymat-semantik mazmunini, faoliyatning sub’ekt yo‘nalishini va dinamik xususiyatlarini ko‘rib chiqadi. Kasbiy faoliyat, uning nuqtai nazari bo‘yicha, motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, intilishlar, maqsadlar kabi motivlar turlari bilan belgilanadi.

MUHOKAMA (DISCUSSION) Motivatsiya ijodiy faoliyatni keltirib chiqaradigan va qiziqish yo‘nalishini belgilovchi motivlar sifatida tushuniladi. Kasbiy motivatsiya - bu kasb tanlashga va ushbu kasb bilan bog‘liq vazifalarni doimiy ravishda bajarishga undaydigan aniq motivlarning harakati. Shuningdek, kasbiy motivatsiya insonni mehnat faoliyatida muayyan maqsadlarga erishishga undaydigan omillar majmuidir. Bu omillar ham ichki, ham tashqi bo‘lishi mumkin. Eng kuchli rag‘batlantiruvchi omil - bu keyingi samarali kasbiy faoliyatga tayyorgarlikdir. Kasbiy motivatsiya haqidagi nazariy bilimlar va ushbu bilimlarni psixologik

ta'sirini tashkil qilish va kasbiy faoliyatda ushbu jarayonga hamroh bo'lish uchun qo'llash o'rtasida tafovut mavjud. Motivatsiya masalasini amalda o'rganish juda qiyin. Yechilmagan muammolarga qaramay, psixologiya motivatsiya haqida juda ko'p bilimlarni to'pladi. Ta'rif - bu odam yoki hayvonning xatti-harakatlarini keltirib chiqaradigan va boshqaradigan, maqsadga erishishga qaratilgan ichki omillar tizimi. Samukina (2006) fikriga ko'ra, motivatsiya ikki ma'noga ega: xatti-harakatni belgilovchi omillar tizimi (ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, niyatlar, intilishlar) va xarakterli xususiyat sifatidir[3.].

Motivatsiya tushunchasi insonni ma'lum bir kuch sarflagan holda, ma'lum bir mehnatsevarlik va vijdonlilik darajasida, ma'lum maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan qat'iyatlilik bilan kasbiy faoliyatni amalga oshirishga undaydigan kuchlar majmui sifatida aniq bo'ladi.

Motivatsiya doirasida biz ikki xil jihatni topishimiz mumkin:

Ichki motivatsiya: bu turtki, shaxs o'zini qanoatlantirish uchun biror-bir harakatni amalga oshirish niyatida bo'lganda yuzaga keladi, chunki u aytilgan harakatni o'zi uchun qiziqarli yoki yoqimli deb hisoblaydi. Akademik sohada, agar o'quvchi ichki motivatsiyaga ega bo'lsa, u o'z vazifalarini bajarishga va adekvat o'qishga qiziqadi, chunki bu harakatlar unga yoqadi va unga shaxsiy foyda keltiradi.

Tashqi motivatsiya: Bu motivatsiya inson mukofot olish yoki jazodan qochish uchun ishni tugatganida paydo bo'ladi. Ya'ni, bu motivatsiya tashqi omillar bilan shartlangan. Bunga misol qilib, o'quvchining ota-onasi yoki ma'lum muhitning talablaridan jazolanmaslik uchun yaxshi natijalarga erishish uchun motivatsiyasi bo'lishi mumkin.

Ideal - ichki motivatsiyani rag'batlantirishga harakat qilish va o'quvchi o'z majburiyatlarini qiziqish va o'z xohishi bilan bajarishdir.

Motivatsiya insonning ishdagi samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ularning ishlab chiqarish majburiyatlari. Shu bilan birga, motivatsiya va mehnat faoliyatining yakuniy natijasi o'rtasida bevosita bog'liqlik yo'q. Ba'zida o'ziga topshirilgan ishni sifatli bajarishga e'tibor qaratgan odam, kamroq yoki hatto zaif motivatsiyaga ega bo'lgan odamga qaraganda yomonroq natijalarga erishadi. Motivatsiya va ishning yakuniy natijasi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikning yo'qligi, ikkinchisiga boshqa ko'plab omillar, xususan, xodimning malakasi va qobiliyati, bajarilayotgan vazifani to'g'ri tushunishi, ish jarayoniga atrof-muhitning ta'siri va boshqalar ta'sir qilishi bilan bog'liq.

Insonning faol harakat qilishi va unda doimiy motivatsiya bo'lishi uchun uning hissiyotlari ham birinchi navbatda, tartiblangan va ularni boshqara biladigan bo'lishi lozim. Insonning emotsional hayoti, uning his-tuyg'ulari, quvonch tashvishi, xunsandchiligi azal-azaldan insonlar e'tiborini o'ziga tortib kelgan. His-tuyg'u o'zi nima? Bu - borliqni o'ziga xos aks etishi bo'lib unda insonning olamga sub'ektiv munosabati aks etadi. His-tuyg'u psixik jarayon bo'lib bunda insonni borliqqa o'zining shaxsiy ichki sub'ektiv munosabatini aks etadi. Emotsiyalar - lotincha so'zdan olingan (emovere) to'liqlashtirish ma'nosiga ega. Ichki yoki tashqi qo'zgatuvchilar ta'siriga subyektiv holatda ifodalovchi javob reaksiyasidir. Ya'ni

hissiyot – tashqi olamdagi narsa va hodisalarga nisbatan bo‘lgan munosabatlarimizning va munosabatlarimizdan hosil bo‘ladigan ichki kechinmalarimizni ongimizda aks ettirishdir. Hissiyot o‘ziga xos aks ettirish jarayoni bo‘lib, bunda narsa va hodisalarning bevosita emas, balki shu narsalarning aks ettirish jarayonidan hosil bo‘ladigan ichki kechinmalari va munosabatlari aks ettiriladi. His-tuyg‘u psixik jarayongina bo‘lib qolmay psixik holat hamdir. U xususiyat bilan xarakterlanadi. His - tuyg‘uni yuzaga keltiruvchi sabab stimullardir. Faoliga ko‘ra hislar stenik (kuchli) va astenik (kuchsiz) turlarga bo‘linadi. Hislar tashqi jihatdan namoyon bo‘lib ular xatti – harakatlarida, yuzda namoyon bo‘ladi. Uning tashqi ifodalanishi ekspressiya deb ataladi. Ekspressiya bu – hislarning spesifik namoyon bo‘lishi bo‘lib, u ovozda, mimika, pantomimika, yurishda, yoki kulgida namoyon bo‘ladi.

Hislar mazmuniga va qo‘zgaluvchanligiga qarab bo‘linadi: kuchi, tezligi barqarorligiga ko‘ra quyidagi emotsional holatlar ajratiladi. Kayfiyat, ko‘tarinkilik, kuchli xohish -istak, affekt, stress.

Hislar mazmuniga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi: axloqiy hislar, intellektual hislar, estetik hislar, proksis (ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan) hislar. Emotsional holatlarga bog‘lik bir necha nazariyalar mavjud. Ulardan biri Djeys- Lange va ikkinchisi Kennon – Bart nazariyalaridir.

Hissiyotlar o‘zining yuzaga kelishi nuqtai nazaridan odamning ehtiyojlari, qiziqishlari va intilishlari bilan bog‘liq bo‘ladi.

Hissiyot olamida sodir bo‘layotgan narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli bo‘lganlari haqida darak beruvchi signallar sistemasi hisoblanadi. Ma’lum qo‘zg‘alishlar odam uchun xotirjamlik yoki notinchlik haqidagi fikrlarga aylanadi. Ifodalangan xatti-harakat (mimika va pantomimika) signal funksiyasini bajaradi. Ular odamning kechinmalarini boyitadi, yorqinlashtiradi va boshqa odamlarning idrok qilishini yengillashtiradi.

Hissiyot olamda sodir bo‘layotgan narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli bo‘lganlari haqida darak beruvchi signallar sistemasi hisoblanadi. Ma’lum qo‘zg‘alishlar odam uchun xotirjamlik haqidagi signalga aylanadi. Hissiyotlarning boshqaruvchanlik funksiyasi shunda namoyon bo‘ladiki, barqaror kechinmalar bizning xulqimizni yo‘naltiradi va qarama-qarshiliklarni yengishga undaydi. Emotsiyalarni boshqaruvchi mexanizmi kuchli emotsional qo‘zg‘alishni kamaytiradi. Odamlarning hayotida bo‘ladigan qayg‘u-kulfat kabi psixik holatlar xaflidir. Odam ularni boshqarishi lozim.

Yuqorida bayon etib o‘tilganidek hissiyotlarning ifodalanishi ma’lum signallar vazifasini o‘taydi.

Hissiyot 3 turga bo‘linadi: 1) axloqiy hislar; 2) intellektual hislar; 3) estetik hislar.

Axloqiy hislar - shaxsning, odamlarning va o‘zini xulq - atvoriga emotsional munosabatida ifodalanadi. Shaxs bu hislarni kechirar ekan, ijtimoiy axloqiy prinsiplari va normalariga asoslanib, boshqa odamlarning xatti-harakatlariga yoki psixik xususiyatlariga ham e’tibor beradi, namoyon etadi.

Intellectual hislar- aqliy faoliyat jarayonida hosil bo‘ladigan kechinmalarga aytiladi. Ushbu hislar haqqoniy fikrlarga, soxta, ajablanarli, shubhali yoki tushunib bo‘lmaydigan, hayratda qoldiradigan fikrlarga bo‘lgan munosabatlari ifodalanadi. Intellectual hislarga ajablanishini kiritish mumkin. Ajablanish inson bilish faoliyatining ajralmas tomonidir. Ajablangan va qandaydir tushunib bo‘lmagan hayratda qoldiradigan narsaga qaratish odamning bilish ehtiyojlarini qondirishga intilishdir. Ajablanish odamning bilish bilan bog‘liq faoliyatini yuzaga keltirishga undovchi omillardan biridir[9].

Estetik hislar - go‘zallikni idrok qilish, zavqlanish, go‘zallikni yaratishdan iborat bo‘lishi mumkin. Estetik his hamma odamga xos bo‘lgan hissiyotdir. Estetik hislarni yuzaga keltiruvchi manbalar juda ko‘p va xilma xildir.

Iroda odamning biror maqsad yo‘lida ongli ravishda qiyinchiliklarni bartaraf qilishga qaratilgan xatti- harakatlardir. Irodaviy faoliyatda odam o‘zini idora qiladi, xususiy ixtiyorsiz impulsni nazorat qiladi. Iroda tormozlovchi va boshqaruvchi mexanizmlarga ega. Xulqni irodaviy boshqarish ongli ravishda aqliy va jismoniy kuchni maqsadga erishishga qaratilishi yoki aktivlikdan o‘zini ushlab turishidir. Iroda aktiv maqsadni anglash, qarorga kelish, rejalashtirish, bajarish, irodaviy zo‘r berish kabi murakkab mexanizmdan iboratdir. Iroda ikkita funksiyani bajaradi: qo‘zg‘alanuvchanlik va tormozlash. Insonni psixik boshqaruvchanligining buzilishi abuliy (irodasizlik) deb ataladi. Iroda turlari quyidagilardan iborat. **Oddiy irodaviy akt**, murakkab irodaviy jarayon va ekstermal holatlar bilan bog‘liq irodaviy jarayon. Oddiy irodaviy jarayon bu maqsadni aniqlash va darhol vazifani yechish.

Murakkab irodaviy jarayon quyidagi tizimga ega:

1. Intilishni anglash;
2. Maqsad va vositalarni tanlash;
3. Qaror qabul qilish;
4. Qarorni bajarish va ijro etish;

V.M. Selevanov irodani inson xulq-atvorini ongli bajarilishi deb tushuntiradi va uni oldindan ko‘ra olish va tashqi to‘siqlarni yengishda ifodalaydi. Shaxsning irodaviy sifatlariga:

- a) mustaqillik;
- b) qat’iylilik;
- c) dadillik;
- d) o‘zini tuta olishlik kiradi.

Iroda va irodaviy sifatlar sekin-asta organizmning o‘sishi natijasida taraqqiy etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘quvchilar irodasini tarbiyalashda kattalar va o‘qituvchilar to‘g‘ri talab qo‘yishlari, bajarilishi nazorat qilib borishlari, uyushgan tartibda ma’lum maqsad sari intilmoqliklari zarur. Ana shunday tarzda irodani taraqqiy ettirish mumkin.

NATIJALAR (RESULTS) Nima uchun yosh mutaxassislar uchun motivatsiyasi muhim?

-Motivatsiya adekvat va adekvat bo‘lmagan akademik rivojlanish o‘rtasidagi farqlovchi elementdir. Bo‘lajak mutaxassisning ta’limga qiziqishlarini va o‘rganishga tayyorligini ko‘rsatishlari uchun motivatsiya asosiy ahamiyatga ega.

-O‘quvchilar qanchalik g‘ayratli bo‘lsa, ular o‘z o‘qishlariga shunchalik ko‘p jalb qilinadi, ular o‘z vazifalariga shunchalik ko‘p fidoyilik va e’tibor beradilar va natijada o‘zlarining ilmiy maqsadlariga erishishlari osonroq bo‘ladi.

-Xuddi shunday, motivatsiya sizga o‘z qobiliyatlaringizni rivojlantirishga, shuningdek, cheklovlarni yengib o‘tishga imkon beradi.

-Motivlangan o‘quvchi yaxshi natijalarga erishadi va o‘z mashg‘ulotlarini davom ettirishga va tobora murakkab maqsadlarga erishishga ko‘proq qiziqish bildiradi.

O‘quvchilarning motivatsiyasini qanday yaxshilash mumkin?

-O‘quvchilarni rag‘batlantirish muhimligi sababli, o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilari orasida bu holatni rag‘batlantiradigan harakatlarni amalga oshirishlari kerak.

-O‘qituvchilar o‘quvchilar ishtirok etishlari va faol rolini saqlab qolishlari mumkin bo‘lgan amaliy mashg‘ulotlarni rejalashtirishlari juda muhimdir.

-Xuddi shunday, o‘quvchilar oldiga kichik maqsadlar qo‘yilishi mumkin, shunda bir maqsadga erishish ularni keyingi maqsadga erishishga undaydi. Bu yerda o‘qituvchi o‘quvchi bilan adekvat muloqotni yaratishi va ikkala tomon o‘rtasida adekvat aloqa o‘rnatishi muhimdir.

Motivatsiyaning rivojlanishiga bo‘lajak xodimlarning ijodiy faoliyatning turli shakllarida, o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ishlashi, kasbga qiziqishi, shaxsiy rivojlanish bo‘yicha psixolog bilan ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Motivatsiyani oshirishning samarali yo‘li o‘quv jarayoniga intensiv o‘qitish usullarini joriy etishdan iborat bo‘lib, ular o‘quv jarayonini faollashtirishga, o‘quvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligini shakllantirishga yordam beradi. Ko‘pgina o‘quvchilar jamoatchilik e’tirofiga muhtojligini hisobga olsak, o‘quvchining reytingi jiddiy motivatsion rag‘batdir. Shu munosabat bilan o‘quvchilarning mustaqil ishi natijalarini o‘qitish va joriy faoliyat ko‘rsatkichlariga kiritish orqali o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilishning o‘rni katta, bu umumiy reyting bunga bog‘liq. Kasbiy faoliyatiga motivatsion tayyorgarlik o‘quvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy psixologiyada bo‘lajak ichki ishlar xodimi ta’lim xizmatlari sohasidagi yangi tendentsiyalarni hisobga olgan holda, o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishdan ko‘zlangan maqsad ularda birinchi navbatda kelajakka bo‘lgan ishonch, so‘ngra olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay bilish, maqsadli ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Har bir jarayonni to‘g‘ri tahlil qila bilish, turli holatlarda o‘zini boshqara olib, yana oldinga intila bilish qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘z kasbiy darajasini doimiy ravishda oshirishni nazarda tutadi.

XULOSA (CONCLUSION) Xulosa qilib aytganda, Insonni anglanilgan, maqsadli, ongli faoliyatga, xatti - harakatga undovchi sabablar majmui motivatsiyadir. Ushbu mavzuni ahamiyatli jihat shundaki, odamning faoliyat motivlarini o‘rganish, shaxsning ma’naviy-psixologik mohiyatini tushunishga yordam beradi. His-tuyg‘ular odam uchun ahamiyatli

bo‘lgan narsalar haqida darak beruvchi signallar hisoblanib, xotirjamligi va notinchligi borasida ma’lumotga ega bo‘lish imkonini beradi. Estetik, axloqiy, intellektual hislar shaxsni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi va motivatsiyaning turli nazariyalarini o‘rganayotganda, kasbiy faoliyatning motivatsion sohasining mexanizmi va tuzilishini aniqlashda biz shunday xulosaga keldikki, inson motivatsiyasi ham biologik, ham ijtimoiy elementlarga asoslangan murakkab tizimdir, shuning uchun insonning kasbiy faoliyati motivatsiyasini o‘rganishga ushbu holatni hisobga olgan holda yondashish kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI / REFERENCES

- 1.Sh.M. Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”.To‘ldirilgan ikkinchi nashri – Toshkent: “O‘zbekiston” nashryoti, - 2022.
- 2.Sh.M. Mirziyoyev. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. T: “O‘zbekiston” nashryoti - 2017.
- 3.V. Karimova. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashryoti. “O‘AJBHT” markazi, 2002.205 – bet.
4. E.G‘. G‘oziyev. Psixologiya (Yosh davrlar psixologiyasi). Toshkent, 1996.
5. J.J. Ramazanov. Talaba-yoshlarda o‘zini-o‘zi idora qilish motivatsiyasi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini olish uchun .. diss.avtoref.: 19.00.05.- N.: BuxDU, 2022.
6. Мотивация и стимулирование трудовой деятельности: учебник [Мотивация и стимулирование трудовой деятельности: учебник] / под ред. А.Я. Кибанова. - М.: Издательство ИНФРА-М, 2019. - 524 с.
7. Профессиональная мотивация: понятие, содержание, противоречия Белобрыкина О.А. (г. Новосибирск) 2010.
8. Аханов А. Самостоятельная работа студентов // Высшее образование в России. 2005. №11.



KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING O‘QISH DAVRIDA YUZAGA KELADIGAN PSIXOLOGIK HOLATLAR.

Uzakbaeva Venera Abatbaevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kichik maktab yoshidagi bolalarning ta'lim jarayoniga moslashishning muhim jihatlari va oqish davrida duch keladigan psixologik holatlari tahlil qilinadi. Ijtimoiy moslashuv muammolari kabi holatlar ilmiy asoslangan holda yoritiladi. Maqolada bolalarning psixologik holatini barqarorlashtirishga qaratilgan samarali usullar va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kichik maktab yoshi, psixologik holatlar, o'quv jarayoni, ta'lim sifati, tafakkur, psixologik muammolar, bola qiziqishi.

Kichik maktab yoshida bolada ko'pgina o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'quv faoliyati ko'nikmalarning shakllanish, o'z-o'zini boshqarish, dunyoni bilish munosabati shakllanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Ilk bolalik davrida tarbiya da'stu'ri hali sub'ektiv ta'rizda bola uchun mavjud emas. Sistematik o'qishga layoqatli bo'lgunga qadar u tayyorlov bosqichini bosib o'tadi. Bu bosqichda chetdagi boshqa kishilarning bolaga nisbatan yangi talablari asta-sekin uning "o'z da'sturi" aylanishi lozim. Bog'cha yosh davrining oxirlariga boribgina, bola kattalar tomonidan ishlab chiqilgan "da'stur bo'yicha" o'qiy boshlaydi va maktab talablariga asta amal qila boshlaydi. L.S.Vigotskiyning fikri bo'yicha bog'cha yosh davri ta'lim dasturi:

- 1) bolani maktab da'sturi yaqinlashtirishi, uning bilim doirasini kengaytirishi, predmetli ta'limga tayorlashi;
- 2) bolaning o'z da'sturi bo'lishi hamda uning qiziqishi va ehtiyojlariga javob berishi lozim.

Shuningdek, L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida, ta'limning yetakchi ro'li haqidagi qonunni ilgari surdi va aniq ifodaladi: ta'lim rivojlanishidan oldinda boradi va o'zining orqasidan uni etaklaydi.

O'quv faoliyati bolalarni xursand qilishi, ularga zavq berib, qoniqish hissini uyg'otishi kerak. Ilk bolalik davridanoq bolalarda bilishga qiziqishni tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Chunki bilishga itilish inson faoliyatining ahamiyatli motivlaridan bo'lib, shaxs yo'nalganligining anglanilganligini aks ettiradi, barcha psixik kutubxonasi jarayon va funktsiyalarga ijobiy ta'sir etadi, qobiliyatni faollashtiradi, qiziqish mavjud holatida barcha

insoniy ku‘chlar qo‘zg‘aladi. Buni ayniqsa, bog‘cha bolasining o‘quv faoliyatini tashkil etishda inobatga olish kerak.

Pedagog va psixologlarning olib borgan tadqiqotlari o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishining asosiy sharoitini ajratish imkonini beradi:

1. O‘quv faoliyati shunday tashkil etilishi kerakki, bola unda faol ishtirok etsin, yangi bilimlarni mustaqil tar‘izda qidirishi va “topishi”ga undalsin, muammoli xarakterga ega bo‘lgan savollarni echsin.

2. O‘quv faoliyati turli xil bo‘lishi kerak. Bir xillikka ega bo‘lgan materiallar va bir xil usullar bolalarni tez zeriktirib qo‘yadi.

3. Bola berilayotgan materiallarning kerakliligi va ahamiyatlilikini tushunishi kerak.

4. Yangi berilayotgan material ilgari o‘zlashtirilgani bilan yaxshi bog‘langan bo‘lishi kerak.

5. Juda yengil bo‘lgan va o‘ta murakkab material qiziqish uyg‘otmaydi. O‘quv topshiriqlari bog‘cha yoshidagi bolalar uchun qiyin, lekin imkoniyati etadigan darajada bo‘lishi kerak.

6. Bolaning barcha yutuqlarini ijobiy baholash lozim. Ijobiy baho bilishga nisbatan faollikni rag‘batlantiradi.

7. O‘quv materiallari yorqin va emotsional bo‘lishi kerak.

A.P.Usovaning ta’kidlashicha, o‘qitilayotgan materialni idrok qila olmaslik hodisasi harakatning usul va vositalarida o‘ta osonlik usuliga asoslangan, ilgari ko‘rsatilgan noto‘g‘ri tarbiyaviy ta’sirning asorati natijasidir.

Ayni vaqtda ko‘pincha ta’lim olishga tayyorlikning quyidagi tarkibiy qismlari ajratiladi:

1. Tafakkur qila olish kabi faoliyatning umumlashganligi.

2. Amaliy va so‘z mantiqiy tomonlarining o‘zaro muvofiqligini belgilovchi tafakkurning anglanilganligi.

3. Tafakkur faoliyatining elastikligi.

4. Tafakkur faoliyatining barqarorligi.

5. Tafakkurning mustaqilligi hamda uning yordamga moyilligi.

Ota-onalarda bola tarbiyasi bo‘yicha chuqur bilimga egalikni shakllantirishning psixologik sharoiti bo‘lib, bolalar aloqalarini tushunish va empatik muloqot usullarini o‘zlashtirish zarurligini ota-onalar anglashi hisoblanadi.

Amerikalik psixolog X. Djaynotning fikricha, teng aloqa muloqotning 3 asosiy qoidasiga asoslanadi. Birinchidan, ota-onalar barcha vaziyatlarda boladagi ijobiy o‘zgarishni ma’qullashga intilishlari kerak, har qanday holatda ham uni kamsitmaslik, bolada ijobiy “Men” siymoni qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Ikkinchidan, bola bilan uning qilgan ishi, bu ishning oqibati, vaziyat haqida gaplashish mumkin, bolaning xarakteri, shaxsi haqida gapirmaslik kerak, uning shaxsini salbiy baholashdan qochish kerak.

Kattalarning bolalar haqida fikri, bolaning kelajakdagi taqdiriga tashxis qo‘yishga, uni oldindan aytib berishga qaratilmasligi kerak. Maqtash va tanbeh berish ham o‘sha qoidaga

asosan tuzilishi kerak: tayyor baholash o‘rniga, qilingan harakatlar va ular natijasini keng yoritib berish kerak, xulosa chiqarish va baho berishni bolaning o‘ziga qo‘yib berish kerak. Uchinchidan, aloqa jarayonida kattalar taklif kirituvchi tashabbuskor bo‘lishlari kerak. Bunda harakat usuli to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatib berilmasligi kerak, balki muammoli vaziyatni hal qilish imkoniyatlarini bola oldiga shunday qo‘yish kerakki, bolaning o‘zi eng to‘g‘riroq usulni tanlashni mustaqil amalga oshirsin.

Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan qo‘yiladigan yangi talablar va shartlarni qabul qiladilar, shuningdek, ularning qoidalariga to‘la amal qilishga harakat qiladilar. Maktabga qabul qilingan bolalarning hayoti birmuncha qiyinlashib boradi. Birinchi kunlardan boshlab o‘quvchi bir qancha qiyinchiliklarni boshdan kechiradi: yangi maktab muhitiga moslashish; yangi kun tartibini ishlab chiqish; yangi tengdoshlari jamoasiga kirishish; xulq-atvorda ko‘pgina cheklov va ustanovkalarni qabul qilish, o‘qituvchi bilan munosabat o‘rnatish, oilaviy vaziyatlarda yangi munosabatlarning uyg‘unligini ta‘minlash. Shu bilan birga o‘quvchi yangi huquqlarga ham ega bo‘ladi: kattalar uning o‘quv topshiriqlariga, dars qiladigan joyiga va o‘quv qurollariga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi.

Maktabga kelish arafasida bolaning so‘z boyligi o‘z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. 6 yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o‘z nutqida 3000 -7000 so‘zni ishlatadi. Bolalar nutqining o‘sishida ularning maktabdagi o‘qish faoliyati ayniqsa, katta rol o‘ynaydi. Bola maktabga kelmasidan oldin o‘zi qanday gapirayotgani ustida o‘ylab o‘tirmasdan, o‘z nutqidan faqat aloqa va bilish vositasi tariqasida foydalanadi.

6-11 yoshli o‘quvchilarning bilish jarayonlaridagi ixtiyoriylik irodaviy zo‘riqish asosidagina, shuningdek, bola o‘zini atrofdagilarning talabini bajarishga yoki shaxsiy harakat qilishga intilgandagina yuzaga kelishi mumkin. Kichik maktab yoshidagi bola psixikasining sog‘lomligida, uning bilish faolligida tafakkurning ham rivojlanishini ko‘rish mumkin.

Bolaning qiziquvchanligi, asosan, atrof-olamni bilish, o‘rganishga qaratilgan bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi o‘ynab turib, olam sir-sinoatlari, sabab-hodisalari va bog‘liqlaridan xabardor bo‘lishga intiladi. Masalan, u o‘zi mustaqil ravishda qanday predmetlar suvda cho‘kishi, qaysilari esa suzishini tadqiq qila oladi. Bola aqliy munosabatlarda faol bolsa, u shunchalik ko‘p savol beradi va bu savollar, asosan, xilma-xil bo‘ladi. Bolani qor, yomg‘ir qanday yog‘ishi, quyosh kechasi qayerda bolishi, mashina qanday qilib yurishi, yerdan osmongacha bolgan masofani bilish juda qiziqtiradi. Bu ularning «Nima uchun?», «Qanday qilib?», «Nima orqali?» kabi savollariga javob olishga qaratilgan boladi. Bu yoshdagi bolalar asosan o‘zlari ko‘rib turgan narsalar haqida chuqurroq fikr yurita oladilar. Bu yoshdagi bolalar tafakkurining asosiy turi obrazli tafakkurdir. Bolalarga beriladigan va asosan maktabda amalga oshiriladigan ta‘lim bolalar tafakkurining o‘sishi uchun g‘oyat katta ahamiyatga egadir. Masalan, psixolog olim Piaje tadqiqotlarida 6-7 yoshli bolalardan bir-biri bilan teng bolgan idishlardagi suv miqdori solalgan. Bolalar «Idishlardagi suv miqdori teng», - deb javob berishgan. Aynan shu miqdordagi suv bolalar ko‘z o‘ngida turli xil balandlikdagi idishlarga quyilib, so‘ngra qaysi idishdagi suv miqdori ko‘pligini so‘ralganida bolalar ingichka, lekin

baland idishdagi suvning miqdori ko‘pligini aytishgan. Bolalar aynan o‘sha suv miqdorini yana bir-biri bilan teng bolgan idishlarda ko‘rganlaridan so‘nggina o‘z javoblari noto‘g‘riligini bilganlar. Aynan shunday tajriba bir xil kattalikdagi 291 plastilin shakllari o‘zgartirilganida hamda teng miqdordagi tugmachalar orasi ochiqroq qilib qo‘yilgan qatordagi tugmachalar bilan solishtirilganida ham xuddi shunday javoblar bolgan. Bu tajriba 6-7 yoshli bolalar asosan ko‘rganlari bo‘yicha fikrlashlarini isbotlab beradi. Bolalarga beriladigan va asosan maktabda amalga oshiriladigan ta‘lim bolalar tafakkurining o‘sishi uchun g‘oyat katta ahamiyatga egadir. Ta‘lim va maktabda beriladigan bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida, kuzatuvchanlik, xotira va xayol o‘sib borishi bilan kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkuriga material boladigan narsalar doirasi kengaya boradi, bolalarda mantiqiy tafakkur va tanqidiy fikrlash o‘sib boradi.

Ta‘lim jarayonida bolaning tafakkuri katta o‘shish yo‘lini - konkret tafakkurdan abstrakt - nazariy tafakkurga o‘shish yo‘lini bosib oladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning tafakkuri hali ham amaliy, konkret tafakkur boladi, lekin ta‘lim jarayonida bolalarning bunday konkret tafakkuri, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning konkret tafakkuriga qaraganda, murakkabroq va mazmunliroq bolib qoladi, ulardagi fikrlash jarayonlarining hammasi takomillasha boradi. Maktabda o‘quvchi bola tobora murakkabroq narsalarni va o‘zi idrok qilayotgan narsalarni hamda hodisalarnigina emas, balki shu bilan birga, tasavvur qilayotgan narsalar va hodisalarni ham bir-biriga taqqoslashni, analiz va sintez qilishni organib oladi.

Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar uchun talim jarayoni nafaqat bilim olish, balki psixologik moslashuv davri ham hisoblanadi. Maktabga birinchi bor kelgan bolada qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ularning, avvalo bir qancha maktab qoidalariga bo‘ysinishi qiyin kechadi. Boshlang‘ich sinf oquvchisi uchun eng qiyin qoida dars vaqtida jim otirishidir. Maqolada keltirilgan tadqiqotlar shuni korsatadiki, oquvchiga ota-onalar qo‘llab-quvvatlashi va ta‘lim jarayonida zamonaviy pedagogik-psixologik metodlardan foydalanish bolalarning psixologik muammolarini kamaytirishga yordam beradi. Shu sababdan Kichik maktab yoshidagi bolalarning oqish jarayonida yuzaga keladigan psixologik holatlarni chuqur organish va ularga mos choralar ko‘rish talim sifati va bolalarning umumiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.A.Baxriyeva Bolalar psixologiyasi. Buzoro “Durdona” nashriyoti-2022
2. Z.Nishanova, G.Alimova. Bolalar psixodiagnostikasi va uni o‘qitish metodikasi. Toshkent-2006
3. M.Tilavova. Texnologiya va uni oqitish metodikasi. Buzoro “Durdona” nashriyoti-2021
4. Z.T.Nishanova, N.G’.Kamilova, N.I.Xalilova, D.U.Abdullayeva. Taraqqiyot psixologiyasi va Differentsiyal psixologiya. Toshkent-2020
5. Z.T.Nishanova, N.G’.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova. Toshkent-2020



SHAXSNING HISSIY-EMOTSIONAL XUSUSIYATLARI

Begmatov Raximkul Olimovich

*Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi psixologiya
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya. Maqolada shaxsning hissiy-emotsional xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, hissiyot tushunchasining ilmiy adabiyotlardagi turlicha ta’riflari va ularning umumiylik jihatlarining mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Hissiyot, emotsiya, psixik hususiyatlar, rivojlanish.

ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЧЕЛОВЕКА

Абстрактный. В статье изложены сведения об эмоционально-эмоциональных характеристиках человека. Также раскрываются различные определения понятия эмоции в научной литературе и сущность их общих аспектов.

Ключевые слова. Чувство, эмоция, психические характеристики, развитие.

EMOTIONAL CHARACTERISTICS OF A PERSON

Abstract. The article describes the information about the emotional-emotional characteristics of a person. Also, various definitions of the concept of emotion in scientific literature and the essence of their common aspects are revealed.

Keywords. Feeling, emotion, mental characteristics, development.

Kirish. Odam tashqi muhitdagi turli-tuman narsa va hodisalarni idrok qilar ekan, hech vaqt bu narsalarga batamom befarq bo‘lmaydi. Odamning aks ettirish jarayoni doimo faol xarakterga egadir. Aks ettirish jarayoni quyidagilarni qamrab oladi:

- a) shaxsning ehtiyojni qondirish imkoniyatiga egaligini;
- b) qondirishga yordam beradigan yoki qarshilik ko‘rsatadigan ob’ektlarga sub’ekt sifatida qatnashishi;
- v) uni harakat qildiruvchi bilimga intiltiruvchi munosabatlar va hokazo.

Chunki odam atrofidagi har turli narsalarni idrok qilib aks ettirar ekan, bu narsalarga nisbatan ma’lum munosabatda bo‘ladi. Masalan, bizga ayrim narsalar yoqsa, ya’ni kayfiyatimizni ko‘tarib yuborsa, boshqa bir narsalar yoqmaydi va kayfiyatimizni buzib, dilimizni xira qiladi. Ba’zi bir ovqatni odam juda ham yoqtiradi, boshqa bir ovqatni esa mutlaqo ko‘rgisi kelmaydi yoki ayrim odamlar bizga xush keladi yoki boshqa bir odamlar esa noxush

keladi. Umuman odam atrofidagi hamma narsalarga nisbatan munosabatda bo‘ladi va uning munosabatlari ham aks ettiriladi.

Inson ijtimoiy tabiatiga ko‘ra o‘z hayot tarzini o‘zi yo‘lga qo‘yadi, o‘zini o‘zi boshqaradi. O‘z xayolot olamidagi orzu-istaklari, maqsadlarini ro‘yobga chiqarish jarayoni orqali mavhum holatlarni reallikka aylantira oladi. Ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, samimiylik va munofiqlik, saxiylik va baxillik, ko‘ngilchanlik va berahmlik, muhabbat va nafrat, vafo va xiyonat, do‘stlik va dushmanlik kabi ko‘plab emotsional holatlar uning butun ma‘naviy-ruhiy qadriyatini belgilaydi. Aynan o‘sha ma‘naviy olam inson hayotining butun ongli faoliyatida o‘zini namoyon etadi va uning zamirida ichki ruhiy jarayonlar yotadi. Psixologiyada ko‘pincha hissiyot va emotsiya atamalari bir xil ma‘noda qo‘llaniladi. Tashqi alomatlari yaqqol namoyon bo‘ladigan his-tuyg‘ularni ichki kechinmalarda ifodalanishdan iborat psixik jarayon yuzaga kelishining aniq shakli emotsiya deyilsa, tirik mavjudotlar miyasida, ya‘ni shaxslarning ehtiyojini qondiruvchi va unga mone‘lik qiluvchi obyektlarga nisbatan odamning munosabatlarini aks ettirish hissiyotdir. Lablarning titrashi, tabassum, kulgu, sarosimalik kabilar emotsiya hisoblansa, vatanparvarlik, mehr-oqibat, javobgarlik, mas‘uliyat, sevgi-muhabbat his-tuyg‘ulardir. Ularning o‘zaro muhim farqi: biri (hissiyot) ijtimoiy, ikkinchisi (emotsiya) individual, xususiydir

Adabiyotlar tahlili. Hissiyot tushunchasiga adabiyotlarda turlicha ta‘riflar uchraydi jumladan; A.V.Petrovskiy tahriri ostida chiqqan "Umumiy psixologiya" darsligida hissiyot - kishining o‘z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg‘ul bo‘layotganiga nisbatan o‘zicha turli xil shaklda bildiradigan kichik munosabatdir. M.Vohidovning "Bolalar psixologiyasi" o‘quv qo‘llanmasida hissiyot deb - tashqi olamdagi narsa va hodisalarga bo‘lgan ichki kechinmalarimizning ongimizda aks ettirilishga aytiladi. Q.Turg‘unov muallifligidagi lug‘atda hissiyot-shaxsning voqelikdagi narsa va hodisalarga, kishilarga hamda o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarida kelib chiqadigan yoqimli yoki yoqimsiz kechinmalardan iborat. Professor E.G‘oziyev muallifligidagi "Umumiy psixologiya" darsligida hissiyot-odamda, tirik mavjudotlar miyasida, ya‘ni shaxslarning ehtiyojlarini qondiruvchi va unga monelik qiluvchi ob‘ektlarga nisbatan uning munosabatlarini aks ettirish ma‘nosida qo‘llaniladi.

Yuqoridagi ta‘riflardan ko‘rinib turibdiki, hissiyot bizning tuyg‘ularimizning o‘ziga xos aks ettirish jarayoni bo‘lib, bunda narsa va hodisalarni aks ettirish jarayonida bizda tug‘iladigan ichki kechinmalar va munosabatlar aks ettiriladi. Demak, hissiyotlar o‘z- o‘zidan yuzaga kelmasdan, tashqi olamdagi narsa va hodisalarning ta‘siri bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladi.

Tahlil va natijalar. Hissiyotlar ham boshqa bilish jarayonlari kabi odamning faoliyatlari davomida namoyon bo‘ladi. Masalan, mehnatsevarlik hissini yuzaga keltirish uchun ma‘lum muddat davomida ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanish kerak. U yoki bu faoliyat davrida yuzaga kelgan hissiyot ana shu faoliyatning o‘ziga ta‘sir qilib, uni o‘zgartiradi. Masalan, hohlamasdan o‘zini majbur qilib ishlayotgan odam bilan o‘zi hohlab sitqidildan ishlayotgan odam ishining unumdorligi o‘rtasida juda katta farq mavjud. Odamning kayfiyati yaxshi

xursand, ruhi tetik bo‘lganda ishi ham barakali bo‘ladi, aksincha odamning dili ham, qandaydir tashvishli yoki g‘amgin bo‘lganda qo‘li ishga bormaydi. Ana shu jihatdan olganda hissiyotning inson hayotidagi roli juda kattadir. Hissiyot boshqa bilish jarayonlariga ham ta‘sir qiladi. Masalan, odamning ruhi tetik, xursand bo‘lgan paytda, idroki hali juda jonli, esda olib qolishi, tuyg‘ularga boy, tafakkuri o‘tkir, nutqi burro bo‘ladi.

Hissiyot odamda sodir bo‘layotgan hodisa va narsalardan shaxs sifatidagi odam uchun ahamiyatli bo‘lganlari haqida darak beruvchi signallar tizimi hisoblanadi. Mazkur holda sezgi a‘zolariga ta‘sir qiluvchi cheksiz miqdordagi qo‘zg‘ovchilardan aniq bo‘lib ajraladi, ba‘zilari bir-birlari bilan qo‘shilib ketadi va paydo bo‘lgan hissiyot bilan birlashib ketadi. Natijada taassurot uyg‘otib, biror hissiy nom bilan ifodalangan xotira obrazlari tariqasida saqlanib qoladi. Buni fiziologik jihatdan shunday tushuntirish mumkin: ma‘lum qo‘zg‘atuvchilar tirik mavjudotlar uchun xotirjamlik haqida darak beruvchiga aylanadi. Hissiy kechinmalar esa insonning shaxsiy tajribasida tarkib topadigan reflekslar tizimini mustahkamlash sifatida namoyon bo‘ladi.

Hissiyotlar odatda juft-juft bo‘lib uchraydi. Masalan, yoqimli- yoqimsiz, xush-noxush, xursand-xafa, g‘azab-muhabbat, nafrat kabi ana shunday hissiyotlar sub‘ektiv xarakterga ega bo‘ladilar, lekin ularning tashqi ifodasi ham bo‘ladi. Masalan, hushchaqchaq odam bilan g‘amgin odamning yuz ifodasini ko‘z oldimizga keltirib ko‘rish mumkin. Aynan mazkur jarayon psixologiyada ambivalentlik yoki ikki taraflamalik deb ataladi. Ambivalentlik - lotincha har tomonlama kuchga ega ma‘nosini anglatib kishining bir ob‘ektning o‘ziga nisbatan bir vaqtning o‘zida paydo bo‘ladigan bir-biriga qarama - qarshi emosional irodaviy holatdir.

Hissiyotda ambivalentlik bu rohatlanish va azoblanishni birga qo‘shilib va biri ikkinchisiga o‘tib ketmaydigan emas, balki bunda birga bo‘lish kechiriladigan hissiyotning zarur xarakterli sifatlaridan birini tashkil qiladi. Masalan, rashk hissida muhabbat va nafrat.

Hissiyot boshqa hamma psixik jarayonlar kabi bosh miya po‘sti qismining faoliyati bilan bog‘liqdir. Bosh miya hissiyotlarning kuchini va barqarorligini idora qilib turadi. Hissiyotlar boshqa bilish jarayonlaridan farqli bosh miya po‘stining faoliyatidan tashqari organizmning ichki a‘zolari faoliyati bilan ham bog‘liqdir, boshqacha qilib aytganda hissiyotlar vegetativ nerv tizimining faoliyati bilan ham bog‘liqdir. Chunonchi, odam qattiq uyalgan paytida qizarib ketadi, qattiq qo‘rqqan paytida esa rangi o‘chib, qaltirab ketadi, xattoki odamning ovozi ham o‘zgarish paydo bo‘ladi. Ana shunday hissiy holat yuz bergan paytda odamning yuragi tez ura boshlaydi, nafas olishi ham tezlashadi.

Demak, odam ma‘lum hissiy holatni boshdan kechirayotgan paytda uning qon aylanish tizimi, nafas olish organlari nutq apparatlari ichki sekresiya bezlari ham qatnashadi. Masalan, materialni yaxshi bilmaydigan talaba imtihon topshirayotganda terlab ketadi, tomog‘iga nimadir tiqilib, gapini gapira olmay qoladi. Odamda qattiq qo‘rqish paytida "Yuragi orqaga tortib ketdi", "Sovuq ter bosib ketdi" kabi iboralarning ishlatilishi hissiyot paytida odamning ichki a‘zolarining ishtirok etishidan dalolat beradi.

Juda ko‘p hissiy holatlar bosh miyaning yaqin po‘stloq osti qismlarining oraliqi bilan ham bog‘liqdir. Masalan, ko‘rish tepaligi deb ataluvchi qism ayrim hislarni ifodalaydigan ixtiyorsiz harakatlarning markazi hisoblanadi.

Hissiy holatlarning ifodalanishi **birinchidan**, ifodali harakatlar (yuz ifodasi, qo‘l, oyoq harakatlari), **ikkinchidan** organizmdagi turli hodisalarni, ya‘ni ichki a‘zolar faoliyatining va holatining o‘zgarishida, **uchinchidan** tabiatda, ya‘ni organizm qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o‘zgarishlarni, shuning bilan birga modda almashinuvida bo‘ladigan o‘zgarishlarni o‘z tarkibiga oladi.

His-tuyg‘ularning tashqi ifodasiga yuz ifodasi, imo-ishora, vajohat va qaddu-qomatning o‘zgarishi, ayiruv, tashqi chiqaruv bezlarining faoliyati va ayrim harakatlar xususiyatlaridagi o‘zgarishlarni kiritish mumkin. Bunga nutqning faol o‘zgarishlari, "ovoz mimikasi" va gaplar tarkibining sintaksis o‘zgarishi, "tutilmasdan gapirish", yoki aloqada "sillilik" hamda "ifodalilik"ning yuzaga kelishi nihoyat hissiyot o‘zining to‘la qisman ifodasini topadigan xatti-harakatlarga taalluqlidir. Kishining emosional kechinmalari vaqtida nutqining tezligi o‘zgaradi. Ko‘pincha nutqning sintaksis tuzilishi buziladi, tezligi va ahamiyati o‘zgaradi. O‘tkazilgan tekshirishlar shuni ko‘rsatadiki, g‘amginlik va ma‘yuslik hislarini ifodalovchi kishining ovozi beixtiyor pasayib ketadi, so‘zlashgan kishining tovushi ham bo‘linib-bo‘linib chiqadi.

Hissiyot kechinmalari turli holatlarda turlicha tezlik bilan paydo bo‘ladi. Ba‘zan hissiyot to‘satdan, darhol paydo bo‘ladi. Masalan, kishi birdan xursand bo‘lib ketadi, darhol g‘azabga keladi, achchiqlanadi va hokozo. Lekin ba‘zan shu hissiyotlar o‘zi dafa‘tan qo‘zg‘almaydi, balki asta-sekin tug‘ila boshlaydi. Shunday hissiy kechinmalarning qay darajada tez paydo bo‘lmasligini belgilash qiyin yoki butunlay bilib bo‘lmaydi. Emosional kechinmalarning kuchi turlicha bo‘lishi mumkin. Hissiyotlarni kuchi avvalo yoqimli va yoqimsiz tuyg‘ularning naqadar kuchli bo‘lishidadir. Hissiyotning kuchi shu hissiyotni shaxsning naqadar ehtiros bilan kechirilganligi bilan belgilanadi.

Hissiyotning qo‘zg‘alish xususiyatlari paydo bo‘lish yo‘lini kuchi va barqarorligi bir qancha sabablarga bog‘liqdir. Atrof-muhitning holati shu paytdagi ehtiyojlarning kuchi shu xislat tuzilishiga sabab bo‘lgan hodisalarning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglashi, odamning dunyoqarashi, bu xislat qanday vaziyatda paydo bo‘lishi va o‘tmishi hamda shaxsning individual xususiyatlariga bog‘liqdir. Hislarning ayni vaqtda naqadar tez kuchli va barqaror bo‘lishiga ko‘ra his-tuyg‘ularning quyidagi turlari farqlanadi: *hissiy ton, emotsiyalar, affekt, stress, kayfiyat* va boshqalar.

Xulosa. Psixik jarayonlardan ayniqsa, emotsiya o‘zining aniq tashqi ifodasiga ega bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Emosional o‘zgarishlar organizmning tashqi o‘zgarishlarida shu qadar yaqqol ifodalanadiki, biz odamni tashqi ko‘rinishiga qarab, unda qanday xususiyatlar yuz berayotganini, uning xursand yoki xafaligini, g‘azablanganligini yoxud biror narsadan qo‘rqib ketganini va shu kabi his-tuyg‘ularning ko‘pini aytib bera olamiz.

Emotsiyalarning tashqi ifodasi turli ko‘rinishlarda ro‘y beradiki, unda asosiy o‘rinni ko‘rgazmali jihatlar asosiy o‘rin egallaydi.

Birinchidan, emotsiyalar nafas olish a‘zolarining ishlarida o‘zgarish yasaydi. Masalan, yoqimli his-tuyg‘ularishga tushganda nafas olishning tezligi va ampitudasi ortadi, yoqimsiz his-tuyg‘ular ustun kelganda kamayadi, qo‘zg‘algan vaqtida nafas harakatlari tezlashadi hamda chuqurlashadi, zo‘r berish vaqtida-sekinlashadi va yuzakilashadi, hayajon vaqtida tezlashadi, hamda kuchsizlashadi, kutilmagan holatda, hayron qolishda zudlik bilan tezlashadi, qo‘rquvda sekinlashadi va hokazolar.

Ikkinchidan, emotsiyaimo - ishoralarda, mimikada, ya‘ni kishining yuzida bo‘ladigan harakatlarda hamda butun badanning ma‘nodor harakatlarida ko‘rinadi.

Uchinchidan, gumoral harakatlardagi, ya‘ni organizmning qon tarkibidagi va boshqa suyuqliklardagi kimyoviy o‘zgarishlarni va shuning bilan birga modda almashishida bo‘ladigan yanada chuqur o‘zgarishlarni o‘z tarkibiga oladi.

Demak, emotsiyalarning tashqi ifodasiga mimika, imo-ishora, aft-bashara va qad-qomatning o‘zgarishlari, ayrim tashqi sekresiya bezlarining faoliyati yosh, so‘lak, ter ajralishi hamda ayrim harakatlarning xususiyatlaridagi o‘zgarishlar, ya‘ni ularning tezligi, kuchi, koordinasiyasi va hokazolar kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Сущность, функции и виды чувств и эмоций. Архивная копия от 18 мая 2015 на Wayback Machine.

2. Рассказов И.Ю. Психоалгоритм. Как улучшить свое самочувствие за две недели. Психотерапевтический практикум.-Москва.-ИПЛ, 2017. - С. 24. -136 с. ISBN 978-5-4260-0283-8.

3. Изард, 1980, с. 16, 99-116. *Наталья Борисовна Березанская, Вероника Валерьевна Нуркова*. Психология. -Юрайт-Издат, 2003. -576 с. -5000 экз. ISBN 978-5-9692-0465-2.

4. Young P. Th. Motivation and emotion. A survey of the determinants of human and animal activity. N.Y.; London, 1991.

5. Уолтер Б. Кэннон. Теория эмоций Джеймса-Ланге. Критический обзор и альтернатива. В кн.: Психология мотивации и эмоций /Под ред. Ю. Б. Гиппенрейтер, М. В. Фаликман.-М.: АСТ:Астрель, 2009. – 704 с. - (Хрестоматия по психологии).- 89 -95 с. ISBN 978-5-17-058328-7 (ООО «Издательство АСТ») ISBN 978-5-271-23290-9 (ООО «Издательство Астрель»).



HOMILADORLAR PSIXOLOGIYASI VA PSIXOTERAPIYANI QO‘LLASH

Jalilova Dildora Murot qizi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti assistenti

Annotatsiya. Oilaviy munosabatlar farzand tug'ilishi va uning tarbiyasi bilan bog'liq ruhiy zo'riqishlar erta oila qurgan ayollarda har xil emotsional xolatlar chaqirishi uning oilaga hali tayyor emasligi ko'plab ajralishlarga sabab bo'lmadi. Yosh qizlarning hali ulg'ayganligini his etmay turip ona bo'lishga tayorgarlik davri, farzand tarbiyasiga mas'ul bo'lishlik ko'plab depresiyalarga sabab bo'ladi. Homilador ayollar homilaning aqliy tasavvurlarini quradilar va homiladorlik davrida mansublik yoki "ona-homila" hissi odatda kuchayadi. Ona-homila munosabatlarining psixologik xususiyatlarini, onaning psixologik faoliyati homilaga qanday ta'sir qilishi haqida nisbatan kam narsa ma'lum. Onaning farzand tug'ilish jarayonini o'ylab qo'rqish hissi va xavotirning dispozitsion darajalari homilaning yurak urishi va harakat faolligi jihatlar bilan oz bo'lsada bog'liq. Bundan tashqari atrofdagi insonlarning o'zaro munosabati onaning ruhiy qo'zg'alishi va bo'shashishi homila neyroserebral tizimida juda tez o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Maqolada homiladorlar psixologiyasi va psixoterapiyani qo'llash masalasi muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: ona-homila, homiladorlar psixologiyasi, stress, psixoterapiya, telepsixatriya, reflektiv faoliyat.

ПРИМЕНЕНИЕ ПСИХОЛОГИИ И ПСИХОТЕРАПИИ БЕРЕМЕННЫХ

Абстрактный. Семейные отношения Психическое напряжение, связанное с рождением и воспитанием ребенка, вызывает различные эмоциональные состояния у женщин, рано выходящих замуж, а тот факт, что они еще не готовы к созданию семьи, не является причиной большого количества разводов. Период подготовки к материнству, когда молодые девушки еще не чувствуют, что они уже взрослые, и ответственность за воспитание детей вызывают у многих депрессию. Беременные женщины создают мысленный образ плода, и чувство принадлежности или «мать-плод» обычно усиливается во время беременности. Относительно мало известно о психологических характеристиках взаимоотношений матери и плода и о том, как психологическая деятельность матери влияет на плод. Чувство страха и предрасположенность к беспокойству у матери по поводу процесса родов в некоторой степени связаны с такими аспектами, как частота сердечных сокращений плода и его двигательная активность. Кроме того, взаимодействие окружающих людей, эмоциональное возбуждение и

расслабление матери вызывают очень быстрые изменения в нейrocеребральной системе плода. В статье обсуждается психология беременных женщин и применение психотерапии.

Ключевые слова: мать-плод, психология беременности, стресс, психотерапия, телепсихиатрия, рефлексивная деятельность.

PREGNANT PSYCHOLOGY AND APPLICATION OF PSYCHOTHERAPY

Abstract. Family relationships, mental stress associated with the birth of a child and its upbringing, the fact that women who have married early have various emotional states, and their unpreparedness for a family, has not led to many divorces. The period of preparation for becoming a mother, while young girls do not yet feel that they have grown up, and being responsible for raising a child, causes many depressions. Pregnant women build mental images of the fetus, and the feeling of belonging or "mother-fetus" usually increases during pregnancy. Relatively little is known about the psychological characteristics of the mother-fetus relationship, how the mother's psychological activity affects the fetus. The mother's fear of childbirth and dispositional levels of anxiety are slightly related to the fetal heart rate and motor activity. In addition, the interaction of people around, the mother's mental arousal and relaxation, cause very rapid changes in the neurocerebral system of the fetus. The article discusses the issue of the psychology of pregnant women and the use of psychotherapy.

Keywords: mother-fetus, pregnancy psychology, stress, psychotherapy, telepsychiatry, reflective activity.

Kirish. An'anaviy akusherlik adabiyoti va ayniqsa ona-homila tibbiyotining kichik ixtisosligi rivojlanayotgan homilani homilador ayol bilan bog'laydigan murakkab interfeysni batafsil bayon qiladi. Patofiziologiya homiladorlik, shu bilan birga, onaning psixologik holatining normal o'zgarishi homilaga qanday o'tishi mumkinligi va qanday qilib o'rganilishi an'anaviy ravishda rivojlanish, psixofiziologik yoki psixobiologik doirada o'rganilgan. Stress chaqaloqqa salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jiddiyroq holatlar: zo'rlash, jismoniy tajovuz, avtohalokat yoki yaqinlarining o'limi kabi og'riqli hodisani ko'rganida yoki kuchli ruhiy zo'riqish kechinmalardan keyin muammolarga duch kelganida paydo bo'ladi. Bunday holatlar homilani kam vazn tug'ilish xavfini oshiradi. Shuningdek, boshqa muammolarga olib keladi chekish va ichish kabi xatti-harakatlar xavfini oshiradi. Ba'zi odamlar uchun homiladorligini bilish stressli tajriba bo'lishi mumkin. Siz o'zingizni nazoratni yo'qotgandek his qilishingiz yoki boshdan kechirayotgan narsalarni boshqarish uchun yetarli tajribaga ega bo'lmasligingiz mumkin. Stress rejalashtirilmagan homiladorlik yoki homiladorlik, tug'ilish yoki ota-onalik bilan bog'liq oldingi salbiy tajribalardan so'ng homilador bo'lishdan keyin hamkelib chiqishi mumkin, masalan, xomila tushish yoki chaqaloqning antenatal, prenatal o'limi. Antenatal testlaringiz natijalarini kutish (uzoq muddatli farzandsizlik) va homiladorlikning jismoniy o'zgarishlari yoki murakkab homiladorlik bilan shug'ullanish

paytida stress bo‘lishi mumkin. Homiladorlik moliyaviy qiyinchiliklar, uyni ko‘chirish va ish joyini o‘zgartirish kabi amaliy qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Ushbu sohadagi tadqiqot metodologiyasi onaning va homilaning bezovtalanmagan, boshlang‘ich sharoitlarda ishlashi yoki onaning psixologik holatini eksperimental manipulyatsiyasidan so‘ng homilaning faoliyatidagi o‘zgarishlarni kuzatishga asoslangan. Tuxum urug‘lantirilgandan so‘ng, tuxum va sperma embrionga aylanadi. Taxminan homiladorlikning 9-haftasidan boshlab u homila deb ataladi. Urug‘lantirilgandan so‘ng, embrion 4 yoki 5 kun davomida bachadon naychasidan bachadonga o‘tadi va o‘zini qon tomirlariga boy bachadon shilliq qavati bilan bog‘laydi. Yani trofoblast hujayralar va bachadonning spiralsimon tomirlari yordamida yo‘ldosh shakllanib kataledonlarni hosil qiladi. U erdan u o‘lish uchun kerakli ozuqani qon orqali oladi va o‘lishda davom etadi. Bu bosqichda embrion deb ataladi. [1].

Amniotik qobiq bilan o‘ralgan holda homila bachadonda himoyada bo‘ladi. Homila rivojlanishining 3 bosqichi: 1. Germinal (2 dan 4 haftagacha) - urug‘lantirishdan boshlanadi va implantatsiyani o‘z ichiga oladi 2. Embrion (4 haftadan dan 10 haftagacha) - muhim organlar va tana tuzilmalari shakllanadi. 3. Fetal davri tugulgunga qadar o‘lishi (11-haftadan tug‘ulgunga qadar) - homila organlari rivojlanishda davom etadi.

Homila 4 haftalikdan boshlab bolaning qalqonsimon bezi hamda Timus (ayrisimon bezi) rivojlana boshlaydi. Unda T limfositlar va B limfositlar shakllana boshlaydi. 4.5 haftaligidan yurakchasi urishni boshlaydi. 5-haftasidan miya to‘qimasi shakllana boshlaydi. 8- haftasiga kelip qo‘l oyoqlari shakllanadi. sinapslar 17- haftasidan sezgi azolaridan chaqaloqning eshitish naychasining yadrosi 7-9- haftasida shakllanar ekan. Shu sababli onaning yashab turgan muhiti atrofdagilarning munosabatini farzand his qilishi ehtimoli mavjud. Homilaning 24-haftasida sezgi organlarining sezgirliги shakllanadi. 26-haftasiga kelip periferik sezish to‘liq shakllanib bo‘ladi. 12-16 -haftaligida jinsiy azolari va jinsiy azo gormonlar sintez jarayoni yuz beradi. Ayni shu vaqt oralig‘ida garmonal vositalarni istemol qilishdan tiyilganlari maquldir. 28-haftada chaqaloqning asosiy organ tizimlari endi to‘liq rivojlangan. Ularning o‘pkalari havo bilan nafas olish uchun yetarlicha yetuk bo‘lib, o‘pkaning kengayishi va to‘g‘ri qisqarishiga yordam beradigan surfaktan faol moddasini ishlab chiqaradi. Ular muddatidan oldin tug‘uladigan holda omon qolish uchun yaxshi imkoniyatga ega bo‘ladilar, ular nafas olish uchun yordamga muhtoj bo‘lib nazoratda ma‘lum muddat saqlanadi. 38 haftasida to‘liq nafas tizimi tug‘ilishga tayyor bo‘ladi. [2].

Tahlil va natijalar. Platsentatsiya jarayonida kuzatiladigan turli omillar kasalliklar onaning psixologik stressi, kimyoviy moddalarga ta‘sir qilish kabi stresslar platsentadagi o‘lish nuqsonlari va platsenta DNK metilatsiyasining o‘zgarishi bilan bog‘liqligi aniqlandi. Barcha stress omillari uchun umumiy neyrorivojlanish kechikishlari va tug‘ma nuqsonlarga olip kelishi aniqlangan. hozirgi kunda muddatidan oldin tug‘ulishlar ruhiy zo‘riqlashlar ta‘sirida ham yuzaga kelishi ma‘lum. Homilador organizmining normal faoliyati, uning ruhiyati qay darajadaligiga bog‘liq. Ruhiyat va kayfiyatdagi har qanday o‘zgarishlar homila a‘zo va sistemalarning faoliyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Odamning ruhan ezilishi, ko‘ngliga og‘ir botadigan

kechinmalarni xotirlash va hayotdagi turli salbiy voqealar zo‘riqlashlarga olib keladi. Ruhiy-emotsional zo‘riqlashlar natijasida homiladorlarda gipertoniya ruhiy kasalliklar, zararli odatlarga ruju qo‘yish kelib chiqadi. Ayollarda esa ruhiy-emotsional zo‘riqlashlar ayniqsa, homiladorlik davrida, uning dastlabki 3-oyida o‘ta xavfli asoratlarga sabab bo‘lishi mumkin.

Bu vaqt ichida bu homiladorlik kasalliklari (ko‘ngil aynishi/ qusish, reflyuks kasalliklari, uyqusizlik), rejalashtirilgan, rejalashtirilmagan homiladorlik, moliyaviy vaziyatlar, oilani qo‘llab-quvvatlash, turmush tarzini cheklash hissi va mustaqillikni yo‘qotish hissi kabi turli omillarga bog‘liq. Ikkinchi 3 oylikda Kayfiyatning o‘zgarishi ikkinchi trimestrda ham davom etsa-da, salbiy his-tuyg‘ular ba‘zan kamayishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ruhiy salomatlik muammolari (tashvish va depressiya kabi) ikkinchi trimestrda (birinchi va uchinchi trimestrlarga nisbatan) kamroq uchraydi. Homiladorlik-bu ota-onalik uchun muhim psixologik o‘zgarishlarning boshlanishi. Bu ota-onaning yangi identifikatorini o‘rnatishning juda murakkab psixologik jarayoni. Bu uning oldindan mavjud bo‘lgan o‘zini o‘zi anglash hissi (aqliy qayta ishlash) ichida ulkan o‘zgarish, moslashishni o‘z ichiga oladi. Ba‘zi hissiy o‘zgarishlar (masalan, hissiy labillik, vaqtinchalik past kayfiyat, qo‘rquv, tashvish, ikkilanish, ziddiyat va regressiya) bunday katta o‘zgarishlarning natijasidir. Ushbu alomatlar vaqtinchalik, engil, juda normal va homiladorlik paytida keng tarqalgan. Shuning uchun homilador ayollarni tinchlantirish kerak. Ammo, agar alomatlar doimiy va ahamiyatli bo‘lsa va hayot sifatiga ta’sir qilsa, unda har qanday ruhiy salomatlik holatini istisno qilish uchun qo‘shimcha baholash kerak. Homiladorlik quyidagi ikkita asosiy psixologik qayta tashkil etishni faollashtiradi: Aholi turmushining yaxshilanishi, ijtimoiy sharoitning barqarorlashishi ruhiy emotsional zo‘riqlashlarning oldini olishning asosiy shartlaridandir. Inson munosabatlarining asosiy jihati - o‘zlarining va boshqalarning xatti-harakatlari va harakatlarini anglash (va taxmin qilish) uchun o‘zlarining va boshqalarning ruhiy holatini tushunishdir. [3].

Har qanday xatti-harakatga nisbatan o‘zlarining va boshqalarning ruhiy holatini tushunishning psixologik jarayoni mentalizatsiya deb ataladi. Shaxsning mentalizatsiya qilish qobiliyati deyiladi reflektiv faoliyat (RF). RF nafaqat yaxshi munosabatlarni saqlash uchun, balki o‘z his-tuyg‘ularini tartibga solish uchun ham muhimdir. RF-bu shaxsning hissiyotlarni tartibga solish, ushlab turish va boshdan kechirish samaradorligiga havola. Ellen Galinskiy ta’riflaganidek, ota-ona sayohati homiladorlik paytida boshlanadi. Homilador ayol keng ma’noda, onalik vakolatxonalarining quyidagi 1) o‘sayotgan homila uchun o‘zini ona sifatida ko‘rsatish. 2) chaqaloqni alohida shaxs sifatida ifodalash. 3) bir ota-ona sifatida hamkor vakillik. 4) o‘z onasining buvisi sifatida vakillik. Homilador ayolning o‘ziga xos bog‘lanish uslubi bo‘lib, antenatal davrda uning aqliy vakilligiga ta’sir qilishi mumkin. Homiladorlik paytida chaqaloq va o‘zi haqida onaning masuliyati asta-sekin rivojlanadi. Uchinchi 3 oylikka kelib, vakillik ancha tuzilgan va birlashtirilgan bo‘ladi. Bu esa homilador ayolga ruhiy manaviy qo‘llab quvvatlash bilan namoyon bo‘ladi va albatta homiladorlik depresiyasidan chiqishga yordamchi omil hisoblanadi. Agarda yaqin oila azolari tomonidan qo‘llab quvvatlashlar bo‘lmasa unda homiladorlarda tushkunlik, qo‘zqaluvchanlik holatlarini yengishlarida

psixoterapiyaning o‘rni katta. Psixoterapiya shaxsan (birma-bir yoki juftliklar bilan, oilalar bilan yoki guruhlarda) yoki telefon orqali maslahat yoki onlayn maslahat orqali amalga oshirilishi mumkin shuningdek, kompyuter yordamida terapiya, masalan, xulq-atvorga ta’sir qilish uchun virtual haqiqat terapiyasi, kognitiv texnikani o‘rgatish uchun multimedia dasturlari va yaxshilangan monitoring yoki g‘oyalarni amalda qo‘llash. Psixoterapiyaning aksariyat shakllari og‘zaki suhbatdan foydalanadi. Ba’zilar, shuningdek, yozma so‘z, badiiy asar, drama, hikoya hikoyasi yoki musiqa kabi turli xil aloqa shakllaridan foydalanadilar. Psixoterapevtlar an’anaviy ravishda psixologlar va psixiatrlar kabi ruhiy salomatlik bo‘yicha mutaxassislar bo‘lishi mumkin; boshqa tibbiyot yoki pedagogik bo‘lgan mutaxassislar (oilaviy terapevtlar, ijtimoiy ishchilar, o‘qituvchilar, hamshiralar va boshqalar.) ma’lum bir psixoterapiya bo‘yicha o‘qiganlar; yoki (ba’zi hollarda) akademik yoki ilmiy o‘qitilgan mutaxassislar.

Psixiatrlar birinchi navbatda shifokor sifatida o‘qitiladi va shuning uchun ular retsept bo‘yicha dori-darmonlarni buyurishlari mumkin. Boshqa klinik amaliyotchilar, ijtimoiy ishchilar, ruhiy salomatlik bo‘yicha maslahatchilar, pastoral maslahatchilar va ruhiy salomatlik bo‘yicha ixtisoslashgan hamshiralar ham ko‘pincha psixoterapiya o‘tkazadilar.

Xulosa. Psixoterapiya paytida sezgir va chuqur shaxsiy mavzular tez-tez muhokama qilinganligi sababli, terapevtlar mijoz yoki bemorning maxfiyligini hurmat qilishlari kutiladi va odatda qonuniy ravishda bog‘lanadi. Mijozlarning maxfiyligining muhim ahamiyati - va mijozlarni yoki boshqalarni himoya qilish uchun uni buzish kerak bo‘lgan cheklangan holatlar-tartibga soluvchi psixoterapevtik tashkilotlarning axloqiy amaliyot kodekslarida mustahkamlangan (doimiy oila a‘zosi tomonidan kaltaklanib kelinishi) ijtimoiy himoya talabi bilan yuridik himoya olish imkonini beradi. Maxfiylikni buzish odatda qabul qilingan paytga misol qilib, terapevt homiladorga jismoniy zo‘ravonlik qilinayotgani to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lganda kiradi; o‘ziga yoki ma’lum bir shaxsga jiddiy jismoniy zarar yetkazish to‘g‘ridan-to‘g‘ri, aniq va yaqin tahdid mavjud bo‘lganda qonun doirasida ish ko‘riladi. Terapiya tashxis qo‘yiladigan ruhiy kasallikning o‘ziga xos shakllarini yoki shaxslararo munosabatlarni boshqarish yoki saqlashda yoki shaxsiy maqsadlarga erishishda kundalik muammolarni hal qilishi mumkin. Terapiya kursi farmakoterapiyadan oldin, yoki undan keyin sodir bo‘lishi mumkin (masalan, tinchlantiruvchi dorilarni qabul qilishdan keyin). Telepsixiatriya yoki telemental salomatlik telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni anglatadi ruhiy salomatligi bo‘lgan odamlar uchun masofadan turib psixiatrik yordam ko‘rsatish. Bu teletibbiyotning bir bo‘limi. Telepsixiatriya ruhiy salomatligi bo‘lgan odamlarni davolashda samarali bo‘lishi mumkin. Homiladorlarda ko‘plab neyroleptik va trankvalizatorlarni qo‘llashga qarshi ko‘rsatmalar mavjudligi sababli ruhiyatiga ta’sir qilish orqali homiladorlik vaqtida davolash mumkun. Bu terapiya 33% hollarda natija bermasligi ham mumkun. Bunday hollarda dori preparatlaridan foydalaniladi. Homiladorlarda qo‘llash mumkun bo‘lgan dori vositalar Valeriana nastoykasi, Tenoten, Nova-Passit tabletkasi, Korvalol, Barbaval, Kardiosist kabi tabiiy o‘simliklardan olingan nastoykalardan foydalaniladi. Miya to‘qimasida

qo‘zg‘aluvchanliklarni kamaytirish maqsadida magniy B6 vitaminidan ham foydalanish mumkun.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. DiPietro, J. A. (2010). Psychological and psychophysiological considerations regarding the maternal–fetal relationship. *Infant and Child Development: An International Journal of Research and Practice*, 19(1), 27-38.
2. Argyraki, M., Damdimopoulou, P., Chatzimeletiou, K., Grimbizis, G. F., Tarlatzis, B. C., Syrou, M., & Lambropoulos, A. (2019). In-utero stress and mode of conception: impact on regulation of imprinted genes, fetal development and future health. *Human reproduction update*, 25(6), 777-801.
3. Shermatovna, G. Z., & Abdusattorovna, A. M. (2024). INSONLARDA KUZATILADIGAN HISSIY ZO‘RIQISHLAR VA ULARNI OLDINI OLISH. NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA‘LIMNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI, 1(3), 273-276.
4. Bjelica, A., Cetkovic, N., Trninic-Pjevic, A., & Mladenovic-Segedi, L. (2018). The phenomenon of pregnancy-A psychological view. *Ginekologia polska*, 89(2), 102-106.
5. Murot, J. D., & Nuralievna, S. N. (2024). Assessment of Fetoplasentar Deficiency in Pregnant Women Who Have Preterm Obstetric Care. *International Journal of Integrative and Modern Medicine*, 2(5), 14-18.
6. ["What is Telepsychiatry?"](#). American Psychiatric Association. Retrieved 20 February 2023.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PSIXOLOGIYA
PSYCHOLOGY

ANALYSING ENVIRONMENTAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF FOREIGN LANGUAGE ANXIETY IN UZBEK HIGHER EDUCATIONAL CONTEXT

Utkirjon Akhrorjon ugli Islomov

*ESP teacher at Kokand branch of Tashkent state technical
university named after Islam Karimov*
utkirislomov130519988@gmail.com
+998916764788

Annotation This research explores the environmental and psychological factors contributing to Foreign Language Anxiety (FLA) among university students in Uzbekistan. Through a semi-structured interview with an undergraduate student, the study identifies key sources of anxiety, including fear of negative evaluation, peer comparison, and teacher-related influences. The findings highlight the role of past negative experiences in shaping FLA and emphasize the need for supportive learning environments to reduce anxiety in language classrooms.

Keywords: Foreign Language Anxiety, psychological factors, environmental factors, fear of negative evaluation, peer comparison, teacher influence, higher education in Uzbekistan

Annotatsiya Ushbu tadqiqot O‘zbekistondagi universitet talabalari orasida chet tili o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan tashqi va psixologik omillarni o‘rganadi. Bakalavr talabasi bilan o‘tkazilgan yarim tuzilgan suhbat asosida FLAning asosiy sabablaridan biri sifatida salbiy baholanish qo‘rquvi, tengdoshlar bilan solishtirish va o‘qituvchi omili aniqlangan. Tadqiqot natijalari oldingi salbiy tajribalar FLA shakllanishida muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi va chet tili ta’limida qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish muhimligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Chet tili tashvishi, psixologik omillar, tashqi omillar, salbiy baholanish qo‘rquvi, tengdoshlar bilan solishtirish, o‘qituvchi ta’siri, O‘zbekistonda oliy ta’lim,

Аннотация В данном исследовании рассматриваются экологические и психологические факторы, способствующие возникновению тревожности при изучении иностранного языка среди студентов вузов Узбекистана. На основе полуструктурированного интервью с одним студентом выявлены ключевые причины тревожности, включая страх негативной оценки, сравнение с однокурсниками и влияние преподавателя. Результаты исследования подчеркивают важность прошлых негативных

переживаний в формировании FLA и необходимость создания благоприятной образовательной среды для снижения тревожности в языковом обучении.

Ключевые слова: Тревожность при изучении иностранного языка, психологические факторы, экологические факторы, страх негативной оценки, сравнение с однокурсниками, влияние преподавателя, высшее образование в Узбекистане.

INTRODUCTION

Foreign language anxiety (FLA) has been acknowledged as a significant barrier to language learning and proficiency development, particularly in educational contexts [11]. FLA includes a variety of affective and emotional responses that language learners encounter, such as feelings of apprehension, fear and nervousness in language learning situations. Since there are so many questions about language anxiety that need to be investigated and answered, and there are many students who experience discomfort and annoyance because of it, research on FLA is one of the significant areas which should not be ignored. However, despite this, there are very few studies conducted on factors causing FLA among undergraduate students in higher educational settings in Uzbekistan. This highlights the critical importance of conducting such studies in this context. Therefore, the purpose of the current research paper is to identify the environmental and psychological factors that are likely to cause FLA in linguistic higher education students. Through a semi-structured interview with a language learner who has experienced FLA during her studies, this research seeks to uncover the underlying causes of FLA.

LITERATURE REVIEW

The concept of foreign language anxiety (FLA)

In the academic literature, considered as one of the factors that negatively impact the language learning process, FLA is defined by several researchers. According to Horwitz et al. [11], who were the first to conceive FLA as situation-specific anxiety, it is “a distinct complex of self-perceptions, beliefs, feelings, and behaviours related to classroom language learning arising from the uniqueness of the language learning process”. Their study shows that learners who are good at other subjects may experience anxiety while learning a foreign language. For Gardner and MacIntyre, language anxiety is an apprehension-related phenomenon and they define it as “the apprehension experienced when a situation requires the use of a second language with which the individual is not fully proficient” [8]. Students who experience anxiety are unlikely to be eager to share any personal information [8] and find it challenging to demonstrate their acquired knowledge [16]. In this case, the learner may undergo clinical signs such as sweating and rapid heartbeat [11].

Alpert and Haber classify language anxiety into debilitating and facilitating [3]. While debilitating anxiety has a detrimental effect on learning and performance, facilitating anxiety has certain advantages for students to perform effectively and keeps students focused on the language [7]. However, even though certain studies observed that FLA facilitates the language

learning process, there is not sufficient proof to support this claim and most studies obtained a negative correlation between language anxiety and achievement [8]. According to Aida, the most anxiety-provoking situation is when students are expected to speak in class [1]. Similarly, the fact that oral production tasks elicit feelings of anxiety is noted by Horwitz [10].

Components of FLA

Three main components of FLA are identified by Horwitz et al.[11]: communication apprehension, test anxiety and fear of negative evaluation. Communication apprehension, as defined by Horwitz et al., is “a type of shyness characterized by fear or anxiety about communicating with people” [11]. It encompasses worries about making mistakes or experiencing embarrassment during speaking and participating in language classes. The study conducted by Al-Saraj among female English language learners in Saudi Arabia reported that being highly anxiety-provoking, delivering presentations in the classroom resulted in communication apprehension [2].

Test anxiety refers to the apprehension and nervousness experienced specifically in assessment situations, such as exams. According to Horwitz et al. [11], some students set unattainable goals and consider it as a failure when they do less than a perfect test performance. They also state that test-anxious students may experience both test and communication anxiety in oral assessments.

The third component, which is fear of negative evaluation involves the avoidance or fear of being negatively judged or evaluated by others [11]. Learners may worry about being perceived as incompetent, unintelligent, or inferior due to their language performance, leading to feelings of insecurity and self-doubt. Horwitz et al. also emphasize that this component resembles test anxiety, but it may occur in any social evaluative situation, not only in test or exam processes [11].

FLA at three stages of language learning

Anxiety can emerge at different phases of language learning and influence a learner's capacity to acquire, process, and produce language. Understanding the various ways anxiety affects language acquisition stages like input, processing and output, offers insight into its complex consequences. Anxiety during the input stage of language learning can impair comprehension and hinder the intake of new vocabulary and grammatical structures [15]. This could make it difficult for students to understand spoken or written content, which could lead them to feel discouraged and frustrated. During the processing stage, in order to make sense of the input, learners cognitively alter and analyse linguistic information. According to Young, anxiety has the potential to interfere with cognitive functioning and impede working memory, which are crucial for language comprehension and production [18]. Moreover, learners could experience cognitive overload, which hinders their ability to comprehend complex linguistic structures and successfully retrieve vocabulary [11].

Lastly, anxiety can impede learners' fluency, accuracy, and spontaneity in language use during the output stage, when they are engaged in language production through speaking and

writing activities [9]. According to Horwitz et al., learners may experience performance anxiety, fearing negative evaluation or making mistakes in front of others [11]. Consequently, learners could engage in avoidance behaviours that hinder language development, such as being silent or participating less in communication tasks [15].

Causes of FLA

Research on FLA has proposed some findings on the causes of language anxiety among learners. According to MacIntyre, language anxiety is triggered by academic causes such as pronunciation errors and teacher's harsh or embarrassing error correction, cognitive causes like fear associated with losing one's identity, shyness or low self-esteem and finally social causes such as fear of being laughed at and competitiveness [13].

In addition to the above, it should be noted that Young categorizes six main causes, which originate from three main sources: the learner, the teacher, and instructional practices. They are “1) personal and interpersonal anxieties; 2) learner beliefs about language learning; 3) instructor beliefs about language teaching; 4) instructor-learner interactions; 5) classroom procedures; and 6) language testing” [18]. Being the source associated with a teacher, continuous correction of students' mistakes is one of the widely accepted factors of FLA. Although it is thought to be the most anxiety-inducing behaviour in the classroom, Young contended that teachers with greater authority considered they needed to correct every mistake made by their students [18]. She also highlighted that low language proficiency and low self-esteem as well as competitiveness are the main sources of FLA associated with the learner. Students with low self-esteem can become very anxious because they are concerned about what their classmates will think of them. For example, the results of Price's interview study showed that students' comparison of their language skills and abilities to their peers and the perception of themselves as weaker than other students lead to the development of FLA [17].

METHODOLOGY

Research question

As mentioned above, research studies on FLA among students in higher education in Uzbekistan are inadequate. Therefore, the current study aims to investigate the possible factors that can cause FLA among students learning English as EFL in a linguistic context. This study will be guided by the following research question:

What psychological and environmental factors cause language anxiety among EFL learners in linguistic higher educational contexts?

Interview guide

Hozirgi zamon maktab o‘quvchisi o‘zining 80-85% vaqtini o‘tirib o‘tkazadi. 9-sinfdan boshlab, sinfdan sinfga ko‘chgan sari harakat faolligi susayib bormoqda. Bu esa ularning salomatligi va jismoniy rivojlanishga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Asli sport tadqiqotlari natijalariga ko‘ra 9 sinfni bitirishdan boshlab, sportda yuqori natijalarga erishish isbotlab berilgan bo‘lsada, texnologiyalarning rivojlanishi bizning yoshlarimizda bu aks ta‘sirini bermoqda [4].

Maktab jismoniy madaniyati mazmunidagi yuqorida qayd qilingan maktabdagi sport turlarini ommalashtirishda, o‘quvchilarni kichik maktab yoshidan sportning o‘yinlar turlari

bilan oshno bo‘lishida o‘ta zarur bo‘lgan maktab sport seksiyalari faoliyati talab darajasida emasligini asosladilar. Lekin tadqiqotni amaliyotda qo‘llash muammosi mualliflar ilmiy, nazariy, amaliy asoslangan maktab sporti va uning mashg‘ulotlari turli shakllarini amaliyotda qo‘llashni tashkil etishdagi kamchilik sifatida qolmoqda.

Seksiyalar maktablar kesimida 1-11 sinf o‘quvchilari qamrab olinadi. Oliy ta‘lim muassasalarida esa barcha talabalar ichidan tanlab olinadi. Seksiyalar o‘quv yili uchun mo‘ljallangan bo‘lishi lozim. Seksiyalarning har bir guruhiga 15 nafardan kam bo‘lmagan o‘quvchilar qabul qilinadi. O‘quvchilarni seksiyaga qabul qilishda ularni yoshlarini, qiziqishlarini hisobga olinadi. Har bir seksiya a‘zosi o‘quv yili mobaynida seksiyadan chiqib ketishi, boshqa seksiyaga a‘zo bo‘lishi va hohishi bo‘yicha bir vaqtning o‘zida bir nechta seksiyada ishtirok etish huquqiga ega. Seksiya rahbarining me‘yoriy hujjatlari quyidagilar:

1. Mashg‘ulot jadvali;
2. Seksiya ishtirokchilari haqida ma‘lumot;
3. Yillik yuklamalari;
4. Yillik ish reja o‘quv soatlarining taqsimoti;
5. Yillik kalendar ish reja;
6. Oylik kalendar ish reja;
7. Seksiya yo‘qlama jurnali;
8. Mashg‘ulot ishlanmasi.

Sport seksiyalarining murabbiylik faoliyatini jismoniy tarbiy fani o‘qituvchisi yoki sport murabbiylari tomonidan yuritiladi, nazorati esa maktab ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarida bo‘ladi.

Quyida umumta‘lim maktablarida eng ko‘p foydalanilayotgan voleybol sport turi bo‘yicha maktab sport seksiyasi strukturasini (1-jadvalga qarang), maktabning boshqa sport seksiyalari uchun ham tavsiya qilamiz. Biz voleybol sport seksiyasini 5 guruhga bo‘ldik. Har bir qayd etilgan guruhlarining o‘zining nomi, qabul qilinish chegarasi hamda yosh nisbatlari sog‘lomlashtirish, dastlabki tayyorgarlik hisobga olingan. Ularning tarkibidagi shug‘ullanuvchilar soni 16 nafardan 32 nafargacha bo‘lishi mumkin. Bu yerda umumiy o‘rta ta‘lim maktablari sentyabr-may oralig‘ida mashg‘ulotlar olib borilishi hisobga olingan.

1. Sog‘lomlashtirish bir o‘quv-mashq mashg‘ulotlari haftasiga 2 marta 1 akademik soatdan (1 hafta 2 soat, 1 oy 8 soat, 9 oy 72 soat qilib belgilab oldik.) ortiq bo‘lmasligi (shug‘ullanuvchilar soni 32 nafargacha);

2. Dastlabki tayyorgarlik guruhlarida bir o‘quv-mashq mashg‘ulotlari haftasiga 2 marta 2 akademik soatdan (1 hafta 4 soat, 1 oy 16 soat, 9 oy 144 soat qilib belgilab oldik.) ortiq bo‘lmasligi (shug‘ullanuvchilar soni 32 nafargacha);

3. O‘quv-mashq guruhi-bir haftada 3 marta 2 akademik soatdan ortiq (1 hafta 6 soat, 1 oy 24 soat, 9 oy 216 soat qilib belgilab oldik.) bo‘lmasligi (shug‘ullanuvchilar soni 16-22 nafargacha);


4. Takomillashuv guruhlarida esa — bir haftada 4 marta 2 akademik soatdan ortiq (1 hafta 8 soat, 1 oy 32 soat, 9 oy 288 soat qilib belgilab oldik.) bo‘lmasligi (shug‘ullanuvchilar soni 16 nafargacha);

5. Yuqori sport mahorati guruhida ham — bir haftada 5 marta 2 akademik soatdan ortiq (1 hafta 10 soat, 1 oy 40 soat, 9 oy 360 soat qilib belgilab oldik.) bo‘lmasligi (shug‘ullanuvchilar soni 12-14 nafargacha), musobaqa oldi jarayonlarda esa bir kunda ikki martadan ham mashg‘ulotlarni o‘tkazish tavsiya qilinadi, ammo jami haftalik yuklama 24 soatdan oshmasligi kerak.

Agarda har bir o‘quv guruhi o‘rtacha 20 nafardan shug‘ullanuvchini o‘zida mujassamlashtirsa, faqat o‘g‘il bolalar guruhlarining shug‘ullanuvchilari 100 nafarni tashkil qilishi mumkin. Ularga qizlar guruhidagilar soni qo‘shilsa (100 nafar) voleybol seksiyasining o‘zi jami 200 nafar sportchi o‘quvchini o‘z tarkibiga birlashtiradi [3].

Albatta ushbu 5 ta gurugdagi o‘quvchilar uchun bitta emas bir necha sport murabbiyi yoki jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisini jalb qilinishi kerak bo‘ladi. Voleybol sport seksiyasining tavsiya etilgan barcha me‘yoriy hujjatlari alohida ilovalarda taqdim etilgan.

1.1-jadval



Sport seksiyalarining kengashi maktabning barcha sport turlari bo‘yicha tashkillangan seksiyalar faoliyatini boshqaradi.

Ushbu jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Sog‘lomlashtirish guruhi – 7-8 yosh, shug‘ullanuvchilar soni 32 nafargacha;
2. Dastlabki tayyorgarlik guruhi – 9-12 yosh, shug‘ullanuvchilar soni 32 nafargacha;
3. O‘quv-mashg‘ulot guruhi – 13-14 yosh, shug‘ullanuvchilar soni 22 nafargacha;

4. Takomillashuv guruhi – 15-16 yosh, shug‘ullanuvchilar soni 16 nafargacha;
5. Yuqori sport mahorati guruhi – 17 va undan katta yosh, shug‘ullanuvchilar soni 12-14 nafargacha.

Barcha guruhlar uchun yillik soatlar me‘yorini quyidagicha taqsimladik

1.2-jadval

Sog‘lomashtirish guruhi – 7-8 yosh

T/r	Tayyorgarlik turlari	Yuklamalar hajmi
1	Nazariy tayyorgarlik	4
2	Umumiy jismoniy tayyorgarlik (voleybol o‘yiniga oid harakatli o‘yinlar orqali)	50
3	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	9
4	Texnik tayyorgarlik	9
5	Nazorat test mashqlari sinovi	
JAMI:		72

1.3-jadval

Voleybol bo‘yicha yillik ish reja o‘quv soatlarining taqsimoti

№		Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Jami
Mashg‘ulotlar jadvali											
1	Nazariy tayyorgarlik	1	1	1	1	-	-	-	-	-	
2	Umumiy jismoniy tayyorgarlik (voleybol o‘yiniga oid harakatli o‘yinlar orqali)	5	5	5	5	6	6	6	6	6	0
3	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
4	Texnik tayyorgarlik	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
5	Nazorat test mashqlari sinovi	-	-	-	-	-	-	-	-	-	
Jami soatlar:		8	8	8	8	8	8	8	8	8	2

1.4-jadval

Dastlabki tayyorgarlik guruhi

T/r	Mashg‘ulotlar mazmuni	Yuklamalar hajmi
		9 -12 yosh

1	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	62
2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	12
3	Texnik tayyorgarlik	60
4	Taktik tayyorgarlik	-
5	Integral (o‘yin) tayyorgarlik	9
6	Nazorat test mashqlari sinovi	1
	JAMI:	144

1.5-jadval

Voleybol bo‘yicha yillik ish reja o‘quv soatlarning taqsimoti

№	Mashg‘ulotlar jadvali	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Jami
1	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	6	6	6	6	6	8	8	8	8	2
2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	1	2	1	1	1	1	2	2	1	2
3	Texnik tayyorgarlik	7	7	8	8	8	6	5	5	6	0
4	Taktik tayyorgarlik	-	-	-	-	-	-	-	-	-	
5	Integral (o‘yin) tayyorgarlik	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
6	Nazorat test mashqlari sinovi	1									
Jami soatlar:		16	16	16	16	16	16	16	16	16	44

1.6-jadval

O‘quv- mashg‘ulot guruhi

T/r	Mashg‘ulotlar mazmuni	Yuklamalar hajmi
		13-14 yosh
1	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	60
2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	30

3	Texnik tayyorgarlik	80
4	Taktik tayyorgarlik	9
5	Integral (o‘yin) tayyorgarlik	28
6	Nazorat test mashqlari sinovi	9
	JAMI:	216

1.7-jadval

Voleybol bo‘yicha yillik ish reja o‘quv soatlarining taqsimoti

№	Mashg'ulotlar jadvali	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Jami
1	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	7	7	7	7	8	6	6	6	6	0
2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	3	3	3	3	3	4	4	4	3	0
3	Texnik tayyorgarlik	9	9	9	9	8	9	9	9	9	0
4	Taktik tayyorgarlik	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
5	Integral (o‘yin) tayyorgarlik	3	3	3	3	3	3	3	3	4	8
6	Nazorat test mashqlari sinovi	1	1	1	1	1	1	1	1	1	
Jami soatlar:		24	24	24	24	24	24	24	24	24	16

1.8-jadval

Takomillashuv guruhi

T/r	Mashg'ulotlar mazmuni	Yuklamalar hajmi
		15-16 yosh
1	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	50
2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	80
3	Texnik tayyorgarlik	80
4	Taktik tayyorgarlik	36

5	Integral (o‘yin) tayyorgarlik	36
6	Nazorat test mashqlari sinovi	6
	JAMI:	288

1.9-jadval

Voleybol bo‘yicha yillik ish reja o‘quv soatlarining taqsimoti

No	Mashgulotlar jadvali	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Jami
1	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	6	6	6	6	6	5	5	5	5	50
2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	9	9	9	8	9	9	9	9	9	80
3	Texnik tayyorgarlik	9	9	9	9	8	9	9	9	9	80
4	Taktik tayyorgarlik	4	4	4	4	4	4	4	4	4	36
5	Integral (o‘yin) tayyorgarlik	4	4	4	4	4	4	4	4	4	36
6	Nazorat test mashqlari sinovi				1	1	1	1	1	1	6
	Jami soatlar:	32	32	32	32	32	32	32	32	32	288

1.10-jadval

Yuqori sport mahorati guruhi

T/r	Mashg‘ulotlar mazmuni	Yuklamalar hajmi
		17 va undan katta yosh
1	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	36
2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	80
3	Texnik tayyorgarlik	80
4	Taktik tayyorgarlik	80
5	Integral (o‘yin) tayyorgarlik	80
6	Nazorat test mashqlari sinovi	4
	JAMI:	360

1.11-jadval

Voleybol bo‘yicha yillik ish reja o‘quv soatlarining taqsimoti

№	Mashgulotlar jadvali	Sentyabr	Oktyabr	Noyabr	Dekabr	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Jami
1	Umumiy jismoniy tayyorgarlik	4	4	4	4	4	4	4	4	4	36
2	Maxsus jismoniy tayyorgarlik	9	9	9	9	9	9	8	9	9	80
3	Texnik tayyorgarlik	9	9	9	8	9	9	9	9	9	80
4	Taktik tayyorgarlik	9	9	9	9	9	9	9	9	8	80
5	Integral (o‘yin) tayyorgarlik	8	9	9	9	9	9	9	9	9	80
6	Nazorat test mashqlari sinovi	1			1			1		1	4
Jami soatlar:		40	40	40	40	40	40	40	40	40	360

Shug‘ullanuvchi bolalarning nasliy va hayot davomida jismoniy, psixologik va o‘shish darajasiga qarab, ular kichik yosh guruhidan katta yosh guruhiga o‘tkazilishi mumkin. Bolalarni guruhlarga qabul qilish va ularni bir guruhdan ikkinchi guruhga ko‘chirish me‘yoriy test sinovlari natijalari asosida amalga oshiriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya dasturining ma’lum qismini sport o‘yinlari tashkil qiladi. O‘quvchilarni jismoniy tarbiyalash jarayonida voleybol seksiyasi ishini tahlili, undan yetarlicha samarali qo‘llanmaganligini ko‘rsatadi, bu usul o‘qitish va tarbiyalash jarayonida muhim ahamiyatga ega.

XULOSA Xulosa qilib shuni takidlash lozimki, voleybol sport seksiyasining tuzilishi yaxshi tashkil etilgan tizim bo‘lib, unda har bir element maqsadlarga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Seksyani boshqarishga kompleks va tizimli yondashish nafaqat ishtirokchilarning mahorat va ko‘nikmalarini rivojlantirish, balki yoshlar o‘rtasida voleybolni ommalashtirishga ham xizmat qiladi, bu esa natijada sport an‘analarini mustahkamlash va jamiyatda jismoniy madaniyat darajasini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Беляев А.В., Железняк Ю.Д., Клещев Ю.Н., Костюков В.В., Кувшинников В.Г., Родионов А.В., Савин М.В., Топышев О.П., ВОЛЕЙБОЛ. Учебник. Москва «Физкультура, образование и наука» 2000.368 с

2. А.Абдуллаев Педагогические аспекты совершенствования внеклассной работы по физическому воспитанию в сельских школах» дис-я на соиск. уч. степ. кан.пед. наук. 13 00 001- теория и ист. пед. наук. Ташкент – 1984.

3. A.Abdullayev, R.Rasulov, A.Xasanov. O‘quv qo‘llanma. “Umumiy o‘rta va kasb-hunar ta’limi tizimlarida jismoniy tarbiyadan sinfdan tashqari ishlar” Toshkent 2009. 210 b.

4. Solijonovich SJ. Maktab va professional ta’lim tizimida voleybol seksiyasining maqsad va vazifalari. Pedagog. 2024 Feb 15;7(2):122-7.



SPORT KO‘RSATKICHLARINI YAXSHILASH VA TIKLANISHDA MAKRO VA MIKRONUTRIYENTLARNING ROLI

Batirova Fotima Ashurovna

*Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassslarni
qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali dotsenti v.b.*

Annotatsiya Ushbu maqolada makro va mikronutrientlarning sport samaradorligini oshirish va jismoniy faoliyatdan keyingi tiklanishdagi roli ko‘rib chiqiladi. Oziq moddalarning sportchining tanasiga ta‘sir qilish mexanizmlari muhokama qilinadi va ovqatlanishni optimallashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi. Maqolaning maqsadi sport diyetologiyasi sohasidagi joriy tadqiqotlarni tahlil qilish va to‘g‘ri ovqatlanish orqali samaradorlikni oshirish bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar berishdir.

Kalit so‘zlar Sport ko‘rsatkichlari, makronutrientlar, mikronutrientlar, tiklanish, sportchilarning ovqatlanishi, sport diyetologiyasi.

РОЛЬ МАКРО- И МИКРОНУТРИЕНТОВ В УЛУЧШЕНИИ СПОРТИВНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ И ВОССТАНОВЛЕНИИ

Аннотация В данной статье рассматривается роль макро- и микронутриентов в повышении спортивных показателей и восстановлении после физических нагрузок. Обсуждаются механизмы влияния питательных веществ на организм спортсмена и приводятся практические рекомендации по оптимизации питания. Цель статьи — проанализировать современные исследования в области спортивной диетологии и предложить практическое руководство по улучшению результатов через правильное питание.

Ключевые слова Спортивные показатели, макронутриенты, микронутриенты, восстановление, питание спортсменов, спортивная диетология.

THE ROLE OF MACRO- AND MICRONUTRIENTS IN ATHLETIC PERFORMANCE ENHANCEMENT AND RECOVERY

Abstract This article discusses the role of macro- and micronutrients in improving athletic performance and recovery after physical exertion. The mechanisms of nutrients influence on the athlete's body are discussed and practical recommendations on nutritional optimization are given. The aim of the article is to analyze modern research in the field of sports

nutritionology and offer practical guidance on how to improve performance through proper nutrition.

Keywords Sports performance, macronutrients, micronutrients, recovery, nutrition of athletes, sports dietetics.

Kirish

Uzluksiz innovatsiyalar va professional sportchilarga talab ortib borayotgan davrda ularning jismoniy imkoniyatlarini optimallashtirish masalalari birinchi o‘ringa chiqmoqda. Har bir sportchining arsenalida doimo mavjud bo‘lgan eng muhim omillardan biri bu ovqatlanishdir. Makro va mikronutriyentlarning to‘g‘ri kombinatsiyasi nafaqat energiyani kerakli darajada ushlab turishga yordam beradi, balki intensiv mashqlardan keyin tiklanish jarayonlariga ham ta‘sir qiladi, bu esa tananing imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish imkonini beradi.

Uglevodlar, oqsillar va yog‘lar kabi makronutriyentlar mushaklar va ichki organlarning ishlashi uchun asosiy yoqilg‘i hisoblanadi. Ular kuch va chidamlilikka bevosita ta‘sir qiladi. Shu bilan birga, mikronutriyentlar, jumladan, vitaminlar va minerallar yuzlab biokimyoviy reaksiyalarda ishtirok etadi, immunitet tizimini qo‘llab-quvvatlaydi, suyaklarni mustahkamlaydi va asab tizimini tartibga soladi.

Ushbu maqolaning maqsadi sport amaliyotida makro va mikronutriyentlarning roli haqidagi hozirgi tushunchani tahlil qilish va ularning jismoniy chidamlilikni oshirishga, musobaqalar va mashg‘ulotlardan keyin tiklanish jarayonini tezlashtirishga ta‘sirini ko‘rib chiqishdir. Nazariy ma‘lumotlarga qo‘shimcha ravishda, barcha darajadagi sportchilarga ovqatlanish fanidan foydalangan holda o‘z faoliyatini yaxshilashga yordam beradigan amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

Nazariy qism

Makro va mikronutriyentlar tananing to‘liq ishlashini ta‘minlaydigan asosiy elementlardir, ayniqsa kuchli jismoniy faoliyat sharoitida. Ular energiya ishlab chiqarish, tiklanish va sportchining umumiy sog‘lig‘ini saqlash jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Makronutrientlar

1. **Uglevodlar** : Tana uchun asosiy energiya manbai uglevodlardir. Ular tezda glyukozaga bo‘linadi, zudlik bilan energiya beradi, bu ayniqsa yuqori intensiv mashg‘ulotlar va musobaqalar uchun qimmatlidir. Mushaklar va jigarda saqlanadigan glikogen tanadagi uglevodlarni saqlash shakli bo‘lib, uning zahiralari uzoq muddatli jismoniy faoliyat qobiliyatini belgilaydi [1].

2. **Proteinlar**: Proteinlar aminokislotalardan iborat bo‘lib, ular mushak to‘qimalarining tiklanishi va o‘sishi, shuningdek, immunitet tizimining ishlashini ta‘minlash va metabolik jarayonlarni tartibga solish uchun zarurdir. Ayniqsa, sportchilar uchun mushak oqsili sintezini rag‘batlantiradigan va jismoniy faoliyatdan so‘ng tiklanishni rag‘batlantiradigan leysin kabi aminokislotalar muhim ahamiyatga ega [2].

3. **Yog‘lar:** Yog‘lar uzoq muddatli energiya manbai hisoblansa-da, ular gormonal muvozanatni tiklash va tartibga solish jarayonlarida ham xizmat qiladi. Omega-3 yog‘ kislotalari, masalan, yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarga ega, bu mushaklardagi og‘riqni kamaytirishga va tiklanishni yaxshilashga yordam beradi [2].

Mikronutriyentlar

1. **Vitaminlar va minerallar :** Bu elementlar energiya manbalari emas, lekin ular tananing faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun juda ko‘p biokimyoviy jarayonlarda ishtirok etadilar. Masalan, D vitamini va kaltsiy suyak sog‘lig‘ini saqlash uchun juda muhimdir, bu ayniqsa yuqori ta‘sirli(zarbali) sport bilan shug‘ullanadigan sportchilar uchun muhimdir [3].

2. **Antioksidantlar :** C va E vitaminlari antioksidant xususiyatlarga ega bo‘lib, hujayralarni jismoniy faollikning oshishi natijasida yuzaga keladigan oksidlovchi stressdan himoya qilishga yordam beradi. Ular yallig‘lanishni kamaytiradi va tiklanish jarayonini tezlashtiradi [3].

3. **Temir:** kislorodni to‘qimalarga tashiydigan gemoglobin sintezi uchun zarurdir. Bu, ayniqsa, chidamlilik talab qilinadigan sportchilar uchun juda muhim, chunki temirning past darajasi charchoq va ish faoliyatini pasayishiga olib kelishi mumkin [4].

Shunday qilib, makro va mikronutriyentlarning roli va munosabatlarini tushunish bizga sport faoliyatini yaxshilashga va tiklanish vaqtini minimallashtirishga qaratilgan optimal ovqatlanish strategiyalarini yaratishga imkon beradi.

Amaliy tavsiyalar

Oziqlanish orqali optimal sport ko‘rsatkichlariga erishish uchun sportchining individual ehtiyojlarini ularning faoliyat darajasi, mashqlar turi va umumiy mashg‘ulot strategiyasi asosida hisobga olish muhimdir. Quyida jismoniy faoliyat va tiklanishni qo‘llab-quvvatlash uchun makro va mikronutriyentlarni qabul qilish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

1. Uglevodlar:

- Bir kilogramm tana vazniga 6-10 g uglevodlar iste‘moli mashg‘ulotning intensivligi va davomiyligiga, shuningdek, sportning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab o‘zgarishi mumkin [5].

- Barqaror energiya ta‘minotini ta‘minlash va mushaklarning glikogen darajasini saqlab turish uchun diyetangizga butun don, meva va sabzavotlar kabi murakkab uglevodlarni qo‘shing.

2. Proteinlar:

- Kuchli sportchilarga mushaklarning o‘sishi va tiklanishini optimallashtirish uchun har bir kilogramm tana vazniga 1,2-2,0 g protein iste‘mol qilish tavsiya etiladi [6].

- Protein manbalari yog‘siz go‘sht, baliq, tuxum, sut mahsulotlari, dukkaklilar va yong‘oqlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

3. Yog‘lar :

○ Ratsiondagi umumiy kaloriyalarning 20-35 foizi yog‘lardan, baliq, yong‘oq va urug‘lardan olingan omega-3 kabi to‘yinmagan yog‘li kislotalarga e‘tibor berish tavsiya etiladi [7].

○ Yurak-qon tomir salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan to‘yingan va trans yog‘larini ortiqcha iste‘mol qilishdan saqlanish.

4. Vitaminlar va minerallar:

○ Vitaminlar va minerallarni yetarli darajada iste‘mol qilish turli xil ovqatlanish orqali amalga oshirilishi kerak. Temir, kaltsiy, D va B guruhi vitaminlariga alohida e‘tibor berilishi kerak [8].

5. Mashg‘ulotdan keyin tiklanish :

○ Qayta tiklash jarayonlarini tezlashtirish uchun mashg‘ulot tugagandan so‘ng dastlabki 30 daqiqada uglevodlar va oqsillarni 3: 1 nisbatda olish tavsiya etiladi [9].

○ Bunga tiklovchi ichimliklar, pudinglar yoki banan va yogurt kabi oddiy kombinatsiyalar orqali erishish mumkin.

Ushbu tavsiyalarga rioya qilish sportchilarga nafaqat energiya ehtiyojlarini qondirishga, balki ortiqcha yuklanish va shikastlanish xavfini kamaytirishga yordam beradi va shu bilan umumiy sport ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi.

Xulosa

Makro va mikronutrientlar bilan muvozanatlangan ovqatlanish yuqori sport ko‘rsatkichlariga erishish va uni saqlab qolishning asosiy omilidir. Makronutrientlar mushaklar uchun zarur energiya va qurilish bloklarini ta‘minlaydi, mikronutrientlar esa turli xil biokimyoviy jarayonlarni qo‘llab-quvvatlaydi, organizmni oksidlovchi stressdan himoya qiladi va metabolik faollikni saqlaydi.

Sportchining ovqatlanishiga individual yondashish, uning individual ehtiyojlari, jismoniy faollik darajasi va maqsadlarini hisobga olgan holda, mashg‘ulot jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Uglevodlar, oqsillar va yog‘larni yetarli darajada vitaminlar va minerallar bilan birgalikda iste‘mol qilishni optimallashtirish nafaqat ish faoliyatini yaxshilashga, balki jismoniy faoliyatdan keyin tiklanish jarayonlarini tezlashtirishga yordam beradi.

Shunday qilib, to‘g‘ri ovqatlanish sportchilarning mashg‘ulot strategiyalarining ajralmas qismiga aylanadi, ularga jarohatlar xavfini minimallashtirish va umumiy salomatlikni yaxshilash bilan birga yangi cho‘qqilarni zabt etishga yordam beradi. Har bir ozuqaviy komponentning rolini chuqur tushunish va ularni to‘g‘ri qo‘llash muvaffaqiyatli sport karerasi uchun asosdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Burke, L. M. & Deakin, V. (2015). Clinical Sports Nutrition. McGraw-Hill.
2. Phillips, S. M. (2004). Protein requirements and supplementation in strength sports. Nutrition, 20(7–8).

3. Maughan, R. J., & Burke, L. M. (2012). Sports Nutrition. Wiley-Blackwell.
4. Beard, J., & Tobin, B. (2000). Iron status and exercise. American Journal of Clinical Nutrition, 72(2).
5. Thomas, D. T., Erdman, K. A., & Burke, L. M. (2016). Position of the Academy of Nutrition and Dietetics, Dietitians of Canada, and the American College of Sports Medicine. Journal of the Academy of Nutrition and Dietetics, 116(3).
6. Morton, R. W., et al. (2017). A systematic review, meta-analysis and meta-regression of the effect of protein supplementation on resistance training-induced gains in muscle mass and strength in healthy adults. British Journal of Sports Medicine.
7. Jeukendrup, A., & Gleeson, M. (2010). Sport Nutrition: An Introduction to Energy Production and Performance. Human Kinetics.
8. Driskell, J. A., & Wolinsky, I. (2006). Sports Nutrition: Vitamins and Trace Elements. CRC Press.
9. Ivy, J. L., & Portman, R. (2004). Nutrient Timing: The Future of Sports Nutrition. Basic Health Publications.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



JISMONIY MADANIYAT
PHYSICAL CULTURE

BOLALAR VA O‘SMIRLARDA FUTBOL BILAN SHUG‘ULLANISH QOBILIYATINI ERTA ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISH USULLARI

Oblanazarov Faxriddin

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

Mardonov Nodir Jamolovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti dotsenti

Otaboyev Murodullo Islomovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o‘qituvchi

Annotatsiya. Maqolada bolalar va o‘smirlarda futbol bilan shug‘ullanish qobiliyatini erta aniqlash va ularda futbolga bo‘lgan barqaror qiziqishni rivojlantirish borasida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: sport, futbol, futbolchi, ta’lim, nazariy, amaliy, texnika, taktika, o‘yin, zarba, to‘p, hujum, jarayon.

МЕТОДЫ РАННЕГО ВЫЯВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ СПОСОБНОСТЕЙ К ФУТБОЛУ У ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ

Аннотация. Даны рекомендации по раннему выявлению способностей к игре в футбол у детей и подростков и развитию устойчивого интереса к футболу.

Ключевые слова: спорт, футбол, игрок, воспитание, теоретическое, практическое, техника, тактика, игра, удар, мяч, атака, процесс.

METHODS FOR EARLY IDENTIFICATION AND DEVELOPMENT OF FOOTBALL ABILITY IN CHILDREN AND ADOLESCENTS

Abstract. Dany rekomendatsii po rannemu vyavleniyu kobnostey k igre v futbol u detey i podroستkov i razvitiyu ustoychivogo interesa k futbolu.

Keywords: sport, football, player, education, theoretical, practical, technique, tactics, game, kick, ball, attack, process.

Kirish. Futbol - doimiy o‘zgaruvchan vaziyatlarda barcha harakat qobiliyatlarini muvofiqlashtirilgan tarzda namoyon qilishni talab qiladigan sport turlaridan biri.

Bugungi kunda futbol sport turining kun sayin rivojlanishi, jismonan baquvvat va iste’dodli o‘yinchilarni tayyorlab berishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda futbolning ommaviyligini yanada oshirish, istiqbolli va iqtidorli futbolchilarni tanlash hamda professional darajada tayyorlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish, trener va hakamlarni xalqaro talablar asosida tayyorlash va mahoratini yuksaltirish, futbol infratuzilmasini yaxshilash hamda o‘rnatilgan standartlarga moslashtirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Yoshlar o‘rtasida futbolni yanada ommalashtirishga qaratilgan maxsus dasturlari asosida har yili mahalla yoshlari o‘rtasida, jumladan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida “Ommaviy futbol” (Grassroots) festival va musobaqalari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida “Maktablarda futbol”, oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida “Talabalar ligasi” respublika musobaqalarini o‘tkazish belgilandi [1].

Ixtisoslashgan bolalar va o‘smirlar olimpiya zaxiralari sport maktablari hamda futbol yo‘nalishidagi maktab-internatlar nizomida ko‘rsatib o‘tilganidek, iste’dodli va umidli futbolchilarni tarbiyalash butun o‘quv mashg‘ulot davomidaolib boriladi.

Adabiyotlar tahlili. Yosh futbolchilarning dastlab tayyorgarligi o‘yin texnikasidanixatolarni tuzatish, texnik tayyorgarlikda muhim ahamiyatga ega, ayniqsa, bu narsaboshlovchi o‘yinchilar uchun ahamiyatlidir. Murabbiylar futbolchilarning qobiliyatini erta aniqlash va ularda futbolga bo‘lgan barqaror qiziqishni aniqlashga katta e’tibor qaratishni ta’kidlaydilar. R.I.Nurimov yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligi, o‘yin texnikasining ayrim usullariga o‘rgatish, o‘rganilaganlarni nazoratsiz qoldirilishi mumkin emasligi, agar o‘yin texnikasiga o‘rgatish rejalashtirilgan, muntazam mashg‘ulotlar bilan o‘tkazilsa, unda yaxshi natija berishini ta’kidlagan.[2]

Zamonaviy sharoitda ehtimollik va kutilmagan vaziyatlarda amalga oshiriladigan harakatlar hajmi sezilarli darajada oshdi.Bu esa zukkolik, reaksiya tezligi, diqqatni jamlash va almashtirish qobiliyatini, harakatlarning fazoviy, vaqtinchalik, dinamik aniqligini va ularning biomexanik ratsionalligini talab qiladi. Jismoniy tarbiya nazariyasidagi bu barcha fazilatlar yoki qobiliyatlar chaqqonlik tushunchasi bilan bog‘liqdir. Eng oqilona, yangi vosita harakatlarini o‘zlashtirish, o‘zgaruvchan sharoitlarda vosita muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish hisoblanadi.

Chaqqonlik - bu murakkab vosita sifati bo‘lib, uning rivojlanish darajasi ko‘plab omillar bilan belgilanadi. Eng muhimi, yuqori darajada rivojlangan mushak hissi va reaksiyalar to‘plamidan boshqasiga o‘tish tezligini belgilaydi. Chaqqonlikning asosi muvofiqlashtirish qobiliyatidir.

Yosh futbolchilarning qobiliyatlarini baholash uchun quyidagi usullar qo‘llaniladi:

Vizual usullar: sxema bo‘yicha mashqlarni ko‘rsatish, maket,film tasvirlari, o‘quv va rasmiy musobaqalarni ko‘rish.

Og‘zaki usullar: hikoya, tushuntirish, ko‘rsatma, eslatma,ishontirish, suhbat, ma’ruza.

Amaliy usullar:o‘zgaruvchan mashq usuli(to‘liq yoki qisman texnikani dastlabki o‘rganish), ko‘p takrorlash, o‘zgaruvchan, interval, o‘yin varaqobat usullari.

Umumiy tayyorgarlik mashqlari yordamida har tomonlama jismoniy tarbiya muammolarini samarali hal qilish va futbolchining asosiy jismoniy fazilatlarini, harakat qobiliyatlarini rivojlantirishga tanlab ta'sir qilish mumkin.

Futbolchini tayyorlashda qo'llaniladigan barcha mashqlarni *asosiy* va *yordamchi* mashqlarga bo'lish mumkin.

Asosiy mashqlarga quyidagilar kiradi:

- a) Harakat sifatlarini umumiy va maxsus rivojlantirish mashqlari;
- b) To'p bilan muomala qilish texnikasini o'rgatish va takomillashtirish mashqlari;
- c) Taktika, kombinatsiyalar va o'yin tizimlarini o'rganish hamda takomillashtirish mashqlari.

Yordamchi mashqlarga quyidagilar kiradi:

- a) Asosiy vosita ko'nikmalarini amalga oshirishda tananing funktsional imkoniyatlarini kengaytiradigan shartli reflekslarning yangi tizimlarini shakllantirishga yordam beradigan umumiy rivojlanish mashqlari;
- b) Harakatlar tuzilishi (vaqtinchalik bog'lanishlar) bo'yicha vosita mahoratining turli qismlariga mos keladigan yoki ularga yaqin bo'lgan maxsus mashqlar;
- c) Vosita ko'nikmalarini shakllantirish va tananing funktsional imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradigan boshqa sport turlaridan mashqlar. To'satdan o'zgarib turadigan vaziyat bilan bog'liq holda vosita faoliyatini tez va maqsadga muvofiq ravishda qayta tashkil etish qobiliyatini rivojlantirish uchun yuqori samarali vositalarga ochiq va sport o'yinlari, jang san'ati, kros, chang'i va tog' chang'isi kiradi [3].

Amaldagi mashqlarning umumiy hajmining ortishi munosabati bilan mashqlarning bog'liq ta'sirini hisobga olgan holda bir nechta muammolarni hal qilish uchun bir mashqdan foydalanish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Muvofiqlashtirish qobiliyatlarini o'rganish jarayonida katta o'rinni murabbiyning ko'rsatishi va tushuntirishi egallaydi.

Namoyish mashqlarni to'g'ri tushunishga yordam beradi. Murabbiylar uchun bir qator talablar mavjud. Ko'rsatilgan texnika barcha sportchilarga aniq ko'rinadigan bo'lishi kerak, shuning uchun murabbiy guruh yoki jamoaga nisbatan eng qulay joyni tanlaydi. Texnika asta-sekin, aniq va ifodali ko'rsatilishi lozim, bunda sportchilarning diqqatini asosiy elementlarga qaratish kerak. Shunday qilib, to'pga yugurib tepishni ko'rsatishda tayanch oyog'ini to'pga nisbatan qo'yish momentini aniq ajratib ko'rsatish, to'piq va tizza bo'g'inlarida tepuvchi oyoq harakatining xarakterini ajratib ko'rsatiladi.

Ko'pincha, hatto murakkab muvofiqlashtirilgan texnikaning eng aniq namoyishi har doim ham o'quvchilarga asosiy narsani darhol tushunishga imkon bermaydi. Shuning uchun namoyishga qo'shilishdan oldin yosh futbolchilarga tushuntirish lozim. Ko'rsatish va tushuntirish bir-birini to'ldiradi. Shunday qilib, oyoqning ichki qismi bilan to'pni qanday dribling qilishni o'rgangandan so'ng, oyoqning tashqi qismi bilan to'pni qanday dribling qilish o'rgatiladi.

Mashg‘ulotlar davomida xatolarni tuzatish va ma’lum bir texnika haqida to‘g‘ri g‘oyalarni yaratish uchun tushuntirishlar qo‘llaniladi. Dars oxirida tushuntirishlar yordamida eng muhim fikrlar yosh futbolchilar xotirasida mustahkamlanadi.

Yangi, ancha murakkab vosita harakatlarini o‘rganishda takroriy takrorlash usuli qo‘llaniladi. Chunki bunday harakatlarni nisbatan standart sharoitlarda va bir xil tezlikda ko‘p takrorlashdan keyin o‘zlashtirish mumkin. Masalan, takroriy harakatlar yoki harakatlar usuli quyidagi texnikalarni o‘z ichiga oladi:

- murabbiy u yoki bu harakatni ko‘rsatishi (masalan, to‘pni to‘xtatish va boshqalar);
- futbolchining ko‘rsatilgan harakatlarini takrorlashga, murabbiy ko‘rsatmasi bo‘yicha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolarni tuzatishga urinishlari;
- o‘rganilgan harakatni futbolchi tomonidan tegishli avtomatik mahorat shakllanmaguncha takrorlash;
- harakatni murakkablashtirish, unga yangi elementlarni kiritish (masalan, taktik kombinatsiyalar va boshqalar).

Shunga o‘xshab, boshqa usullarni tarkibiy qismlarga yoki texnikaga bo‘lish mumkin.

Ta’lim va tarbiya usullarini tanlashda murabbiy har birni alohida, eng oqilona usullarni ko‘rsatadigan qoidalarga amal qiladi.

Ta’lim va tarbiya usullariga qo‘yiladigan asosiy talablarga ko‘ra quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

a) yosh futbolchilarni tayyorlash maqsad va vazifalariga, individual hamda yosh xususiyatlariga mos kelishi;

b) futbolchilarning mashg‘ulotlardagi faolligini, ularning o‘yin haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini doimiy o‘zlashtirishini ta’minlash;

c) tizimli va izchil mashg‘ulotlar, ta’limni targ‘ib qilish, futbolchilarni osondan qiyinga, ma’lumdan noma’lumga, oddiydan murakkabga, umumiydan maxsuslikgao‘rgatish.

O‘qitish yoki o‘qitishning har bir amaliy usulida ma’lum tarkibiy qismlar yoki texnikalar ajralib turadi, ularning yig‘indisi usulni butunligicha ifodalaydi.

Futbolchilarning qobiliyatiga ta’sir qilishga ko‘ra mashqlarni analitik va sintetikga bo‘lish mumkin. Analitiklar, birinchi navbatda, og‘ir harakatlarning bir xil guruhlar bilan bog‘liq qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Masalan, tekislik harakatlar, velosipedda yurish va boshqalar. Sintetik muvofiqlashtirish mashqlari ikki yoki undan ortiq muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi, masalan, to‘siqlar bo‘ylab yugurish, aylanma mashqlar, turli sport o‘yinlari.

Shunday qilib yoshlarning futbolga qiziqishini oshirish, bu boradagi targ‘ibot ishlarini yanada kuchaytirish, ularning futbol bilan shug‘ullanishi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish lozim.

Xulosa. Ilg‘or tajribalarni umumlashtirish shuni ko‘rsatdiki, tayyorgarlikning boshlang‘ich davridagi o‘quv mashg‘uloti ishlari quyidagicha prinsiplar asosida olibborilishi lozim.

1. O‘quv mashg‘ulotlaridan tashqari vaqtda bolalarni faqat uynab o‘rgana olmayotgan yo bo‘lmasa qo‘pol xatolar qilib o‘rganayotgan texnik usullar va taktik harakatlar bilan shug‘ullantirish lozim. O‘yinda kam uchraydigan vaziyatlarni, biroq muhim biomexanika asosida tashkil etuvchi harakatlarni alohida-alohida o‘rgatish.

2. Taktik va texnik tayyorgarlik bo‘yicha o‘quv materiallarini bosqichma-bosqich emas, balki spiralsimon o‘rgatish kerak. Bunda albatta quyidagi vazifalar quyilish ilozim:

a) futbolchilarning texnik usullari va taktik harakatlarining har xilligi bo‘yicha keng ko‘lamda tushuncha berish;

b) o‘rganilayotgan texnik usullarni o‘yin jarayonida taktik harakatlarga mosbajarishni tushuntirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi “ Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-115-son qarori.

2. Akramov R.A. “Zamonaviy futbol asoslari” Toshkent. 2012-y.

3. Koshbaxtiyev I.A. “Yosh futbolchilarni tayyorlashda texnik va taktik jarayonlarning ro‘li va ahamiyati” Toshkent. 2015-y.

4. https://kknews.uz/oz/cs_docs_laws/ozbekcha-ommaviy-va-professional-futbolni-har-tomonlama-rivojlantirishning-qo-shimcha-chora-tadbirlari-to-g-risida



ETNOSPORT VOSITASIDA KASBIY IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY JIHATLARI

Kurbonova Shaxnoza Nimadovna

*Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarini
qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada etnosport vositasida kasbiy ijodkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy jihatlari masalasi muhokama etiladi. Shuningdek, jismoniy madaniyat funksiyalari, uning guruhlari, klassifikatsiyasi, etnosport turlari kabilar yuzasidan masalalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. sport, etnosport, kasbiy ijodkorlik, ijtimoiy omillar, aqliy va jismoniy tarbiya.

СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ТВОРЧЕСТВА ПОСРЕДСТВОМ ЭТНОСПОРТА

Абстрактный. В статье рассматриваются социальные аспекты развития профессионального творчества средствами этноспорта. Также освещаются вопросы, связанные с функциями физической культуры, ее группами, классификацией, видами этноспорта.

Ключевые слова. спорт, этносport, профессиональное творчество, социальные факторы, умственное и физическое воспитание.

SOCIAL ASPECTS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL CREATIVITY THROUGH ETHNOSPORT

Annotation. This article discusses the issue of social aspects of the development of professional creativity through ethnosport. It also discusses issues such as the functions of physical culture, its groups, classification, types of ethnosport, etc.

Keywords. sport, ethnosport, professional creativity, social factors, mental and physical education.

Kirish. Insoniyat hamisha rivojlanishga harakat qilib keladi. Bu intiluvchanlik sivilizatsiyalarga sabab bo‘ladi. Doimo rivojlanish uchun harakatda bo‘lgan insonlar atrofdagilardan ajralib turadi. Jamiyatda bu har doim ibrat sifatida targ‘ib qilinadigan foydali xususiyat. Agar, kishilar shunday yashamaganlarida inson taraqqiyotining hozirgi bosqichiga

erisholmagan bo‘lar edi. Odamlar eng kichik yoshidanoq aqliy va jismoniy yutuqlari bilan o‘zlaridagi ilg‘orlikka intilish sifatlarini tarbiyalaydilar. Jismoniy taraqqiyotga erishish, o‘zidagi imkoniyatni ro‘yobga chiqarish ham harakat natijasida paydo bo‘ladi. Doimiy harakat, ma‘lum istaklarni cheklash natijasida inson aqliy yuksaklikka, jismoniy tezkorlikka va axloqiy fazilatlar mukammalligiga erishadi. Bunga albatta, jamiyatdagi ijtimoiy muhit ham o‘z ta‘siniri ko‘rsatadi. Oilada shunday muhit mavjud bo‘lsa, bu yerda baxtiyorlik, osoyishtalik hukmron bo‘ladi.

Insonlar o‘rtasidagi bellashuvlar, turli o‘yinlar va musobaqalar qadimdan paydo bo‘lgan. Bu bilan har bir kishi o‘z jismoniy qobiliyatlarini namoyon qilganlar. Turli holatlarda o‘zlarining chidamlilik, kuch va quvvatlarini sinab ko‘rganlar. “Jamiyat jismoniy madaniyatining tarkibiy qismi hisoblangan sport tushunchasi yunoncha so‘z bo‘lib, boshlang‘ich manoda “kuch sinashaman”, “musobaqalashaman” degan ma‘noni beradi.”¹ Sport dastlab paydo bo‘lgandan yaqin kunlarga dam olish, zavqlanish, ko‘ngil ochish ob‘yekti sifatida qarab kelingan. Davlat tuzumlari mustahkamlana borgan sayin sportga musobaqalarda g‘alaba qozonish va muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida qarala boshlandi.

Adabiyotlar tahlili. “Jismoniy madaniyat” kategoriyasi ilm-fanga XIX asrda pedagog demokrat A.Disterverg (1821-1899) tomonidan kiritilgan bo‘lsa-da², uning genezisi ibtidoiy davrlarga borib taqaladi. Jismoniy madaniyat insoniyat genezisiga taalluqli ontologik va morfofiziologik jarayonlar bilan bog‘liq muammo sifatida azaldan mavjud. Jismni, vujudni asrash insonni, uning hayotini asrash ekanligini ilk odamlar yaxshi bilishgan. Qadimgi davr bosqichida turmush kechirayotgan qabilalar hayotini o‘rgangan M.Mid ularda sog‘lik, salomatlik, vujudni chiniqtirish, tabiatdagi o‘zgarishlarga moslashtirish, ma‘lum bir jismoniy richual mashqlarni bajarish tarzida kelishini qayd etadi³. Bunday instinktiv munosabat insondagi tabiiy ehtiyoj edi, chunki u yovvoyi tabiat qo‘ynida yashay turib uning salbiy ta‘sirilarini yengishi, o‘z hayotini asrab qolishi kerak edi. Mazkur instinktiv va hayotiy ehtiyoj davrlar o‘tishi, sivilizatsiya ta‘sirida anglangan, maxsus uyushtiriladigan, tarbiyaviy usullar bilan shakllantiriladigan voqelikka aylantirildi.

Insoniyat tomonidan dastlabki jismoniy mashqlarni rivojlanish dinamikasi intuitiv, tartibsiz(turli paytlarda) ko‘rinishlarda vujudga kelgan bo‘lib, kishilar ong va dunyoqarashining rivojlanib borishi bilantartiblashgan, ratsional tarzda tashkil etila boshlagan. Sport mashqlari evolyusiya natijasida tartiblashgan, me‘yor kategoriyalari ishab chiqilgan va avloddan avlodga rivojlantirilib yetkazilmoqda. “Manbalar guvoh beradiki, bundan 50 ming yillar avval jismoniy madaniyatning ilk ko‘rinishlari, jamiyatning iqtisodiy rivojlanishiga muvofiq, tomoshalardagi o‘yin raqs kabilarda uchraydi. Ilk urug‘chilik jamiyatida jismoniy madaniyat muhim ijtimoiy funksiyalardan biri bo‘lgan. Kelgusi taraqqiyot bosqichlarida ham u bolalar va yoshlarni shakllantirishning muhim omili bo‘lib qolgan. Ibtidoiy kishilar urug‘ning chaqqon, u yoki bu

¹Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. –Т.: Zar qalam, 2004. -84 b.

² Дистерверг А. Педагогические сочинения. - Москва: Педагогика, 1957

³Мид М. Культура и детство- Москва. Гл.ред.вост.лит-ры. 1989. с.108-134.

talablariga muvofiq keladigan mashqlarni bajaradiganlar, ov yoki baliq ovi mashqlaridan yaxshi xabardorlar murakkab vaziyatlarda yashab qolishi mumkinligini bilishgan. Bu o‘rinda shamanizm, braxmanizm, totemizm bilan bog‘liq ibtidoiy diniy tasavvurlarga borib taqaluvchi turli marosimlar muhim rol o‘ynagan. Qadimgi odamlar bajaradigan marosimlar ma‘lum bir xatti-harakatlar bilan psixofiziologik bog‘liq edi. Demak, jismoniy mashqlar va ilk jismoniy tarbiya shakllari insoniyatning ilk shakllanish bosqichida hayotiy ehtiyojga aylangan.

Jismoniy madaniyat alohida fenomen, voqelik sifati kelishini biz xalq eposlari, dostonlarida kuzatamiz. “Mahobhorat”dagi Arjuna, “Odissey”dagi Odissey, “Farhod va Shirin”dagi Farhod, “Alpomish”dagi Alpomish xalqlarning jismoniy madaniyati haqidagi tasavvurlarining ifodasidir. Ushbu obrazlardan jismoniy madaniyatning ma‘lum bir modelini keltirib chiqarish mumkin.

Tahlil va natijalar. Insoniyat tarixidajismoniy madaniyati bilan bog‘liq juda ko‘p faoliyat turi “jismoniy” so‘zi bilan boshlanadi. Jumladan, “jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanganlik, jismoniy yetuklik, jismoniy kamolot, jismoniy sifatlar, jismoniy tayyorlanganlik, jismoniy harakat, jismoniy mashq, jismoniy tiklanish (rekreatsiya), jismoniy reabilitatsiya va boshqa shunga o‘xshash qator tushunchalardagi jismoniy so‘zi jismimiz, vujudimizning a‘zolarini bajarayotgan, namoyon qilayotgan jismoniy faoliyatini ifodalaydi”⁴. Insoniyat tafakkuridagi “jismoniy” konsepti odam tanasi faoliyatini ifodalaydi. Mehnat faoliyatining harakat bilan bog‘liq sohalar ham jismoniy layoqatga bog‘liqdir. Ilm-fanning ko‘pgina sohalarida jismoniy so‘zi insonning tana harakati va sifatlariga nisbatan ishlatiladi.

“Biologiya, fiziologiya, tibbiyot fanlari ham shunday xulosadadir. Demak “jismoniy” atamasi inson organizmiga, vujudiga taalluqli, ularning holatini bildiruvchi tushunchadir. Ammo falsafa uchun ushbu organizmning ijtimoiy borliq bilan aloqalari, o‘zining funksional jihatlarini namoyon etishi ham muhimdir”⁵.

“Har bir kishining amalga oshiradigan harakat faoliyati, bajaradigan ishi, jismi, vujudining ma‘lum a‘zolari, tana bo‘laklarining makon(fazo)dagi joyi, o‘rnini almashinuvi orqali sodir bo‘ladi hamda bu jismoniy so‘zi bilan ifodalanadi. Jismoniy so‘zi asosan, tana skeleti mushaklari, bo‘g‘inlar bog‘lovchilarining ishtirokida bajariladigan faoliyatlar – barcha mushaklarning, ularning ayrimlarini yoki bir bo‘lagini, bir necha qismlarini birgalashib namoyon qiladigan faoliyatlarida ko‘rinadi”⁶. Odam jismining qaysi bo‘lagi bo‘lmasin, uni tartibli bir maromda, qaytariluvchi harakatlariga nisbatan jismoniy so‘zi qo‘llaniladi.

“Jismoniy madaniyat shaxs va jamiyat madaniyatining (sohasining), moddiy va ma‘naviy boyliklar yaratish va to‘plash borasidagi vositalari, usullari, inson va jamiyat uchun qadrlil

⁴Абдуллаев А. Жисмоний маданият назарияси ва методикаси. –Фарғона: “Наврўз”, 2017. Б-17.

⁵Зенченков И.П. Исторические основы формирования физической культуры личности // Вестник академии гражданской защиты. 2018. № 1 (13). 24-29

⁶Хонкелдиев Ш., Абдуллаев А. Соғлом турмуш тарзининг жисмоний маданияти. – Фарғона: Фарғона нашриёти, 2010. 228-бет.

bo‘lgan boyliklarning tarkibiy qismidir”⁷. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, jismoniy madaniyat haqidagi ilk tasavvurlar bizga kurash, tosh otish, otda chopish kabilar tasvirlangan qoyalardagi suratlar, marosim qo‘shiqlari, teatrlashtirilgan tomoshalar, arxitektura qurilmalari, stadion, o‘yin maydonlari, milliy o‘yinlar kabilar orqali yetib kelgan.

“Jismoniy madaniyat – jamiyat a‘zolarini jismonan tayyorlash uchun kishilik jamiyati yaratgan va foydalanayotgan moddiy, ma’naviy boyliklar majmuidir. Bunda moddiy boyliklar – mavjud jamiyatning xilma-xil sport inshootlari, maxsus anjomlar, uskunalar, mablag‘lar, jamiyat azolarining jismoniy kamoloti darajasi (sport yutuqlari) demakdir”.

Jismoniy madaniyatda jismoniy yetuklik, quvvat, kuch, g‘ayrat, tetiklik, og‘ir jismoniy mashqlarni bajarishga shaylik ustuvordir. Madaniyat ushbu voqeliklarga insoniylik, axloqiylik, oliyanoblik baxsh etadi. Jismoniylik – o‘zak, madaniylik ushbu o‘zakning sifat belgisi. Ular birgalikda ijtimoiy ahamiyat, shaxs kamolotiga ta’sir etuvchi pozitiv voqelikka aylanadi.

Jismoniy madaniyatning funksional jihatlarini ham ochib berish kerak, aks holda ta’rif to‘liq va obektiv bo‘lmaydi. Mutaxassislar jismoniy madaniyat funksiyalarini ikki guruhga klassifikatsiya qilib tadqiq etishni tavsiya etishadi.

1. O‘ziga xos funksiyalar.

2. Umummadaniy funksiyalar.

“O‘ziga xos funksiyalarga quyidagilar kiradi:

- jismoniy tarbiya;
- sog‘lomlashtiruvchi rekreativ funktsiya;
- musobaqa bellashuv funksiyasi”⁸.

Inson yeyish, ichish va boshqa biologik, fiziologik ehtiyojlarini qondirish uchun ham harakatlar qiladi, ishlaydi, jismoniy mashqlarni bajaradi. Biroq bu tabiiy biologik va fiziologik xatti-harakatlar obyektiv zaruriyat, yashashning sharti, mavjudlik kafolati sifatida keladi. Jismoniy madaniyat bilan shug‘ullanish esa ixtiyoriydir. Unga bo‘lgan ehtiyoj ushbu ixtiyoriylik tamoyiliga asoslanadi.

Jismoniy madaniyat tayanadigan yana bir tamoyil uning ommaviyligidir. Jismoniy madaniyat bilan istagan kishi, hatto keksalar, jismonan kamchiligi bor nogironlar ham shug‘ullanishi mumkin. Mazkur tamoyil tufayli jismoniy madaniyat umumxalq boyligi, xalq salomatligining manbai va inson jismoniy kamoloti belgisi hisoblanadi. Shu bilan birga, shaxsning jismoniy faoliyati davomida ratsional bajariladigan xatti-harakatlario‘z-o‘zini ma’naviy-estetik tarbiyalashi mumkin. Jismoniy mashqlar kundalik faoliyati va hayotining atributi sifatida uning psixofiziologik ehtiyojlariga aylanishi darkor.

“Jismoniy madaniyatning ixtiyoriyligi va ommaviyligi tamoyillari jismoniy tarbiyani inson kamoloti bilan shug‘ullanuvchi ilm-fan sohasiga aylantirgan. Mazkur fanning ikki xususiy tomoni mavjud, ya’ni harakat (harakat faoliyati)ga o‘qitish va jismoniy (harakat)

⁷Юнусова Ю.М. Теоретические основы физической культуры и спорта. - Тошкент:УзГосИФК, 2005. С. 5.

⁸Архипова Л.А. Методика преподавания физической культуры в начальной школе. Учебное пособие. -Тюмень, ТГУ, 2013. С. 13-14.

sifatlarini tarbiyalash”⁹. “Hozirgi kunga kelib, insonning mehnat faoliyati yoki ongli ravishda o‘zi ixtiyoriy ravishda bajaradigan harakatlari (mukshaklari faoliyati)dan biologik quvvat yuzaga kelishi va bu quvvat faqat mushaklar ishi, faoliyati uchungina sarflanmay (oldin faqat mushaklar faoliyati uchun ishlatiladi, degan nazariya mavjud bo‘lgan), ichki a‘zolarimizning faoliyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi M.R.Magendovichning motor visserial reflekslari nazariyasi orqali isbotlandi”.

Sport – insonning ma’lum jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanishi jismoniy harakatlari natijasida biologik “quvvat” paydo bo‘ladi va bu faqatgina mushaklar faoliyati uchun sarflanmay, ruhiy-aqliy qobiliyatlari rivojiga ham o‘zining ijobiy samarasini ko‘rsatadi. Yani jismoniy tarbiyasi yuqori bo‘lmagan, jismoniy harakati kam bo‘lgan bo‘lgan insonlar ruhiy tomondan tushkun kayfiyatda yuradilar, asabiylashish va sog‘lig‘idagi muammolar ularda tez-tez uchrab turadi. Shu sababdan ham “jismoniy tarbiya” fan sifatida dunyo mamalakatlari ta’lim tizimidan o‘rin olgan. Yevropada “uyg‘onish davridan jismoniy tarbiyaga e’tibor kuchaydi. Gumanistlar jismoniy tarbiyani o‘quv dasturiga kiritishga uringanlar.”

Sport insonning jismoniy va ma’naviy kamoloti uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bormoqdaki, bu jamiyatda sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yadi. Ommaviy (ko‘ngilli) sport har bir insonning tashabbus va xohishi asosida bo‘ladigan hamda ko‘pchilik shug‘ullanishni yoqtiradigan minifutbol, futbol, voleybol, basketbol, qo‘l to‘pi, yengil atletikaning yurish, yugurish mashqlari, suzish va boshqa turlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga milliy va etnosport turlarini ham kiritishimiz mumkin. Demak sport kimlar uchundir ko‘ngilxushlik va zavq manbai, kimlar uchundir faoliyat turi hamda o‘z-o‘zini ta’minlash manbaidir.

Umummadaniy funksiyalar jismoniy madaniyatning jamiyat hayoti, inson faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bilan keng bog‘liqligini tasdiqlaydi. Jismoniy madaniyat eng avvalo shaxs faolligini oshiradi, organizm a‘zolarining mutanosib rivojlanishi, yashab qolishi, qarishini sekinlashtiradi. Shu bilan birga uning axloqiy estetik madaniyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, xushchaqchaq yashashiga sabab bo‘ladi. Jismoniy tarbiya jismoniy madaniyatning fundamenti hisoblanadi. Mutaxassislar buni “bazaviy xususiyatga ega komponent”, deb atashadi. Keng ijtimoiy xatti-harakatlar tizimida qaraganda jismoniy madaniyat insonni jamiyat hayotiga tayyorlaydi. Yoshlarni jismoniy tomondan tarbiyalash ularning ijtimoiy-axloqiy faoliyatiga ham ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Eng avvalo, ular belgilangan normalarga qat’iy amal qilishga, do‘stona munosabatga kirisha olishga o‘rganadilar, ijtimoiy adaptivliklari oshadi. Demak, insonning jamiyat va umummadaniy talablarga adaptatsiyasi o‘zidan o‘zi ro‘y bermaydi, ular ma’lum bir mashqlar va ko‘nikmalarni talab etadi. Kishi filogentik rivojlanishini, shakllanishini ana shu uyg‘unlik mahsuli, deyishimiz mumkin.

Xulosa. Sportchi o‘z jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirib borar ekan, uning asosiy maqsadi musobaqalarda qatnashish va raqobatda yutib chiqishdan iborat. Sportchi musobaqalarda o‘z imkoniyatlarini to‘laroq namoyon qilib, barchani hayratda qoldiradi. U o‘z

⁹ Абдуллаев А. Жисмоний маданият назарияси ва методикаси. 1 жилд. - Тошкент: 2018. 20 б.

faoliyati bilan muntazamlilikni, insonlarga yordam berish istagini va umuminsoniy qadriyatlarga xizmat qilishni taklif qiladi. Shu munosabat bilan sport insoniylikni o‘zida namoyon qilib, quvonchli tuyg‘ularni ulashadigan faoliyatdir. Sport insonlardagi mutanosiblik tuyg‘usini rivojlantiradi. O‘yinni shunchaki tomoshaga aylanib qolishining oldini oladi. Musobaqalarda ishtirok etayotgan sportchilar o‘zlarining bor imkoniyatlarini ishga solib, takrorlanmas harakatlarni namoyish qiladilar. Sportchi belgilangan qoidalardan chiqmagan holda hammani lol qoldiradigan ijodkor hamdir. A.F.Losev aytganidek, “sportchi harakati bu shunchaki jismoniy harakat bo‘lmay, balki uning butun borlig‘i “ko‘zgusi”, undagi mavjud barcha sirlarining ochilishi va ifodasidir.

Jismoniy tarbiya yo‘nalishida ma‘naviy qadriyatlarning rivojlanishi, ommalashishi sport yo‘nalishi mustahkamlanishiga olib keldi. Yani, jismoniy tarbiya bilan barcha shug‘ullanishi sport sohasida jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanganlar orasidan saralgan kuchli sportchilarning etishib chiqishiga olib keladi. Bu esa sport orqali ma‘naviy qadriyatlarimizni yoshlar orasida yanada mustahkamlanishi bilan birga, ularga yoshlarning taqlid qilishi asosida yanada rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Керимов Ф.А. Спорт соҳасидаги илмий тадқиқотлар. –Т.: Zar qalam, 2004. -84 б.
2. Дистерверг А. Педагогические сочинения. - Москва: Педагогика, 1957
Gimnastika maydonchasi- gimnastika mashg‘ulotlari o‘tkaziladigan maxsus jihozlanib, ko‘kalamzorlashtirilgan yer uchastkasi. Maydonchaning o‘lchamlari 40x26m. maktab bolalari bilan mashg‘ulot o‘tkaziladigan maydoncha kichikroq(35x25m) bo‘lishi ham mumkin. Bunday maydonchani maktab uchastkasida, stadionda, istirohat bog‘ida yoki aholi turar joylarida tashkil etilishi mumkin. Maydonchada gimnastika shahrchasi quriladi. Shaharcha osilib turuvchi snaryadlarni o‘zida jamlovchi snaryadlar majmui hisoblanadi.

Bolalar gimnastika maydonchasida turli yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan anjomlar ko‘proq bo‘lishi, ular ichida tirmashib chiqish va oshib o‘tish uchun muvozanat saqlash mashqlari, turli o‘yin va estafetalar uchun kerakli jihozlar ham bo‘lishi kerak. Maydoncha atrofida bolalar URMLarni va turli xil mashg‘ulotlarni guruh bo‘lib bajarishlari uchun alohida joy ham bo‘lishi lozim. Madonchaning bu qismining ostki qismi qalin mato yoki yumshoq to‘proq bilan to‘ldirilgan bo‘lishi lozim.

Xulosa. Shunday qilib, gimnastika jismoniy tarbiya vositalari va metodlaridan biri sifatida turli o‘quv-tarbiyaviy davolash muassasalarida va muassasalarda (korxonalar, fabrikalar, zavodlarda) hamda individual mashg‘ulotlarda bolalar, o‘smirlar va kattalarni jismoniy tarbiyalashning, barcha davlat dasturlarining ajralmas qismini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Belova, A. I *Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi*. Tashkent: . 2005yil. O‘qituvchi.
2. Alaverdova, L. P. *Pedagogik metodlar va vositalar*. Tashkent: 2008 yil O‘qituvchi.
3. Qodirova F.R, Toshpo‘latova SH.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.
- Makarov, S. A. *Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun jismoniy faoliyat*. Tashkent: 2012yil. Sharq.
4. Usmanov, R. V*Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasida metodologik yondashuvlar*. Tashkent. 2014 yil.
5. Kazakova, T. I. *Pedagogik psixologiya va bolalar rivoji*. Tashkent:2020yil Orient.
- Sharipov, B. Z. *Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining asoslari*. Tashkent: 2021 yil O‘qituvchi.
6. Qosimov, B., & Raxmonov, D. (2023). GIMNASTIKA MASHG‘ULOTLARINING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA FOYDASI. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(14), 14-18.

7. Qosimov, B., & Raxmonov, D. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNINING GIMNASTIKA MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(13), 196-199.
8. Raxmonov, D., & Qosimov, B. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI ASOSIY VOSITALAR YORDAMIDA SPORTGA TAYYORLASH, MUVOFIQLASHTIRISH VA RIVOJLANISH YO‘NALISHIDAGI GIMNASTIKA. Science and innovation in the education system, 2(7), 30-32.
9. Abdurahmonovna, N. M. (2021). Pedagogical and Psychological Aspects of Professional Sustainability of Future Teachers.
10. Zoirovich, Q. B. (2023). MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNI GIMNASTIKA VOSITALARI ASOSIDA JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH. Journal of Universal Science Research, 1(9),
11. Технологии организации и управления педагогическими процессами С.Тургунов, Л.Максудова. Х.М.Тожибоева Г.М.Назирова 100 2012.
12. Maxfuza Usmanova, THE CONCEPT OF EDUCATIONAL PROFESSIONAL COMPETENCE AND ITS YIELD FACTORS , Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №54.



FUTBOL BO'YICHA BOLALAR O'SMIRLAR SPORT MAKTABLARIDA IQTIDORLI FUTBOLCHILARNI TANLAB Olish

Salayev Toxirbek Kamiljanovich

Ma'mun universiteti o'qituvchisi (PhD)

Salayev Bekzod Kamiljanovich

Osiyo xalqaro universiteti (OXU) magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, millionlar o'yini bo'lgan va mamlakatimizda alohida o'rin tutadigan sportning futbol turiga aholini, ayniqsa yoshlarni keng jalb etish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Yosh futbolchilarni tanlash, saralab olish (seleksiya) tizimi va futbol infratuzilmasini yanada rivojlantirish, futbol bo'yicha sport maktablari faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, soha mutaxassislarini tayyorlash va ularni moddiy rag'batlantirish tizimini yaxshilash kabi masalalar dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: Futbol, sport, mahorat, murabbiy, yuklama, maktab, federatsiya, qobilyat, bolalar.

ОТБОР ТАЛАНТЛИВЫХ ФУТБОЛИСТОВ В ДЕТСКО-ЮНОШЕСКИХ СПОРТИВНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация. В данной статье реализуется ряд мер по формированию физически здорового поколения, привлечению населения, особенно молодежи, к футболу, который является игрой миллионов и занимает особое место в нашей стране. Одной из актуальных задач остается отбор молодых игроков, дальнейшее развитие системы отбора (отбора) и футбольной инфраструктуры, поднятие деятельности футбольных спортивных школ на новый уровень, подготовка специалистов в этой области и совершенствование системы материального стимулирования.

Ключевые слова: Футбол, спорт, мастерство, тренер, скачать, школа, федерация, мастерство, дети.

SELECTION OF TALENTED FOOTBALL PLAYERS IN CHILDREN AND YOUTH SPORTS SCHOOLS IN FOOTBALL

Abstract. In this article, a number of measures are being implemented to create a physically fit generation, to attract the population, especially young people, to football, which is a game of millions and has a special place in our country. Selection of young players, further development of the selection (selection) system and football infrastructure, raising the activity

of football sports schools to a new level, training specialists in the field and improving the system of financial incentives remain one of the urgent tasks.

Keywords: Football, sport, skill, coach, download, school, federation, skill, kids.

Kirish. O‘zbekistonda futbol rivojiga katta ahamiyat berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan oxirgi yillarda bir qator qaror va farmonlar qabul qilindi. 2019-yil 4-dekabrda kunida O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari” to‘g‘risida PF-5887-sonli farmoni qabul qilindi. O‘zbekistonda istiqbolli va iqtidorli futbolchilarni tanlash va saralab olish (seleksiya), ularni professional darajada tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish tizimini o‘z ichiga kompleks chora-tadbirlarni qamrab oladi. Tanlash va saralab olish (seleksiya) jarayonini shartli ravishda havaskor va professional darajalarga ajratish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Yosh sportchilarni sportning o‘yin turlariga tanlash va mo‘ljallash uslubiyatiga bag‘ishlangan sport amaliyoti tajribalari va tadqiqotlar, yangi, ancha samarali uslubiy yo‘llarni topishni talab qiladi. Ma’lumki, sport iqtidori tashhisi, hali o‘z takomillashuvidan juda uzoqdadir. Ayni vaqtda, sport kurashlarida raqobatni oshib borish tendensiyalarini tavsiflovchi, sportni rivojlantirish zamoniviy bosqichlari, ilm-fan oldiga kelgusida sportchilarni tanlash va ularning tayyorgarligini baholash uslubiyatlari samaradorligini oshirish zaruriyati to‘g‘risidagi savollarni keskin qo‘ymoqda. Zamonaviy talablar darajasidagi yuqori sport natijalariga erishish, futbol bilan shug‘ullanish istagidagi har bir bola uchun oson emas. O‘zbekistonning yetakchi futbolchilarining biografiyasini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ular sport yo‘lining avvalida o‘z tengdoshlaridan aniq sifat xususiyatlari bilan ajralib turganlar: yaxshi jismoniy rivojlanish, ancha takomillashgan koordinatsiya harakatlar, fikrlash tezligi va jasurlik. Bunday sifatlar saqlanib qolgan va futbolchining kelgusi sport takomillashuv faoliyatida maqsadga intilish, mehnatsevarlik, qat’iyat va matonatni muntazam tarbiyalash bilan uyg‘unlashib yuqori natijalarga erishilariga zamin yaratgan.

Tahlil va natijalar. Shuning uchun futbol bilan shug‘ullanish uchun bolalarni tanlash mumammolarini, bolaning harakat, funksional va ruhiy faoliyatining turli tomonlarini, ularning sport mahoratini shakllantirish jarayonidagi mustaqil rivojlanish xususiyatlarini to‘liq o‘rganmasdan hal qilib bo‘lmaydi. Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, tanlash – bu bir lahzalik sinov emas, balki tadqiqotning pedagogik, psixologik, tibbiy-biologik uslubiyatlarini qo‘llash bilan futbolchilarni sport takomillashuvini turli bosqichlarda amalga oshirish tadbirlarini ko‘p qirraliligini nazarda tutuvchi qat’iy o‘ylangan ko‘p bosqichli tizimdir.

Pedagogik uslubiyatlar yosh futbolchilarning sport mahorati xususiyatlarini aniqlash, kuch, tezkorlik, chidamkorlik, epchillik kabi sifatlarni rivojlanish darajasi va ularning o‘zaro aloqasini o‘rganishga imkon beradi

Ilgari tanlov mohiyatiga ko‘ra, bolalar maydonchasida eng epchil bolalarni “topishdan” iborat bo‘lgan. Ancha yuqori darajadagi mashg‘ulotlarga, futbolga o‘yinchilar layoqatini belgilashda, shu sohaga oid ilmiy tadqiqot natijariga tayanish maqsadga muvofiq. Demak,

yuqori mahoratga erishishga qobiliyatlilarni topish zarur yoki o‘rtacha qobiliyatli o‘yinchilardan (ular juda puxta tayyorlanganda ham) takomillashuvga faqat yagonalargina erishadilar.

Tanlov uchun mos keladigan yoshni aniqlash juda muhim. Tajribalardan kelib chiqib, sport maktablariga tanlovni 9 -10 yoshdan boshlash kerak. Bolalar bu yoshda, nafas olish sistemasi, qon aylanish organlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarda ishtirok eta oladilar. Futbolchilar 9-10 yoshda o‘g‘il bolalarda asab tizimi shunchalik rivojlangan bo‘ladiki, ular futboldagi barcha asosiy harakatlarni o‘zlashtirishga qodir bo‘ladilar. Charm to‘pning haqiqiy ustasini tarbiyalash uchun 8-10 yillik mashg‘ulotlar talab qilinganligi tufayli, o‘g‘il bolalar bilan mashg‘ulot ishlarini 9-10 yoshdan boshlash maqsadga muvofiq.

Ammo tanlov ishlari 9-10 yoshda albatta to‘xtab qolmaydi. Yuqori darajadagi o‘yinga qobiliyatni aniqlash uchun anchagina ko‘p vaqt talab qilinadi. Yosh o‘yinchilarning ruhiy jismoniy sifatleri katta o‘zgarishlarni boshdan kechiradi. 10 yoshli bola keyinchalik nimalarga qodir, u qanday ishchanlik qobiliyatiga ega bo‘ladi, qanchalik o‘sadi, bularni biz yaqinroq ham aniqlay olmaymiz. O‘smirlik davrida bola ruhiyatida kutilmagan va juda katta o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Lekin tanlashda, faqat ayni paytdagi bolaning jismoniy tayyorgarligi qanday, texnik tayyorgarlikka egami, uning tana va fiziologik ko‘rsatkichlari parametrlari qanday ekanligini belgilash mumkin. Albatta, bola katta yoshga kirganida kim bo‘lishi haqida jiddiy xulosalar chiqarish mumkin emas. Shuning uchun, tanlov bolalikni tugashigacha taxminan 10 yoshdan boshlanib uzoq davom etuvchi jarayon bo‘lishi lozim.

Tanlovning birinchi bosqichi, qabul sinovlari vaqtida sodir bo‘ladi. Aniq testlar asosida futbolga qobiliyatli bolalar tanlab olinadi va layoqatsizlar saralanadi.

Ikkinchi bosqich – qabul sinovlarini muvaffaqiyatli uddalaganlar ichidan eng yaxshilarini tanlash. U aniq testlarga qaratilgan mashg‘ulotlar davomida uzoq kuzatuvlar asosida o‘tkazadilar.

Uchinchi bosqichda yuqori mahoratga erishishga qobiliyatli futbolchilar aniqlanadi. Odatda ular, sport maktablarida shug‘ullanuvchilar yoki turli futbol klublarida ishtirok etuvchi yosh sportchilardir. Tanlov jarayonida quyidagi jihatlarni e‘tiborga olish lozim:

Fiziologik jihatlar, avvalo, futbolchilarning fiziologik ko‘rsatkichlarini aniqlaydi. Hamma bolalar qabul sinovlarigacha umumiy tibbiy ko‘rikdan o‘tadilar. Kimki qabul sinovlaridan o‘tib sport maktabiga qabul qilingan bo‘lsa, muntazam tibbiy ko‘rikdan o‘tib boradilar. Hozirgi paytgacha bizga ko‘p sonli guruhlarining katta tekshiruvini o‘tkazish mumkin bo‘lgan ko‘rik uslubi ma‘lum emas. Muammo shundan iboratki, zamonaviy tibbiy ko‘rikda faqatgina kim sog‘lomligini va sportga loyiqligini aniqlash mumkin. Lekin, bu hali fiziologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha futbolga loyiq degan javob emas.

Antropometrik jihatlar. Jismoniy tuzilishi bo‘yicha futbolga moslashuv savollari hali juda kam o‘rganilgan. Amaliy kuzatuvlar asosida quyidagilarni hulosa qilish mumkin, tanlovda jismoniy tuzilish hal qiluvchi hisoblanmaydi. Ammo bo‘y, ko‘krak qafasi aylanasi, bo‘lsa hajmi kabi antropometrik ko‘rsatkichlarni e‘tiborga olish lozim. Maktabga kabul qilinuvchining tana tuzilishi juda muxim. Kuzatuvlardan ma‘lum bo‘ldiki, jismonan kuchli, baquvvat tana

tuzilishiga ega bolalar yuklamalarni ancha yengil o‘tkazadilar va musobaqalarda yaxshi ishtirok etadilar. Lekin, bundan jismoniy rivojlanishi o‘rtacha yoki kuchsiz bolalar kuchli sport ustalarigacha o‘smaydi degan hulosasi chiqarish mumkin emas.

Psixologik, pedagogik jihatlar. Tanlovda bola xarakteriga xos bo‘lgan, uning aqliy qobiliyatlariga katta ahamiyat beriladi. Tajribalar, birinchi navbatda aqlli va irodasi kuchli o‘g‘il bolalarni qabul qilish kerakligini tasdiqlaydi.

Jismoniy rivojlanish jihatlari. Ayni paytda, yugurishda yuqori tezkorlikka va katta chidamkorlikka ega futbolchilar kerak. Shuning uchun, qabul imtihonlarida futbol uchun zarur jismoniy ma‘lumotlarni aniqlashga katta ahamiyat beriladi.

Texnik tayyorgarlik jihatlari. Sport maktablari qabul sinovlariga, yetarli darajada texnik ko‘nikmalarga ega bo‘lmagan qobiliyatli bolalar juda ko‘p keladi. Bunday vaziyatlarda, murabbiyga kelgusida shunday bolalar bilan ish olib borish mumkinligini tezkor aniqlash juda qiyin. Hozirgi paytda, sport maktablariga qabul sinovlari asosida qabul qilinadi. Odatda sport maktablari yon atrofdagi, uning ta’sir doirasidagi hududlarni qamrab olishga harakat qiladi. Lekin hozirga qadar, ko‘p sonli bolalar ichida tanlovni amalga oshirish uchun sport maktablari qabul sinovlariga barcha bolalarni jalb qilishning ilojisi bo‘lmadi. 6-14 yoshli bolalar umum ta’lim maktablariga boradilar, demak tanlovni tashkil qilish ishlarini shundan kelib chiqib amalga oshirish maqsadga muvofiq. Shuning uchun, tanlov asosan maktablarda o‘tkazilishi lozim. Aynan shu maqsadda mamlakatni shartli uchastkalarga bo‘lish lozim. Eng kichik tanlov birligi, boshlang‘ich maktablarda va shu yerdan keyingi qadamlar boshlanadi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, yosh sportchilarni tanlash muammolari, bir qator tadqiqot uslubiyatlarini qo‘llash asnosida kompleks hal qilinishi lozim. Tadqiqotning pedagogik uslubiyati, yosh sportchilarni jismoniy sifatlari, koordinatsiya qobiliyati va sport-texnik maxoratini rivojlanish darajasini baholashga yordam beradi.

To‘g‘ri tanlov uchun, murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarisining sport seksiyalari, maktab, tuman, shahar musobaqalarida va nazorat sinovlarini o‘tkazishdagi kuzatuvlari juda muhim ahamiyatga ega. Maktab jismoniy tarbiya darslarini o‘tkazish doirasida sport maktabiga kirish uchun bolalarni dastlabki tayyorgarligini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Maxsus vositalarni tanlash bilan, yosh o‘quvchilarda u yoki bu sport turi bilan shug‘ullanish uchun qobiliyatlarni shakllantirishga maqsadli ta’sir ko‘rsatish va shu asosda aniq tur bo‘yicha mo‘ljallashni o‘tkazish mumkin.

Bolalar va o‘smirlarning individual qobiliyatlarini baholash, ularning futbolga loyiqqligini va istiqbolini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar kompleksiga tayangan bo‘lishi kerak. Tanlov jarayonida shaxsniy muhim sifatlari holatidan kelib chiqib, har bir o‘smir kanday o‘zgarayotganiga e’tibor bermaslikni iloji yo‘q. Tanlov samaradorligi ko‘p jihatdan futbol mashg‘ulotga layoqat, qobiliyatlarni bashorat qilish uslubiyatlari va albatta uslubiyatlarning bashorat qiymati ishochliligiga bog‘liqdir. Bundan kelib chiqadi, har bir uslubiyat aniq sifatlarni tavsiflashi kerak.

Deyarli barcha bolalar futbolga loyiqligiga qaramay, ularning deyarli har biri o‘yin asoslarini o‘zlashtirish holatida mashg‘ulotlarga jiddiy munosabatga kelganda, xammasi ham futbolni o‘rganishda yuqori iste’dod va iqtidorni namoyon eta olmaydi, o‘yin vaziyatlarida yetarli darajada kurashuvchanlik va beqarorlikni ko‘rsatadilar. Sport maktablarining o‘quv-mashg‘ulot guruhlari va sport takomillashuv guruhlariga birinchi o‘quv yiliga qabul uchun ishlab chiqilgan qabul me‘yorlari, kelgusida futbol bilan shug‘ullanish uchun samarali tanlov o‘tkazishga yordam beradi.

Biz olgan ma’lumotlarni, yosh futbolchilar mashg‘ulot jarayonida qo‘llanilishi ishonchli natijalarni beradi va sport ontogenez bosqichida sport mashg‘uloti tuzilishiga o‘zgartirishlar kiritishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda shuni aytib o‘tish kerakki, sportning o‘yin turlariga tanlov va bashoratni 8-10 yoshdan boshlash maqsadga muvofiq. Sport mo‘ljali tizimiga jalb qilingan bolalar yoshini pasaytirish, tanlov sifatini yaxshilashga va shu bilan birga o‘quv-mashg‘ulot jarayonini samaradorligini oshirishga imkon beruvchi haqiqiy yutuqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri, 2015 yil 4 sentyabr).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.12.2019 yildagi PF-5887-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sport maktablari faoliyatini hamda sport maktablari trenerlari va mutaxassislari mehnatini moddiy rag‘batlantirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori. 2010 yil 23 sentyabr.
4. R.S.Salomov. Sport mashg‘ulotining nazariy asoslari. Toshkent – 2005
5. Акрамов Р.А. Игровые и тренировочные нагрузки в футболе. Учебное пособие. Т., -2002 36-стр

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



JISMONIY MADANIYAT
PHYSICAL CULTURE

TURKIY XALQLAR MILLIY O‘YINLARINING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI.

Talipjonov Alijon Akramovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat kafedrası professori.

Elektron pochta: alidjantalipdjanov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Turkiy xalqlarning an'anaviy o'yinlarining pedagogik jihatlarini tahlil qiladi. Milliy o'yinlar tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lib, yosh avlodni jismoniy, ma'naviy va intellektual rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Maqolada an'anaviy o'yinlarni ta'lim tizimiga integratsiya qilishning ahamiyati, ularning globalizatsiya davrida saqlanishi, raqamlashtirilishi va yoshlar orasida ommalashishi bo'yicha amaliy takliflar keltirilgan. Shuningdek, milliy o'yinlarning pedagogik xususiyatlari, jismoniy va ijtimoiy tarbiya uchun foydasi hamda ta'lim tizimiga qo'shilishi kerak bo'lgan innovatsion usullar to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Turkiy xalqlar, an'anaviy o'yinlar, pedagogik tarbiya, jismoniy tarbiya, milliy o'yinlar, madaniyat.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ И РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИГР ТУРЕЦКИХ НАРОДОВ

Аннотация: В статье анализируются педагогические аспекты традиционных игр тюркских народов. Национальные игры имеют историческое и культурное значение и вносят значительный вклад в физическое, духовное и интеллектуальное развитие подрастающего поколения. В статье представлены практические предложения по важности интеграции традиционных игр в систему образования, их сохранения, оцифровки и популяризации среди молодежи в эпоху глобализации. В статье также рассматриваются педагогические особенности национальных игр, их преимущества для физического и социального воспитания, а также инновационные методы, которые следует внедрить в систему образования.

Ключевые слова: тюркские народы, традиционные игры, педагогическое образование, физическое воспитание, национальные игры, культура.

ORIGIN AND DEVELOPMENT OF NATIONAL GAMES OF THE TURKISH PEOPLES

Abstract: The article analyzes the pedagogical aspects of traditional games of the Turkic peoples. National games have historical and cultural significance and make a significant contribution to the physical, spiritual and intellectual development of the younger generation. The article presents practical proposals on the importance of integrating traditional games into the education system, their preservation, digitization and popularization among young people in the era of globalization. The article also discusses the pedagogical features of national games, their advantages for physical and social education, as well as innovative methods that should be introduced into the education system.

Keywords: Turkic peoples, traditional games, pedagogical education, physical education, national games, culture.

Kirish

Milliy o‘yinlar har bir xalqqa xos bo‘lgan tarixiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi. Turkiy xalqlarning an‘anaviy o‘yinlari ularning tarixi, madaniyati va falsafasining ajralmas qismidir. Bu o‘yinlar nafaqat jismoniy faollikni oshirish, balki yoshlarning ma‘naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishida ham muhim o‘rin tutadi.

Ushbu maqola Turkiy xalqlarning an‘anaviy o‘yinlarining pedagogik ahamiyatini, ularni zamonaviy ta‘lim tizimiga integratsiya qilishni va globalizatsiya jarayonida bu o‘yinlarni saqlash va rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflarni o‘rganishga qaratilgan. Milliy o‘yinlarning pedagogik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish orqali, ularning nafaqat o‘quvchilarning jismoniy, balki ma‘naviy tarbiyasidagi o‘rni ham yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

An‘anaviy o‘yinlar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar, asosan, o‘yinlarning tarixiy rivojlanishi, madaniy merosi va pedagogik jihatlarini o‘rganishga qaratilgan. O‘yinlarning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati, ayniqsa, ularning jamiyatdagi ijtimoiy roli va tarbiyaviy qiymati ko‘plab ilmiy ishlar asosida o‘rganilgan.

Ba‘zi tadqiqotlarda milliy o‘yinlarning yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish, ijtimoiy muammolarni hal qilishda samarali vosita sifatida ishlatilishi ko‘rsatilgan. Boshqa tadqiqotlarda esa, an‘anaviy o‘yinlarning jismoniy faollikni oshirish va intellektual rivojlanishga ta‘sirini o‘rganishadi. Shuningdek, milliy o‘yinlarning tarbiyaviy xususiyatlari, ularning o‘quvchilarda kooperatsiya va jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berishdagi o‘rni ham ta‘kidlangan.

Ushbu maqolada quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

Tahliliy metod: Turkiy xalqlarning an‘anaviy o‘yinlarining tarixiy, madaniy va pedagogik ahamiyatini tahlil qilish.

Empirik metod: O‘quvchilar orasida an‘anaviy o‘yinlarning ta‘sirini o‘rganish uchun so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazish.

Deskriptiv metod: An‘anaviy o‘yinlarni pedagogik jihatdan tavsiflash va ularni ta‘lim tizimiga integratsiya qilish uchun takliflar ishlab chiqish.

Natijalar va Muhokama

Milliy o‘yinlarning pedagogik jihatlari

Milliy o‘yinlar nafaqat jismoniy faollikni oshiradi, balki yoshlarni ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy jihatdan ham rivojlantiradi. Ular orqali o‘quvchilar kooperatsiya, jamiyatga moslashish, o‘zaro yordam va hurmat kabi qadriyatlarni o‘rganadilar. O‘yinlar, shuningdek, ijtimoiy mas’uliyatni, mashaqqatli mehnatni qadrlashni va o‘zgarishga tayyor bo‘lishni o‘rgatadi.

Bundan tashqari, milliy o‘yinlar yoshlar orasida sog‘lom raqobatni rivojlantirishga ham yordam beradi. Bu o‘yinlar orqali o‘quvchilar o‘zlarining kuchi va imkoniyatlarini sinab ko‘radilar, bu esa ularni jismoniy va ruhiy jihatdan mustahkamlaydi. O‘yinlar orqali jismoniy faollikni oshirish bilan birga, yoshlarni stressni boshqarishga, qat’iyatlilikka va mustahkam irodaga o‘rgatish mumkin.

Milliy o‘yinlarni ta’lim tizimiga integratsiya qilish

Milliy o‘yinlarni ta’lim tizimiga integratsiya qilish, ayniqsa, yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir qiladi. O‘quvchilarga an'anaviy o‘yinlar orqali tarixiy va madaniy merosni o‘rgatish, ularning zamonaviy ta’lim jarayoniga moslashishiga yordam beradi. O‘yinlarni o‘quv dasturlariga kiritish orqali o‘quvchilar milliy qadriyatlarni nafaqat nazariy, balki amaliy tarzda ham o‘rganadilar.

An'anaviy o‘yinlarning ta’lim tizimida qo‘llanishi o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, ijtimoiy kooperatsiya va ishlashni o‘rgatishning samarali vositasi bo‘ladi. Shuningdek, o‘yinlar orqali o‘quvchilar jamiyatda o‘z o‘rnini topishda yordam beradigan ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradilar.

Milliy o‘yinlarni saqlash va rivojlantirish

Milliy o‘yinlar globalizatsiya va zamonaviy texnologiyalar ta'sirida yo‘qolib ketishi xavfi mavjud. Shuning uchun, ularni saqlash va rivojlantirishga qaratilgan choratadbirlar kerak. O‘yinlarni raqamlashtirish va virtual platformalarda ommalashtirish, an'anaviy o‘yinlarni yoshlar orasida yanada kengroq tarqatish imkoniyatini yaratadi.

O‘yinlarni saqlash va rivojlantirish uchun, ular asosida yangi metodlarni ishlab chiqish zarur. O‘yinlarni ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganish, yangi texnologiyalar yordamida ularni takomillashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

Innovatsion yondoshuvlar

Milliy o‘yinlarni yoshlar orasida ommalashtirish uchun innovatsion yondoshuvlar kerak. Interaktiv texnologiyalar yordamida an'anaviy o‘yinlarni yangi shakllarda taqdim etish, o‘quvchilarga yangi usullar bilan o‘rgatish imkoniyatlarini yaratadi. Bu, o‘z navbatida, yoshlarni ma'naviy va jismoniy jihatdan rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa

Turkiy xalqlarning an'anaviy o‘yinlari tarix, madaniyat va pedagogika nuqtai nazaridan juda muhimdir. Ular nafaqat jismoniy faollikni oshiradi, balki yoshlarni ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy jihatdan rivojlantiradi. Milliy o‘yinlarni ta'lim tizimiga integratsiya qilish, ularni saqlash va rivojlantirish hozirgi zamonda eng dolzarb muammolardan biridir.

An'anaviy o'yinlarni raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalar yordamida rivojlantirish va yoshlar orasida ommalashtirish bu o'yinlarning kelajak avlodlarga etib borishini ta'minlaydi. Bu jarayonda pedagoglar, ilmiy xodimlar va jamiyatning faol ishtiroki kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Nazirjonovich, Khatamov Zafarjon, and Akhmedov Muhammadjon. "DEVELOPMENT OF TECHNICAL AND TACTICAL SKILLS OF HIGHLY QUALIFIED BOXERS BASED ON AN INNOVATION CLUSTER." *Лучшие интеллектуальные исследования* 11.2 (2023): 76-85.
2. Khatamov, Zafarjon. "METHODOLOGICAL JUSTIFICATION OF THE MAIN DIRECTIONS OF IMPROVING PHYSICAL EDUCATION OF HIGHER EDUCATION STUDENTS." *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi* 6 (2023): 811-818.
3. Nazirjonovich, Khatamov Zafarjon. "Formation of Psychological and Pedagogical Problems Through Sports Motivation." *European Journal of Economics, Finance and Business Development* 1.9 (2023): 31-39.
4. Nazirjonovich, Khatamov Zafarjon. "Pedagogical Methods and Conditions for the Innovative Formation of Motivation of Young Handball Players." *European Journal of Economics, Finance and Business Development* 1.9 (2023): 13-22.
5. Nazirjonovich, Khatamov Zafarjon. "Pedagogical Aspects of Forming Sports Motivation." *European Journal of Economics, Finance and Business Development* 1.9 (2023): 23-30.
6. Nazirjonovich, Khatamov Zafarjon, Boltaboev Hamidullo Khabibullovich, and Akhmedov Mukhammadjon. "MEANS OF PHYSICAL CULTURE THAT ENSURE THE STABILITY OF HUMAN PHYSICAL PERFORMANCE." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 10.3 (2023): 136
7. Хатамов, Зафарджон Назирджонович, Хамидулло Хабибуллоевич Болтабоев, and Мухаммаджон Ахмедов. "ВАЖНОСТЬ АКРОБАТИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ ПРИ ПОДГОТОВКЕ ФУТБОЛИСТОВ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 10.3 (2023): 142-148.
8. Хатамов, Зафарджон Назирджонович, Хамидулло Хабибуллоевич Болтабоев, and Мухаммаджон Ахмедов. "ПОВЫШЕНИЕ УДЕЛЬНОЙ СКОРОСТИ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ СТУДЕНТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ДЕЯТЕЛЬНЫХ ИГР." *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi* 10.3 (2023): 130-135.
9. Nazirjonovich, Khatamov Zafarjon. "Theoretical foundations of training volleyball players sports techniques of volleyball in youth shoes." *Open Access Repository* 9.9 (2023): 125-129.
10. Nazirjonovich, Xatamov Zafarjon, and Inomov Faxriddin o'rmonjonovich. "Physical

Education In Higher Educational Institutions Problems Of Formation Of Professional Skills On The Basis Of Science And Practice Ytegration In The Training Of Teaching Staff." *Journal of Positive School Psychology* (2023): 870-876.

11. Akramovich, Alikulov Akmal, and Yakubjonova Feruzakhon Ismoilovna. "Xatamov Zafar Nazirjonovich." *Technologies for developing of future physical education teachers through media education tools.* *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL* 11 (2021): 885-890.

12. Nazirjonovich, Khatamov Zafarjon. "Improving endurance from physical qualities in student youth." *Open Access Repository* 9.9 (2023): 115-118.

13. Nazirjonovich, Khatamov Zafarjon. "The role of modern pedagogical technologies in the development of the science of pedagogy." *Open Access Repository* 9.9 (2023): 103-108.

14. Arabboyev, Qahramon. "MADANIY ME'ROSLARIMIZDA JISMONIY TARBIYA MASALALARI." *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi* 6 (2023): 643-648.

15. АРАББОЕВ, ҚТ. "жисмоний тарбия дарсларида талабалар ўқув-спорт фаоллигини оширишда шахсга йўналтирилган таълим турларининг ўрни." *ФАН-СПОРТГА Учредители: Узбекский государственный университет физической культуры и спорта* 6: 68-71.

16. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS IN STUDENT ACTIVITY AND LIFESTYLE." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.09 (2023): 58-63.

17. Tokhirzhonovich, Arabboev Kakhramon. "THE EFFECT OF PHYSICAL ACTIVITY ON THE BODY OF SCHOOLCHILDREN IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.12 (2023): 112-115.

18. Abdullaevich, Ziyaev Abdurahmon, and Murotaliyeva Musharraf. "KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA TABAQALI YONDASHGAN HOLDA JISMONIY TARBIYA FANINI O'RGANISHDA UZVIYLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY* (2024): 98-102.

19. Abdullaevich, Ziyaev Abdurahmon. "SPORT BILAN MUNTAZAM SHUG'ULLANISHNING BOLALAR VA O'SMIRLAR YURAGINING HAJMIGA HAMDA ARTERIAL QON BOSIMIGA TA'SIRI." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY* (2024): 313-317.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



JISMONIY MADANIYAT
PHYSICAL CULTURE

JISMONIY TAYYORGARLIK - MILLIY GVARDIYA XODIMLARI TOMONIDAN XIZMAT OLIB BORISHDA JANGOVAR TAYYORGARLIKNING ASOSIY ELEMENTI

Usmonov Suxrob Mexriddin o‘g‘li

Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Milliy gvardiya xodimlarining xizmat faoliyati, ularning jismoniy tayyorgarlik darajasi bilan bevosita bog‘liqdir. Jismoniy tayyorgarlik, har qanday harbiy yoki huquqni muhofaza qilish organlari uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu xodimlarning jangovar tayyorgarlik darajasini belgilaydi. Jismoniy tayyorgarlik, nafaqat jismoniy kuch va chidamlilikni oshirish, balki psixologik barqarorlik va ruhiy holatni mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada Jismoniy tayyorgarlik - Milliy gvardiya xodimlari tomonidan xizmat olib borishda jangovar tayyorgarlikning asosiy elementi va ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy gvardiya xodimlari, jismoniy tayyorgarlik, jarohat, harakat, jamoaviy tayyorgarlik, jangovar vaziyatlar, kuch, chidamlilik.

Аннотация: Служебная деятельность личного состава Национальной гвардии напрямую связана с уровнем его физической подготовки. Физическая подготовка важна для любого военного или правоохранительного органа, так как определяет уровень боеготовности личного состава. Физическая подготовка играет важную роль не только в увеличении физической силы и выносливости, но и в укреплении психологической устойчивости и психического состояния. В данной статье представлена информация о физической подготовке - основном элементе и значении боевой подготовки на службе у личного состава Национальной гвардии.

Ключевые слова: личный состав Национальной гвардии, физическая подготовка, травма, движение, командная подготовка, боевая ситуация, сила, выносливость.

Abstract: The service activity of National Guard personnel is directly related to their level of physical training. Physical fitness is important for any military or law enforcement agency, as it determines the level of combat readiness of the personnel. Physical training plays an important role not only in increasing physical strength and endurance, but also in strengthening psychological stability and mental state. This article provides information on Physical Fitness - the basic element and importance of combat training in service by National Guard personnel.

Key words: National Guard personnel, physical training, injury, movement, team training, combat situations, strength, endurance.

KIRISH

Milliy gvardiya xodimlari, o‘z vazifalarini bajarishda turli xil holatlarda tez va samarali harakat qilishlari kerak. Jismoniy tayyorgarlik, shuningdek, xodimlarning jangovar vaziyatlarda o‘zini tutishi, tezkor qarorlar qabul qilishi va zarur bo‘lganda shoshilinch harakatlar amalga oshirishi uchun zarurdir. Jismoniy tayyorgarlik, shuningdek, jarohatlanish xavfini kamaytiradi va xodimlarning xizmat davomida sog‘lig‘ini saqlashga yordam beradi. Jismoniy tayyorgarlik jarayoni, birinchi navbatda, umumiy jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan. Bu, kuch, chidamlilik, tezlik, moslashuvchanlik va koordinatsiyani o‘z ichiga oladi. Milliy gvardiya xodimlari uchun jismoniy tayyorgarlik dasturlari, ularning xizmat vazifalariga mos ravishda ishlab chiqilgan bo‘lishi kerak. Bunday dasturlar, jismoniy tayyorgarlikning barcha asosiy jihatlarini qamrab olishi va xodimlarning individual xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

ADADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Jismoniy tayyorgarlikning yana bir muhim jhati, jamoaviy tayyorgarlikdir. Milliy gvardiya xodimlari, ko‘pincha jamoa sifatida harakat qilishadi, shuning uchun ularning bir-biriga bo‘lgan ishonchi va hamkorlik qobiliyati ham jismoniy tayyorgarlik jarayonida rivojlantirilishi kerak. Jamoaviy tayyorgarlik, xodimlarning bir-birini qo‘llab-quvvatlashini, muammolarni birgalikda hal qilishini va vazifalarni samarali ravishda bajarishini ta‘minlaydi. Jismoniy tayyorgarlik, shuningdek, ruhiy tayyorgarlik bilan chambarchas bog‘liqdir. Jangovar vaziyatlarda xodimlar, nafaqat jismoniy jihatdan tayyor bo‘lishlari, balki psixologik jihatdan ham tayyor bo‘lishlari kerak. Ruhiy tayyorgarlik, stressga qarshi kurashish, tezkor qarorlar qabul qilish va jamoa bilan birgalikda harakat qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Milliy gvardiya xodimlari uchun ruhiy tayyorgarlik dasturlari, stressni boshqarish, psixologik barqarorlikni oshirish va ruhiy salomatlikni saqlashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Jismoniy tayyorgarlik dasturlari, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va usullarni o‘z ichiga olishi kerak. Sport turlari, fitness dasturlari va zamonaviy trening usullari, Milliy gvardiya xodimlarining jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, jismoniy tayyorgarlik jarayonida monitoring va baholash tizimlari ham muhimdir. Xodimlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini doimiy ravishda baholash, ularning o‘sishini va rivojlanishini kuzatishga yordam beradi.[1]

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Milliy gvardiya xodimlarining jismoniy tayyorgarlik darajasi, ularning xizmat faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi. Jismoniy tayyorgarlik, xodimlarning jangovar tayyorgarlik darajasini oshirish, ruhiy barqarorlikni ta‘minlash va jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Milliy gvardiya xodimlari uchun jismoniy tayyorgarlik dasturlari, ularning xizmat vazifalariga mos ravishda ishlab chiqilishi va zamonaviy usullarni o‘z ichiga olishi kerak. Jismoniy tayyorgarlik, Milliy gvardiya xodimlarining professional

tayyorgarlik jarayonining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim. Ularning jismoniy tayyorgarlik darajasi, nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki butun tizimning samaradorligi uchun ham muhimdir. Shuning uchun, Milliy gvardiya xodimlarining jismoniy tayyorgarlik dasturlari, ularning ehtiyojlari va xizmat vazifalariga mos ravishda doimiy ravishda yangilanib turishi zarur.[2]

Jismoniy tayyorgarlikda sportning turli turlari, masalan, yugurish, suzish, to‘plar bilan o‘yinlar, jangovar san'atlar va boshqa jismoniy faoliyatlar muhim o‘rin tutadi. Bu sport turlari, xodimlarning jismoniy holatini yaxshilash, kuch va chidamlilikni oshirish, shuningdek, muvozanat va koordinatsiyani rivojlantirishga yordam beradi. Bunday mashg‘ulotlar, shuningdek, ruhiy holatni mustahkamlashda ham muhim ahamiyatga ega. Jismoniy tayyorgarlik dasturlari, shuningdek, individual yondashuvni talab qiladi. Har bir xodimning jismoniy tayyorgarlik darajasi, sog‘liq holati va individual xususiyatlari turlicha bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, jismoniy tayyorgarlik dasturlari, har bir xodimning ehtiyojlariga mos ravishda ishlab chiqilishi va shaxsiy maqsadlarni hisobga olishi zarur. Bu, xodimlarning motivatsiyasini oshirish va ularni o‘z maqsadlariga erishishga undashda muhim rol o‘ynaydi.[3]

Jismoniy tayyorgarlik jarayonida, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash ham muhimdir. To‘g‘ri ovqatlanish, yetarli uyqu va stressni boshqarish, jismoniy tayyorgarlik jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Milliy gvardiya xodimlari, o‘z sog‘lig‘ini saqlash va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish uchun sog‘lom turmush tarzini qabul qilishi zarur. Bu, ularning xizmat faoliyatida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi. Jismoniy tayyorgarlik jarayoni, shuningdek, doimiy ravishda yangilanib turishi kerak. Zamonaviy texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlar, jismoniy tayyorgarlik dasturlarini yanada samarali va zamonaviy qilish imkonini beradi. Milliy gvardiya xodimlari, jismoniy tayyorgarlik jarayonida yangi metodlarni va usullarni qo‘llash orqali o‘z maqsadlariga erishishda yanada muvaffaqiyatli bo‘lishlari mumkin.[4]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tayyorgarlik - Milliy gvardiya xodimlari tomonidan xizmat olib borishda jangovar tayyorgarlikning asosiy elementi hisoblanadi. Ularning jismoniy va ruhiy tayyorgarlik darajasi, xizmat davomida muvaffaqiyatga erishishlariga, stressga qarshi kurashishlariga va jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishlariga yordam beradi. Milliy gvardiya xodimlarining jismoniy tayyorgarlik dasturlari, zamonaviy texnologiyalar va usullarni o‘z ichiga olishi, doimiy ravishda baholanishi va yangilanib turishi kerak. Bu jarayon, nafaqat xodimlarning professional rivojlanishi, balki butun tizimning samaradorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев А. (2020). «Физическая подготовка и ее значение». Ташкент: Издание Государственного университета физического воспитания и спорта Узбекистана.

2. Кадыров М. (2019). «Боевая подготовка личного состава Национальной гвардии». Самарканд: Издание Самаркандского государственного университета.
3. Каримов С. (2021). «Физическая подготовка и здоровый образ жизни». Бухара: Издание Бухарского государственного университета.
4. Турсунов Р. (2022). «Национальная гвардия и физическая подготовка: проблемы и решения». Ташкент: Издание Национальной гвардии Республики Узбекистан.
5. Мирзаев Д. (2018). «Боевая подготовка и физическое воспитание». Фергана: Издание Ферганского государственного университета.
6. Расулов, Э. (2020). «Физическая подготовка: теория и практика». Андижан: Издание Андижанского государственного университета.
7. Худойбердиев А. (2021). «Уровень физической подготовки личного состава Национальной гвардии». Кашкадарья: МВД по Кашкадарьинской области.
8. Абдуллаева Н. (2019). «Физическая подготовка и ее психические аспекты». Наманган: Издание Наманганского государственного университета.
9. Саторов О. (2022). «Физическая подготовка и боевые задачи». Ташкент: Издание Министерства обороны Республики Узбекистан.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



JISMONIY MADANIYAT
PHYSICAL CULTURE

SPORT O‘YINLARINING QADIMGI SHAKLLARI VA PAYDO BO‘LISH OMILLARI

Xamroyev Behruz Xalimovich,

*Buxoro davlat pedagogika instituti Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti
kafedrası dotsenti*

*Email: bexruzxamroyev1107@gmail.com
+998972806000*

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimda shakllangan sport o‘yinlarining turlari va ularning turmush tarzining ajralmas qismi sifatida shakllanganligi, hamda yurimizda balki, jahon xalqlari orasida ham qadimgi sport mashg‘ulotlarining paydo bo‘lish omillari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek xalq o‘yinlari, Mahmud Qoshg‘ariy, Baqtriya, So‘g‘d, Xorazm, Eron, Samarqand.

ANCIENT FORMS OF SPORTS GAMES AND EMERGENCE FACTORS

Annotation: This article discusses the types of ancient sports and their formation as an integral part of the lifestyle, as well as the factors of the emergence of ancient sports in our country and among the peoples of the world.

Key words: Uzbek folk games, Mahmud Kashgari, Bactria, Sogd, Khorezm, Iran, Samarkand.

ДРЕВНИЕ ФОРМЫ СПОРТИВНЫХ ИГР И ФАКТОРЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ

Аннотация: В данной статье рассматриваются виды древних видов спорта и их формирование как неотъемлемая часть образа жизни, а также факторы возникновения древних видов спорта в нашей стране и среди народов мира.

Ключевые слова: узбекские народные игры, Махмуд Кашгари, Бактрия, Согд, Хорезм, Иран, Самарканд.

KIRISH.

Boshlang‘ich tarbiyaning asosiy masalasi bolani jismoniy jihatdan chiniqtirish va tarbiyalashdir. Mashhur pedagog I.P.Pestalotssining aytishicha: “Hayot ... yetilgan jismoniy nihollarning uyg‘onishidan boshqa narsa emas, bu nihollar endi o‘zining butun kuchi bilan, o‘zining hamma novdalari bilan o‘sishga va kamolotga yetishga intiladi hamda insonga

aylanishi lozim bo‘lgan jonivorning uyg‘onishidan boshqa narsa emas. Shuning uchun bolaning kundalik jismoniy kuchlarini mashq qildirish va rivojlantirish muhimdir” Yunon muarrixlari qoldirgan ma‘lumotlarga qaraganda, bir vaqtlar O‘rta Osiyo hududlarida yashagan qadimgi qabilalar mushtlashishni yaxshi biladigan mohir jangchilar, ya‘ni, harbiy salohiyatga ega bo‘lgan kishilar bo‘lgani qayd qilinadi. O‘zbek xalq o‘yinlari ijtimoiy ehtiyoj tufayli qadimda vujudga kelgan. O‘zbek xalq o‘yinlari mazmunan g‘oyatda boy, shaklan xilma-xil bo‘lib, muayyan ijtimoiy - tarixiy tavsifga egadir. Ba‘zi manbalarda arxeolog olimlar O‘rta Osiyoda ibtidoiy odamlar Afrika qit‘asidan Sharqiy Osiyo orqali kelgan, degan fikrni bildirgan bo‘lsalar (D.A.Ranov), boshqa bir guruh olimlar O‘rta Osiyoni insoniyat beshigi deb hisoblaydilar. O‘zbekiston hududida eng qadimgi odamlar manzilgohi Farg‘ona vodiysidagi Seleng‘ur g‘or makoni bo‘lib, bu ilk paleolit davriga mansubdir[Asqarov, 2005:13]. O‘rta tosh asri - ibtidoiy odamlar tasavvurlari va e‘tiqodlarida keskin o‘zgarish yuz bergan davr bo‘lib hisoblanadi. Bu jarayonni O‘rta Osiyoning eng qadimgi rangtasvirlaridan bo‘lmish Ko‘hitangdagi Zarautsoy suratlarida kuzatish mumkin. Bu lavhalarda ov manzarasi, hayvonot olami va ibtidoiy davr odamlari tasviri o‘z ifodasini topgan [Azizov, 1998:85].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Ba‘zi bir olimlarning (jumladan A.A.Formozov) ta’kidlashicha, bu lavhalarda ov marosimi aks ettirilgan. Mashhur qomusiy olim Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida ovchilik bilan bog‘liq bo‘lgan qo‘shiqlar o‘ziga xos o‘rin tutgan. Ularda ov qilishning dastlabki namunalari, it va qush yordamida o‘q yoy bilan ov qilish tajribalari madh etilgan. Jismoniy tarbiya va sport tarixi fanini o‘rganishda mutaxassis olimlar, H.A.Botirov, L.A.Djalilova, B.B.Ma‘murov, G‘.M.Salimov va boshqalarning o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy-ommabop risolalaridan foydalaniladigan. Ularning asarlariga asosan insoniyat taraqqiyotining ilk davridan boshlab to hozirgi kungacha bo‘lgan jismoniy tarbiya tarixining rivojlanish yo‘llarini o‘rganish mumkin. Mamlakatimiz hududidagi eng qadimgi davrlar haqida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, ularning natijalari xalq o‘yinlarining paydo bo‘lishi tarixi hamda ijtimoiy-psixologik jihatlar haqida ayrim xulosalar chiqarish imkonini beradi. Tarixiy, arxeologik va etnografik manbalarda xalq o‘yinlarining kelib chiqishi hamda rivojlanishiga doir qiziqarli ma‘lumotlarni uchratamiz. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk”, Abu Ali Ibn Sinoning “Tib qonunlari”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Umar Hayyomning “Navro‘znoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati”, Alisher Navoiyning “Xamsa”, “Lisonut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”, Zayniddin Vosifiyning “Nodir voqealar”, Amir Temurning “Temur tuzuklari”, “Temurnoma”, Zahiriddin Boburning “Boburnoma” va boshqalar, shuningdek, Oybekning “Alisher Navoiy” tarixiy romani, “Bolalik qissasi”, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Mirmuhsinning “Temurmalik”, Radiy Fishning “Jaloliddin Rumiy” va shu kabi tarixiy-ilmiy, badiiy asarlarda MSO‘ning paydo bo‘lish tarixi va rivoji to‘g‘risida asosli ilmiy ma‘lumotlar keltirilgan [Душекеев, 1999:45].

So‘nggi paleolit davrining yutuqlaridan biri nayzaning ixtiro qilinishi bo‘ldi. Nayza tufayli ovchilik rivojlandi, tirik hayvonlarni biigalashib ovlash keng ahamiyat kasb etadi. Ma‘lumki nayzani ushlash tartiblari, uni mo‘ljalga olib, uzoqqa otish (uloqtirish) qulay hamda oson emas. Uning texnik qoidalari, uslublari bo‘ladi. Shuningdek, yetarli darajada chaqqonlik va chidamlilikni talab etadi. O‘z-o‘zidan ma‘lumki, bu natijalarga erishish uchun maxsus tayyorgarliklar, ularni o‘rgatuvchilar. tarbiyachilar bo‘lgan. Hayvonlarni birgalashib tutish, ularni quvib yetish ham oson emas. Shu sababdan, oilalarda bolalarni maxsus tayyorgarlik ishlarini ko‘rishgan va jismoniy jihatdan tarbiyalash ishlari olib borilgan. Oilada bolalarni tarbiyalashda tabiiy harakatlar (yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish, suvda suzish va h.k.) va turli harakatli o‘yinlar eng asosiy vosita va amallardan biri bo‘lib xizmat qilgan, Bolalarning yoshi, jismoniy rivojlanish holatlarini hisobga olgan holda, ularni guruhlariga ajratib o‘ynatish o‘sha davrlardayoq ma‘lum maqsad yo‘lida vujudga kelgan. Masalan: kichik yoshdagi bolalarga «Mushuk va sichqon», «Qushlar pirr etib uchdi», «G‘ozlar va o‘rdaklar» kabi o‘yinlarni o‘rgatish boshlangan. O‘rta yoshdagi bolalarga «Kalxat keldi», «Xo‘rozlar jangi». «Kim chaqqon» kabi o‘yinlar, estafetalar, to‘siqli yugurishlar qo‘llanilgan. Katta yoshdagi bolalarga esa tez yugurish, kuch sinashish (kurash, mushtlashish, tosh ko‘tarish kabilar), daraxtlarga tirmashib chiqish, suvda tez suzish, hayvonlarga nayza sanchish (belgilangan doiralar, buyumlar va h.k.) kabi murakkab o‘yinlar, mashqlar o‘rgatilgan. Markaziy Osiyo miloddan avvalgi II-I ming yilliklarda yirik quldorlik davlatlari Baqtriya, So‘g‘d, Xorazm paydo bo‘ldi. Ular Rim va Gretsiyadagi quldorlik tuzumidan o‘ziga xos ravishda anchagina farq qilgan. Markaziy Osiyodagi davlatlarda ishlab chiqarish yuqori darajada bo‘lmaganligi uchun asosan dehqonchilik, chorvachilik va mayda hunarmandchilik asosida qullar (yollanuvchilar) majburiy ishlatilgan. Eramizdan avvalgi 481 (480) 431 (425) yillarda yashagan yunon tarixchisi Gerodotning «Tarix» kitobida qadimgi forslar, saklar va massagetlarning jismoniy tarbiyaviy qarashlariga oid muhim ma‘lumotlar berilgan. Saklar, massagetlar va forslarning eng sharaflaydigan narsasi jasurlikdir, - deydi olim, shunga ko‘ra ular ko‘proq o‘g‘illarga ega bo‘lishdan faxrlanishgan. Podshoh ham kimning o‘g‘li ko‘p bo‘lsa, unga har yili sovg‘a-salomlar yuborgan. Bundan tashqari, bolalarning yoshiga ham e‘tibor berishgan. O‘g‘il bolalarni 5 yoshdan 20 yoshgacha faqat uch narsaga: otda yurishga, kamondan otish, to‘g‘rilikka o‘rgatishgan. Bolani 5 yoshgacha otasiga ko‘rsatmaganlar, u ayollar tarbiyasida bo‘lgan. Mabodo o‘g‘il bola vafot etsa, otasining qayg‘urmasligi uchun shunday qilganlar. O‘g‘il hech qachon ota-onasini behurmat qilmagan. Ular ota-onaga hurmatsizlikni faqat nikohsiz tug‘ilgan yoki tashlandiq bolalardangina kutish mumkin, deb hisoblaganlar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jismoniy tarbiya va sport tarixi qadimgi davrda jismoniy tarbiyaning vujudga kelish xususiyatlarini o‘rganishdan boshlanadi. Qadimgi dunyo jismoniy tarbiyasi deganda, insoniyat bosib o‘tgan ikki tarixiy-ijtimoiy davr – ibtidoiy jamoa tuzumi va quldorlik tuzumi jismoniy tarbiyasi tushuniladi. Miloddan avvalgi IV asrlarda O‘rta yer dengizi atrofida vujudga kelgan davlatlarda jismoniy madaniyatning ilk namunalari paydo bo‘lgan. Jismoniy mashqlarning

Аннотация. В статье предложены результаты определения темперамента у спортсменов легкоатлетов (на примере спортсменов-бегунов), характеризующиеся отличительными психологическими и физиологическими особенностями.

Ключевые слова: темперамент, спорт, тренировка, стрессоустойчивость, тревожность, спортсмен, тренер, соревнование, экстроверсия, интроверсия.

ЕНГИЛ АТЛЕТИКА СПОРТЧИЛАРИДА ТЕМПЕРАМЕНТНИ АНИҚЛАШ (ЮГУРУВЧИ СПОРТЧИЛАР МИСОЛИДА)

Аннотация Мақолада спортчиларнинг ўзига хос психологик ва физиологик хусусиятлари билан ажралиб турадиган енгил атлетикачиларнинг темпераментини аниқлаш натижалари (югурувчи спортчилар мисолида) таклиф этилади.

Калит сўзлар: темперамент, спорт, тренировка, стрессга чидамлилиқ, ташвиш, спортсмен, тренер, мусобақа, экстроверсия, интроверсия

DETERMINING THE TEMPERAMENT OF TRACK AND FIELD ATHLETES (USING THE EXAMPLE OF ATHLETES-RUNNERS)

Annotation. The article presents the results of determining the temperament of track and field athletes (using the example of runners), characterized by distinctive psychological and physiological characteristics.

Keywords: temperament, sport, training, stress tolerance, anxiety, athlete, coach, competition, extroversion, introversion.

Актуальность исследования. Спортивное сообщество Республики Узбекистан с каждым годом завоевывает все более прочные и высокие позиции на международной арене. Спортивные достижения атлетов страны убедительно демонстрируются в

исключительной подготовке и феноменальном мастерстве наших спортсменов, представляющих страну в контексте богатых национальных спортивных традиций.

Опыт многих стран показывает, что государственная забота о судьбах национального спорта, физической культуры непременно оборачивается многократной пользой. Всесторонняя поддержка этих статей социальной сферы первым делом создает все необходимые предпосылки для морально-физического оздоровления детско-юношеской и молодежной среды общества.

Кабинет Министров Республики Узбекистан за годы независимости принял более десяти постановлений, направленных на дальнейшее развитие спортивного движения путем создания новых обществ, строительства спортивных сооружений, выработки условий для перевода на профессиональную основу различных групп спортсменов.

В настоящее время во многих видах спорта национальные федерации Узбекистана являются членами международных федераций, заручившись правом участия на международных соревнованиях различного.

Подготовку специалистов по физической культуре и спорту осуществляет Узбекский Государственный университет физической культуры. В нем ежегодно обучается около 2 тысяч студентов. Высшее учебное заведение готовит преподавателей физического воспитания и тренеров-преподавателей по спорту.

За последние годы в республике ускоренными темпами развиваются отдельные виды спорта, относящиеся к лёгкой атлетике.

Подготовка спортивного резерва, обеспечивающего планомерность по оси «новичок – спортсмен профессионального класса» носит в настоящее время системный характер именно в спортивном направлении по лёгкой атлетике, где существенным фактором изучения становятся психологические особенности спортсменов, как начинающих так и совершенствующих своё мастерство.

Цель исследования: определение темперамента спортсменов по атлетике на примере школьников и бегунов, учащихся в спортивной школе.

Задачи исследования:

1. Провести теоретический анализ специальной литературы;
2. Определить особенности темперамента групп респондентов, исследуемых в настоящей работе;
3. Выявить взаимосвязи и различия у спортсменов занимающихся, легкой атлетикой и подростков обучающихся в средней школе.
4. Разработать практические рекомендации, связанные с совершенствованием спортивного достижения, с учетом психологических возможностей подростков, занимающихся с легкой атлетикой.

Объектом исследования являются подростки в количестве 30 человек, из которых 15 – школьники и 15 учащиеся спортивных школ.

Гипотеза исследования:

Спортивная деятельность, связанная с легкой атлетикой, оказывает влияние на индивидуальную скорость течения психических процессов у спортсменов.

Для решения поставленных задач использовались следующие методы исследования:

1. сравнительный анализ научной литературы, имеющей отношение к исследуемой проблематике;
2. метод «наблюдения»;
3. метод «беседы»;
4. экспериментально - психологическое тестирование темперамента, с помощью опросника Я. Стреляу и теста Г. Айзенка;
5. методы математической обработки данных по критерию Стьюдента;

Практическая значимость: практическая значимость результатов исследования состоит в определении диагностических критериев темперамента для предварительного отбора спортсменов по легкой атлетике. Результаты исследования могут быть использованы для диагностических особенностей темперамента, как с точки зрения физиологических параметров, так и психологических критерий спортсменов, занимающихся легкой атлетикой.

Результаты исследования также могут быть использованы тренерами, спортивными психологами в своей трудовой деятельности.

Итак, результаты исследования по тесту Я. Стреляу демонстрируют (таблица 1):

Таблица 1

Оценка достоверности различий испытуемых бегунов по сравнению с испытуемыми контрольной группы по тесту Я. Стреляу

Показатели	Бегуны (n = 15)		Контрольная гр. (n = 15)		t
	M ± m	S	M ± m	S	
Сила возбуждения	62,3 ± 2,18	4,31	60,1 ± 4,67	5,30	-1,86
Сила торможения	49,8 ± 4,31	3,39	46,2 ± 2,33	2,80	- 3,47
Сила подвижности	66,4 ± 3,18	2,75	56,3 ± 2,90	8,76	-4,64***

Примечание: *p < 0,001.**

Как видно из табл. 1., испытуемые группы бегунов на абсолютно значимом уровне отличаются от контрольной группы по показателям проявления силы подвижности (66,4 ± 3,18, p < 0,001).

По силе процессов возбуждения (62,3 ± 2,18), а также по силе процессов торможения (49,8 ± 4,31) в группе бегунов от контрольной группы достоверные различия не обнаружены.

Результаты исследования в рамках психологической интерпретации обусловлены тем, что при наличии высоких показателей по фактору возбудимости как у спортсменов-бегунов и у группы подростков, индивидуальная скорость психических процессов (подвижность) у спортсменов-бегунов имеет преобладающие значения над исследуемыми показателями у подростков. Свойства подвижности темперамента у спортсменов-бегунов обусловлены: гибкостью в переключении внимания в зависимости от тактических задач, устойчивостью эмоционального контроля, независимостью от внешних влияний, высоким уровнем активности, а также преобладанием мотивации достижения.




Рис. 1. Распределение показателей группы бегунов по тесту Я. Стреляу

По результатам тестирования как видно из табл. 1., испытуемые контрольной группы на достоверно значимом уровне отличаются от группы бегунов низкими показателями по фактору «подвижности ($56,3 \pm 2,90$), а показатели силы возбуждения ($60,1 \pm 4,67$) и силы торможения ($46,2 \pm 2,33$) равнозначны у контрольной группы с группой спортсменов бегунов.




Рис. 2. Распределение показателей контрольной группы по тесту Я. Стреляу

Таким образом, результаты тестирования по опроснику Я.Стреляу выявил принципиальные различия по фактору подвижности у контрольной группы и группы спортсменов-бегунов, что предполагает более развитую пластичность, эмоциональную гибкость у спортсменов-бегунов по сравнению с подростками, учащимися средней школы.

Результаты по тесту Г. Айзенка распределились следующим образом. Как установлено (рис. 3), у респондентов группы бегунов выявилось следующее: из 15 исследованных потенциальными экстравертами оказались 10 человек (66,7%) (12,70 баллов); 4 чел. (26,7%) – амбивертами (12,5 баллов); 1 чел. (6,6%) – потенциальными интровертами (10 баллов).




Рис. 3. Распределение респондентов группы бегунов по шкале «экстраверсия-интроверсия»

Согласно рис. 4., по шкале «невротизм» 7 чел. (47%) – нормостеники (12,75 баллов); 5 чел. (33%) – потенциальные конкорданты (8 баллов); 3 чел. (20%) – потенциальные дискорданты (15,5 баллов).




Рис. 4. Распределение респондентов группы бегунов по шкале «невротизм»

По результатам математико-статистической обработки данных, респонденты группы бегунов по шкале «экстраверсия-интроверсия» составили $15,99 \pm 2,63$, что определяет их потенциальными экстравертами (15-18 баллов). По шкале «невротизм» - $12,08 \pm 3,09$, что соответствует нормостеникам (11-14 баллов) (см. табл. 2).

Указанные параметры свидетельствуют о том, что группу бегунов можно отнести к категории сангвинистического темперамента, что обусловлено способностью к эмоциональному отклику на внешний мир, к быстрому приспособлению к новым условиям, к активности, оптимизму.

Этот тип отличается большой подвижностью нервных процессов, что обуславливает возможность легкого перехода корковых клеток от возбуждения к торможению и обратно при быстром чередовании раздражителей. Легко осуществляется переделка динамического стереотипа.

Как представлено на рис.5. в контрольной группе из 15 испытуемых: 8 человек (53,4%) – амбиверты (12 баллов); 5 чел. (33%) - потенциальные экстраверты (15 баллов); 2 чел. (13,3%) – потенциальные интроверты (10 баллов).




Рис. 5. Распределение респондентов контрольной группы по шкале «экстраверсия-интроверсия»

Согласно данным рис. 6., проявления по шкале «невротизм» распределились следующим образом: 6 чел. (40%) – потенциальные дискорданты (15 баллов); 5 чел. (33%) - нормостеники (14 баллов); 4 чел. (27%) – потенциальные конкорданты (11 баллов);




Рис. 6. Распределение респондентов контрольной группы по шкале «невротизм»

По результатам математико-статистической обработки данных, респонденты контрольной группы по шкале «экстраверсия – интроверсия» определяется показателями: $12,49 \pm 3,77$, что соответствует амбиверсии (11-14 баллов). По шкале «невротизм» средний арифметический показатель баллов составляет – $15,02 \pm 1,28$, что определяет пределы границ потенциальных дискордантов (15-18 баллов) (см. табл. 2).

Выявленные показатели характеризует испытуемых как представителей холерического темперамента, что связано с быстротой, даже порывистостью реакций, со склонностью к вспыльчивости, к бурным эмоциональным реакциям. Вследствие неуравновешенности, увлекшись делом, типы – холерики исследуемой категории склонены действовать на пределе своих возможностей, интересов, а значить пресыщаться больше, чем следует.

Оценка достоверности различий по по t – критерию Стьюдента представлена в табл. 2.

Таблица 2

Оценка достоверности различий у спортсменов группы бегунов по сравнению с испытуемыми контрольной группы по тесту Г.Айзенка

Показатели	Бегуны n=15		Контрольная гр. n=15		t
	М	σ	М	σ	
E - I	15,99	2,63	12,49	2,42	-4,320***
N	12,08	3,09	15,02	1,07	-1,210***
L	1,96	0,65	2,02	1,07	-,917

Примечание: * $p < 0,001$.**

Как видно из табл. 2., респонденты группы бегунов отличаются на абсолютном достоверно значимом уровне по шкале «экстраверсии-интроверсии» = $15,99 \pm 2,63$, $p < 0,001$ от контрольной группы, где у испытуемых выявилась тенденция к «потенциальной экстраверсии».

По шкале «невротизма» также отмечается на абсолютно достоверном уровне различия по показателям: $12,08 \pm 3,09$, $p < 0,001$, что определяет отмеченную группу к нормастеникам.

По шкале «лживости» статистически достоверные различия не обнаружены.

Выявленная тенденция свидетельствуют о том, что респонденты группы бегунов обладают поведенческой гибкостью в системе реагирования, достаточной сформированностью чувства социальной рефлексии по сравнению с представителями контрольной группы.

Выявленные показатели контрольной группы по шкалам «экстраверсия - интроверсия» = $12,49 \pm 2,42$ диагностически определяются тем, что контрольная группа по средне - арифметическим показателям относятся к категории «амбивертов». Уровень невротизма $15,02 \pm 1,07$ к потенциальным дискордантам.

Показатели свидетельствуют о том, что испытуемые отмеченной выборки отличаются: склонностью к повышенной активности, общительности (порой неразборчивой), к ситуативно обусловленной импульсивности со снижением чувства самоконтроля. Категория данных лиц отличается склонностью к необдуманному принятию решений в ситуациях экстремальности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Результаты экспериментально-психологического тестирования и теоретического исследования позволяют сделать выводы в соответствии с выдвинутой гипотезой:

Спортивная деятельность, связанная с лёгкой атлетикой, оказывает существенное влияние на развитие такого свойства темперамента, как подвижность, то есть индивидуальную скорость течения психических процессов.

Об этом свидетельствует выявленная у спортсменов-бегунов по сравнению с группой подростков по тесту Я.Стреляу со стороны динамики психической деятельности преобладающая тенденция к подвижности нервных процессов.

В эквивалентах психологической интерпретации «подвижность» у спортсменов-бегунов (на фоне выявленной по тесту Г.Айзенка потенциальной экстравертированной направленности) проявляется в способности к быстрой адаптации не только в соревновательных условиях, но и в условиях новизны и стресса. Для спортсменов-бегунов свойство «подвижности» также обусловлено быстрой включённостью в предстартовые ситуации способностью к волевым усилиям в условиях физических перегрузок в ситуациях стремления к достижению победных результатов.

При этом, у подростков в параметрах теста Я.Стреляу выявляются низкие показатели индивидуальной скорости течения психических процессов (подвижности), что при потенциальной дискордантности индивидуально-психологического склада (по результатам теста Г.Айзенка) обуславливает недостаточную способность к волевому контролю, несформированность жизненной позиции, склонность к импульсивности, зависимости от ситуационных влияний.

ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ

В Республике Узбекистан профессиональному отбору, подготовке и совершенствованию спортсменов-бегунов в аспектах психологического фактора уделяется должное внимание.

В контексте проведенного исследования спортсменов-бегунов по свойствам темперамента с учетом индивидуальной скорости течения психических процессов (подвижности), рекомендуется целенаправленное диагностирование и использование параметров, имеющих отношение к устойчивым психологическим характеристикам с целью совершенствования тренировочного процесса как в спортивной школе так и в работе с квалифицированными спортсменами-бегунами.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

- 1.Багадирова С.К. «Спортивная психология» учеб. пособие. Майкоп (Адыгея) 2014г. 243с.
2. Гаппаров З.Г. «Спортивная психология» учебник. МВ и ССО РУз. Т.:ООО «Мехридарё» 2009, -312с
- 3.Ловягина А.Е. «Психология физической культуры и спорта». учебник и практикум. Москва: Юрайт. 2016 г. 338с.
- 4.Маклаков А.Г. «Общая психология» учебник для вузов. СПб: Питер. (серия Учебник для вузов) 2016 г. 583с.
5. Немов Р.С. «Общая психология» учебник. М.: Юрайт. 2012г. 2472 с.
6. Огородова Т.В. «Психология спорта» уч. пособие. Ярославль. 2013г. 120с.



QORAQALPOQ TEATR SAN‘ATINING RIVOJLANISHIDA AKTYOR KOPJURSIN ALLANAZAROVNING TUTGAN O‘RNI

Bahadir Allaniyazov

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada aktyor, vokal artisti Allanazarov Ko‘pjursin Aytmuratovichning hayoti va ijodi haqida va to‘liq ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston teatri tarixida birinchi professional rejissiyor sifatida tan olingan rejissiyor va adabiyot vakili Turesh Allanazarov haqida ham batafsil bayon etiladi.

Kalit so‘zlar. Iste’dod, aktyor, rejissiyor, teatr, sahna, obraz, badiiy film, spektakl, kino va h.k.

РОЛЬ АКТЕРА КОПЖУРСИНА АЛЛАНАЗАРОВА В РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСКОГО ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА

Аннотация. В данной статье представлена подробная информация о жизни и творчестве актера, артиста вокала Алланазарова Копжурсина Айтмуратовича и его творчестве. Также будет подробно описан режиссер и литературный представитель Тuresh Алланазаров, признанный первым профессиональным режиссером в истории театра Каракалпакстана.

Ключевые слова. Талант, актер, режиссер, театр, сцена, образ, художественный фильм, спектакль, кино и т. д.

THE ROLE OF ACTOR KOPJURSIN ALLANAZAROV IN THE DEVELOPMENT OF KARAKALPAK THEATER ART

Abstract. This article provides detailed information about the life and work of the actor, vocal artist Allanazarov Kopjursin Aytmuratovich and his work. Also, the director and literary representative Turesh Allanazarov, recognized as the first professional director in the history of Karakalpakstan theater, will be described in detail.

Keywords. Talent, actor, director, theater, stage, image, feature film, performance, cinema, etc.

Kirish. Har bir aktyorning ijrochiligi, teatr, kino, televideniye va radioda badiiy obraz yaratish bilan bog‘liq. Aktyor ma’lum rolni ijro etar ekan, o‘z qahramoni qiyofasiga kirib, uning fe‘l-atvorini, ichki dunyosini ifodalashga va uni his qilishga harakat qiladi. Bunda u pyesa,

libretto yoki ssenariydagi mazmunni o‘z ijodi, hayotiy tajribasi bilan boyitadi, jonlantiradi. Obrazni yaratishda aktyorning har tarafdan tayyorligi nutqi, gavdasi, yuz va ko‘z imo-ishoralari, tuyg‘ulari, idroki asosiy vositalardir.

Aktyor grim, libos, ba‘zan niqobdan foydalanadi, gavdalantiradigan kishisi yoki boshqa mavjudotga yarasha xatti-harakat, ohang, imo-ishora topadi, ichki va tashqi tomonni bir-biriga uyg‘unlashtiradi. Aktyorlik san‘ati ijrochilarning dunyoqarashi, shaxsiyati, ijodiy o‘ziga xosligiga tayangan holda hayotiy voqelikni aks ettiradi.

Asosiy bo‘lim. Davlatimiz rahbarining bugungi kunda teatr san‘atini har taraflama rivojlantirishga bo‘lgan sa‘yi-harakatlari zahirida, albatta, yurtimizda tinchlik, osoyishtalik hukm surishi, xalqimizning farovon hayot kechirishi yotibdi desak yangilishmaymiz. “Jahondagi eng ommaviy va ta’sirchan san‘at turlaridan biri bo‘lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, ularning qalbida oliyjanob fazilatlar, go‘zal his-tuyg‘ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do‘stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda” [1; 1].



Bugun biz teatr, kino sohasi va vokal san‘atida o‘z mehnati bilan nom qozonib kelayotgan san‘atkor, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri vokal artisti Allanazarov Ko‘pjursin Aymuratovichning hayoti va ijodi haqida so‘z yuritmoqchimiz. Albatta, “Olma tagiga olma tushadi” yoki “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” iboralari bugungi kunda ham o‘z ifodasini topmoqda. Chunki, Ko‘pjursin Allanazarov buyuk san‘atkor va rejissiyor, dramaturg, olim va “Qoraqalpog‘istonda mehnati singgan san‘atkor”, O‘zbekiston xalq artisti, Berdaq nomidagi davlat mukofoti sovrindori To‘resh Allanazarovning nabirasidir. Shu o‘rinda taniqli qoraqalpoq rejissiyori T.Allanazarovning hayoti va ijodiy faoliyati

haqida to‘xtalib o‘tish joiz.



1-rasm
T.Allanazarov
(1916-2000)

To‘resh Allanazarov (1-rasm) o‘zining butun ijodiy hayotini, Qoraqalpoq milliy sahna san‘atini rivojlantirishga bag‘ishlagan, milliy san‘at tarixini o‘rganib keyingi avlodga yetkazishgan buyuk san‘atkordir. U 1916-yilda Qo‘ng‘irot tumani Taxtaqayir-Qarajar qishlog‘ida dunyoga kelgan. 1933-yili T.Allanazarov To‘rtko‘ldagi Pedagogik texnikumni tamomlab, Kegeyli tumanida bir yil o‘qituvchi bo‘lib ishladi. 1934-yili Moskvadagi A.V.Lunacharskiy nomidagi Davlat teatr san‘ati institutiga kirib, uni 1939-yili muvaffaqiyatli bitirib chiqdi va qaytib kelgach, 1946-1951-yillarda Toshkentdagi Ostrovskiy nomidagi teatr va rassomchilik institutining rejissiyorlik fakultetini tamomladi. Shundan so‘ng u o‘sha vaqtdagi Stanislavskiy nomidagi davlat teatrida rejissiyor va aktyor bo‘lib 1959-yilga qadar ishladi. 1959-1974-yillarda

O‘zbekiston SSR Akademiyasining Qoraqalpog‘iston bo‘limi til, adabiyot va tarix institutida bo‘lim rahbari sifatida faoliyat olib bordi.

1965-1967 yillarda Qoraqalpog‘iston madaniyat vaziri, bo‘lib ishladi. U teatr san‘ati uchun salmoqli hissa qo‘shdi. Jumladan, qator pyesalarni tarjima qildi. Ulardan M.Gorkiyning “Dushmanlar”, A.Qahhorning “Shoyi syuzana”, “Yangi yer”, I.Frankoning “O‘g‘irlangan baxt”, Molyerning “Tartyuf”, Ranetning “Adashgan o‘g‘il”, B.Lavrenovning “Amerika ovozi”, B.Musrepovning “Qiz Jibek” va boshqa asarlarni tarjimaladi.

Shuningdek, T.Allanazarov 50 dan ortiq ocherk, monografiya va tezislar yozdi. U teatr ijodida Asan Begimov bilan birga “G‘arib oshiq”, J.Aymurzaev bilan “Ravshan”, P.Tilegenovning “Birinchi gudok” nomli pyesalarini yozdi va sahnaga olib chiqdi. Ushbu mehnatlari evaziga T.Allanazarovga biz yuqorida tilga olgan unvonlar berildi.

Uning ijodiy faoliyati, chinakam iste’dodi bolalari va nabiralarga meros bo‘lib qoldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Buning isboti esa Ko‘pjursin Allanazarovning ijodi misolida ko‘rish mumkin. U otasining yo‘lidan borib, uning iste’dodini, faoliyatini bugun munosib davom ettirayotgan aktyor sanaladi. K.Allanazarov 2007-yildan beri Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida aktyor sifatida ishlab kelmoqda. Uning repertuarida turli xil xarakterdagi obrazlarni ko‘ra olamiz. U yaratgan rollar gohi ma’yus, gohi komik gohida esa qayg‘uli bo‘lib, tomoshabin yuragiga kirib boradi. Jumladan, u “Alpomish” spektaklida Jamol, “Vijdon”da Adilbek, “Intilganga tole’ yor”da Turdiboy, “Jon qizlar”da Abubakir, “O‘g‘rini qaroqchi bosdi”da Nurpolat, “Kelin” spektaklida Zarimbet, “Farzandim jigarbandim”da Timur, “Nur soyada qolmaydi” Qodir, “Berdaq”da Ajiniyaz, “Iymon”da Orif, “Edige”da Edige, “Ayaziy”da Ibroyim Yusupov, “Anvar va Ra’no”da Sultonali, “Qiz yigirmaga kelganda”da Qayipbergen, “Tanho qayiq”da Qalimbet, “Gamlet”da Gamlet va boshqa rollari maromiga etkazib ijro etdi.

Uning ijrolarida vatanparvarlik, milliylik va barkamollik aks etadi. Shu bilan birga u nafaqat teatr sahnasi va ekran san‘atida ham faol ishtirok etgan kino rollari ham bor. Masalan, K.Allanazarov “Qalqon” filmida katta leytenant Jo‘rayev, “Ustyurtga yo‘l” filmida Norboy, “Bir do‘sting bo‘lsin” serialida Quwat, “Dengiz” filmida Madiyar, “Sabot” filmida Maqset va boshqa telepostanovkalarda ishtirok etib kelmoqda. Shu bilan birga u respublikamizning turli bayramlarida festivallarida faol qatnashdi. Masalan, 2011-yilda Toshkent shahrida o‘tkazilgan “Seni kuylaymiz zamondosh” ko‘rik tanlovida qatnashdi.

K.Allanazarovga mana shunday ijrolari va san‘atga qo‘shgan hissasi uchun 2022-yil 15-noyabrda “Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan artist” unvoni berildi.

Endi esa uning ijrosida qoraqalpoq sahnasida gavdalangan va ilk bor sahnaga qo‘yilgan U.Shekspirning taniqli “Gamlet” asarida ijro etgan K.Allanazarovning Gamlet roliga to‘xtalmoqchimiz. Mazkur asar Uyg‘onish davrining yirik namoyondasi Shekspirning shoh asarlaridan biri va uning qahramoni sahnaga olib chiqish K.Allanazarovga rejissiyor Suluvxon G‘aniyeva tomonidan ishonib topshirildi va bu ishni u uddalay oldi. Asardan parcha keltiramiz:

“...Masala shu, hayot yo mamot? Bu erda menga yaqini qaysi biri, qismatning qaqshatgich zarbasiga ko‘naymi yo ajal bilan olishib uni bug‘ib o‘ldiraymi. O‘lim bilan ko‘z yumish vassalom, qayg‘udan chekkan zahmatlardan mana shu uyqu birla qutulaymi. O‘lish-uxlash demak, tush ko‘rmoq demak, to‘g‘ridir balki, shovqinli hayotdan bezganda u dunyoda qanday tushlar ko‘ramiz, mana shu narsa qiyin, jabru jafolarning ko‘pligi ham mana shu savoldan. Agar yechish oson ersa ushbu savolni, zamon zaxmatiga kim chidar edi? Masxara bo‘lishga, adolatsizlikka, kim bardosh beradi ishq azobiga? Bunday ming azobda hayot kechirguncha xanjarga yalinish yaxshi emasmi? U dunyoda nimalar bor ekan? U dunyoni ko‘rganlar bormikan? O‘lganlarni ko‘rdim, lekin tirilib qayta kelganlarni ko‘rmadim, mana biz shundan qo‘rqamiz, faqat biz uchun maxfiy dunyodan ko‘ra bu dunyoda tiriklikda yashab nima boshga tushsa ko‘namiz, taqdir oldida ojiz bir bandamiz, tiz cho‘kamiz, bu hayollar bizni qo‘rqoq qiladi. Maqsad va hayolimiz olisga etmay yo‘lda qolib sarobga aylanadi. Qanoti singan lochin kabi vayrona bo‘lamiz! Tinchlan. Ofeliya duo o‘qisang mening barcha gunohlarimni yodga olgaysan!”.



2-rasm

K.Allanazarov Ajiniyoz obrazida

Ko‘pjursin Allanazarov 2024-yildagi faoliyatida To‘lepbergen Qayipbergenovning “Qaraqalpoq qizi” romani asosida, sahnalashtirilgan “Jumagul” spektaklida Turimbet obrazini yaratdi.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 16-iyuldagi “Atoqli qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo‘siyoy o‘g‘li tavalludining 200 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi [2] PQ-258-son qaroriga asosan butkul O‘zbekiston va Turkiy davlatlar hududida shoirning ijodi va uning bosib o‘tgan yo‘li haqida adabiy kechalar, ko‘rgazmali kechalar hamda badiiy filmlar tushirish belgilab qo‘yilgan. Shu qaror asosida Qoraqalpoqfilm ijodkorlari tomonidan “Ajiniyoz” badiiy filmi suratga olinib, san’atkorlar va shoirlardan tashkil topgan ijod ahli Turkiyaning Istambul shahrida Qaraqalpoq buyuk klassik shoiri Ajiniyoz Qo‘siyoy o‘g‘li tavalludining 200 yilligiga bag‘ishlangan tadbirda ishtirok etdi. Shu bilan bir qatorda Ajiniyoz Qo‘siyoy o‘g‘lining 200

yilligi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filialida, Berdax nomidagi Qaraqalpoq davlat musiqali akademik teatrida keng nishonlandi va konsert dasturi qoyildi. Shuningdek Qarorga asosan Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogik institutida Ajiniyoz Qo‘siyoy o‘g‘lining muzeyi tashkil qilindi.

Xulosa qilib aytganda, Ko‘pjursin Allanazarov mana shunday buyuk klassik shoirning obrazini yaratishda va usha davr holatini chuqur his qilgan holda badiiy filmda Ajiniyoz obrazini mukammal yoritishga muyassar bo‘ldilar (2-rasm).

Ko‘pjursin Allanazarov yosh va novqiron, bugingi kunning qahramoni sifatida bugingi avlodlarga namuna bolgudek, ijod ichida qaynayotgan ijodkorlardan biri.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston teatr san’ati xodimlariga tabrigi. Xalq so‘zi gazetasi 2021 yil, 27 martdagi №62-soni. 1-bet.
2. Lex.uz manbasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 16.07.2024 yildagi PQ-258-son



BO‘LG‘USI MUSIQA O‘QITUVCHILARIDA CHOLG‘U IJROCHILIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYOTI.

Djumaboyeva Muqaddasxon Shavkatovna

Qo‘qon davlat pedagogika instituti, “Musika ta’limi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lg‘usi musiqa o‘qituvchilarida cholg‘u ijrochiligini rivojlantirish uslubiyoti va o‘quvchilarda ijrochilik malakalarini shakllantirishning ahamiyati haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: cholg‘u ijrochiligi, milliy cholg‘ular, rekonstruktsiya qilingan, musiqiy meros, sozanda, musiqa, ijro mohorati, texnika, saxna madaniyati.

Abstract: The article deals with the importance of introducing the subject of instrumental performance into secondary school education and the formation of students` performing skills.

Keywords: instrumental performance, folk instruments, reconstruction, musical heritage, musician instrumentalist.

KIRISH

Mashxur rus musiqachisi va pedagogi D. B. Kabalevskiy bolalar cholg‘u musiqa ijrochiligi faoliyatiga katta ahamiyat bergan. Xususan, u ta’kidlaganki: "Agar sinfda fortepiano bo‘lsa, darslarga to‘rt qo‘lda ijro qilishni (o‘qituvchi bilan ansamblda chlish) kiritish tavsiya etiladi ... Ehtimol, hayotlarida hech qachon fortepiano klavishlariga tegmagan bolalar, ikki barmog‘i bilan faqat o‘qituvchi tomonidan berilgan ikkita notani bosib ozmi-ko‘pmi to‘laqonli musiqa asarini ijro etishda ishtirok etadi. Bu bolalarda katta qiziqish uyg‘otadi, musiqaga bo‘lgan ishtiyoqni kuchaytiradi va, albatta, ularning musiqiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladil Ammo sinfda fortepiano bo‘lmasa-chi? Va agar u mavjud bo‘lsa ham, sinfdagi bolalarni ushbu faoliyatga jalb qilishda qiyinchiliklar mavjud - axir, o‘qituvchi hammani bir vaqtning o‘zida bitta cholg‘uga o‘tkaza olmaydi. Va maktab darsi sharoitida bu faoliyatga murojaat qilishning shubhasiz afzalliklari bilan, bolalar shunchaki klavishlarga "teginib ko‘rish" imkoniyatiga ega bo‘lishardi halos.[:98]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang‘ich elementar cholg‘u asboblari ham cholg‘u ijrosini o‘rganib ko‘rish mumkin. Agar maktabda bolalar cholg‘u asboblari bo‘lsa, ulardan darslarda o‘qituvchi bilan ansamblda (shu jumladan to‘rt qo‘lda ijro sifatida) foydalanishimiz mumkin - qo‘shiqni jo‘rlikda kuylash, musiqa ostida harakat qilishimiz uchun bu juda ma’qul, chunki bu asboblarni chalish bolalarning musiqiy rivojlanishiga ham hissa qo‘shadi, ularning musiqiy va ijrochilik

tajribasini boyitadi va darsga o‘yin elementini kiritadi. Ammo bolalar asboblari ijroni bu turi bolalarning e‘tiborini uzoq vaqt ushlab turishga qodirmi? Hatto K. Orff tomonidan yaratilgan mashhur elementar musiqa cholg‘ularida ijro qilish faqat maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan mo‘ljallangan. Bugungi kunda kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarini ham doirachalar, shiqildoqlar, uchburchaklar va barabanlarning shovqini bilan qiziqitirish allaqachon qiyin bo‘lib qolgan. Badiiy sifat jihatidan juda shartli bo‘lgan natijaga Orff cholg‘u asboblari chalishning juda qiyin texnikasi asosida erishish mumkin. Shu bilan birga ularni arzon deb atay olmaysiz. Bu ularni mahalliy maktabda tarqatish imkoniyatini kamaytiradi.[4:74] Ko‘p qiyinchiliklarni musiqa o‘qituvchisining zukkoligi bilan bartaraf etish mumkin. Ammo baribir, barcha maktab o‘quvchilarini improvizatsiyalangan usullar asosida cholg‘u musiqa ijrochiligi bilan tanishtirish masalasini hal etishda o‘qituvchining zukkoligi yetarli emas. Yoki, bu asboblardan tashqari, musiqa darsida boshqalarga murojaat qilish mumkin bo‘lgandir? Axir, D. B. Kabalevskiy umumta‘lim maktablari uchun musiqa faning dasturini yaratilganiga ham 50 yildan ortiq vaqt o‘tdi. Darhaqiqat, musiqiy cholg‘ular insoniyat ma‘naviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita, ya‘ni xalq ijodiyoti mahsuli bo‘lib, azal -azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasilib, tobora mukammallashib kelayotgan mo‘jizaviy va ifodaviy asboblardir. Cholg‘ularda har bir xalqning milliy g‘ururi, an‘anasi, qadriyatlarini o‘z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Zamonaviy jarayonda o‘tmish an‘analariga yangicha qarash, ilg‘or rivojlangan texnikadan munosib foydalanish hamda komil insonni tarbiyalash kabi omillarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Zero, komil inson tarbiyasida musiqa eng muhim, ya‘ni insonlarni ruhiy hamda ma‘naviy tarbiyasiga asos bo‘la oladigan omil sifatida qaraladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘quv-ta‘lim jarayonining barcha bosqichlarida bunga e‘tibor berilishining sababi ham shunda ekanligi shubhasizdir.[2:98] 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida milliy musiqa cholg‘ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahorati o‘rgatiladi hamda bu haqda ularning ta‘lim to‘g‘risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritiladi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qarori imzolandi. Qarorga ko‘ra, 2022/2023 o‘quv yilidan musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o‘quv soati hamda unga qo‘shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish amaliy to‘garaklari va fakul‘tativ darslari o‘tkaziladi. Shuningdek, milliy cholg‘ulardan kamida bittasida, 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab esa kamida uchta kuy ijro etish mahoratiga ega bo‘lish musiqa fani o‘qituvchilari uchun majburiy hisoblanadi. Musiqa fani uchun ajratilgan o‘quv soatlari doirasida – “Hayotimga hamrohdir cholg‘ular” shiori ostida cholg‘u ijrochiligi dars mashg‘ulotlari yo‘lga qo‘yiladi. O‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida ularning qiziqishlariga ko‘ra milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish mahorati, tasviriy va amaliy san‘at, hunarmandchilik yo‘nalishlarida amaliy to‘garaklar (keyingi o‘rinlarda – amaliy to‘garaklar) tashkil etiladi. Musiqa san‘ati bo‘yicha professional

ta'lim hamda oliy ta'lim to'g'risidagi hujjatga ega bo'lgan, kamida 3 ta milliy musiqa cholg'ularida mahorat bilan kuy ijro eta oladigan mutaxassislarni asosiy ish joyidan bo'sh vaqtida u yerdagi mehnatga haq to'lash shartlarini saqlab qolgan holda o'rindoshlik asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari musiqa fani o'qituvchisi va musiqa yo'nalishidagi to'garak rahbari lavozimiga to'liq stavkada ishga qabul qilishga ruxsat beriladi; Bundan tashqari musiqa fani o'qituvchilarini kamida uchta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etishga o'rgatish xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi doirasida amalga oshiriladi, bunda qayta tayyorlash (malaka oshirish) kurslarida mashg'ulot olib borish uchun madaniyat va san'at sohasi vakillari shartnoma asosida jalb etiladi.[1:98] O'qituvchi faqatgina cholg'uchilk san'atini o'rganayotgan o'quvchi bilan emas, balki tom ma'noda tarbiyalanuvchi bilan ishlayotganini his etishi lozim. Ishga xuddi mana shunday yondashish kerak, zamonaviy fan ta'lim va rivojlanishni ilmiy nuqtai nazardan chuqur va har taraflama o'rganmoqda. Ta'lim va rivojlanish jarayoni bir - biri bilan uzviy bog'langan. Rivojlanish ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. O'quvchilarning muayyan bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirishlarining individual xususiyatlari, ongning qanchalik rivojlanganligi ta'lim jarayoniga ta'sirini o'tkazadi. O'quvchining ijro etish ko'nikmalarini o'zlashtirishi bilan uning umumiy musiqiy rivojlanishi masalalarining bog'liqligi cholg'u ijrochiligi fani milliy cholg'ularning kelib chiqish tarixi, milliy soz yasovchi ustalar haqidagi ma'lumotlar va milliy cholg'ularimizni zamonaviy estrada ijrochiligidagi o'rni haqidagi nazariy va amaliy bilimlarni talabalarga zamonaviy ta'lim standartlari talablariga muvofiq o'rgatishdan iborat.[2:76] O'zbek mumtoz musiqiy merosi turli cholg'ularga boy va ularning har biri uzoq o'tmish, tarkibiy rivojlanish va texnikaviy takomillashish jarayonidan o'tganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ijro mezonlariga ko'ra o'zbek xalq cholg'ulari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga barcha an'anaviy xalq cholg'ulari kiradi. Ikkinchi guruh XX asr madaniy rivoji bilan bog'liq bo'lib takomillashga, ya'ni qayta ishlangan (rekonstruktsiya qilingan) cholg'ular kiradi. An'anaviy xalq cholg'ulari tarkibidan joy olgan cholg'u sozlar: tanbur, dutor, sato, rubob, ud, nay, surnay, qo'shnay, karnay, g'ijjak, chang, qonun, doyra, nog'ora.

Xalq ijodiyotida qo'llaniladigan sozlarga changqo'biz, sibizg'i, safoil kiradi. Qayta ishlangan cholg'ular asboblariga - rubob, g'ijjak, dutor va chang sozlarinig musiqaning soprano, alt, tenor, bas ovozlar mezonlariga ko'ra qayta ishlangan namunalari kiradi. Karnay, surnay, nog'ora va doyra tarkibidagi damli va urma cholg'ular guruhi qadimdan ijro amaliyotida shakllanib, xalqimizning barcha ommaviy tadbirlarining faol ishtirokchisiga aylangan. An'anaviy cholg'u sozlar ansambllari esa o'z xususiyatlaridan kelib chiqib qo'llanilgan. Ijroda keng ko'lamli va katta ovoz imkoniyatiga ega bo'lish maqsadida barcha cholg'ular yig'indisidan katta cholg'ular ansambli tashkil etilgan. Cholg'u musiqasi ijrochiligi va maqom ijrochilik amaliyoida esa kichik-kichik guruhlar bo'lib ijro etish ham an'anaga aylangan. Jumladan: har bir cholg'u doyra jo'rliigi bilan ijro etish; tanbur dutor bilan; tanbur, dutor doyra jo'rliigi bilan; tanbur, dutor, g'ijjak doyra jo'rligida ud, qonun doyra bilan birga va h.k.[3:132]

XULOSA

Har bir xalq o‘zining milliy musiqiy merosini sevsa, ajdodlar an‘anasini ardoqlasa, uni munosib tarzda o‘zlashtirsa va qadriga yetsa, o‘zga xalqlar san‘atini ham baholay oladi. [5] Zero, bizgacha yetib kelgan musiqiy an‘analar avlodlar zanjirining mustahkamligidan dalolatdir. Bu borada xalqimizning ma‘naviy boyligi bo‘lgan maqomlar, maqom yo‘llariga mansub mumtoz musiqa asarlari hozirgacha o‘zining badiiy va estetik imkoniyatlarini yuqori darajada saqlab kelayotganligini alohida ta‘kidlab o‘tish joiz. Ularni o‘rganish, tadqiq etish va kelajak avlodlarga yetkazish zamonamizning talab va eshtiyojida bilgan dolzarb masalalardan biridir. Ma‘lumki, o‘zbek xalqining musiqiy madaniyati milliy cholg‘ularga boy bo‘lib, tanbur, dutor, g‘ijjak, nay, qo‘shnay, surnay, chang, qonun, ud, rubob, doira va nog‘ora kabi cholg‘ular o‘zining mukammalligi bilan mohir ijrochilar amaliyotida munosib o‘rin topgan. Chunki har bir cholg‘u o‘zining shakllanish tarixi, ijro imkoniyatlari, betakror, jozibali sadolanishi va muxlislariga ega. Ularning barcha siru—sinoatlarini ilmiy-nazariy tadqiq etish va yosh avlodga yetkazish har bir murabbiyning muqaddas burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Prezidenti qarori, Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida, 02 02 2022 yil, PQ-112 son.
2. SH.Rahimov, A. Lutfullayev- —Cholg‘ushunoslik, «Musiqa» nashriyoti, T., 2010 3. R.Nosirov- —Cholg‘u ijrochiligi, O‘zDSI, 2008 4. И. М. Красильников- «И. М. Красильников Как развивать детское инструментальное музицирование?», Материалы XIII международной научно-практической конференции, Санкт – Петербург, 2014.
3. Sh, Jumaboyeva M. "FORMING THE CHILD'S PERSONALITY IN THE PROCESS OF ACQUIRING MUSICAL KNOWLEDGE." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 3.11 (2022): 128-132.
4. Djumaboyeva, M. "IN FOLKLORE-ORAL CREATIVITY AND TRADITIONALISM." *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 306-312.
5. Djumaboyeva, M. Sh. "MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA MUSIQIY SAVODXONLIK MALAKALARINI SHAKLLANTIRISHDA O‘QITUVCHINING O‘RNI." *Interpretation and researches* 1.1 (2023).
6. Djumaboyeva, M. "Activities Specific To Music Lessons And Requirements For The Teacher In Using Them As A Means Of Education." *Journal of Positive School Psychology* (2023): 877-880.
7. Djumaboyeva, M. "PEDAGOGICAL SKILLS OF MUSIC TEACHERS." *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research* 4.01 (2024): 150-154.

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



SAN'ATSHUNOSLIK
ART HISTORY

“MOTSART EFFEKTI” FENOMENINING ILMIY VA AMALIY JIHATLARINI O'RGANISH

Jumanazarov Zohidjon Eldor o'g'li

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

e-mail: zohidjonjumanazarov7@gmail.com

Tel.: +(998)-94-043-2285

Annotatsiya. Maqolada Volfgang Amadey Motsart asarlarining inson miyasi faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi, ijodiy fikrlashga undashi va kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishdagi rolini tahlil qilingan. Shu bilan birga, musiqiy effektning fiziologik asoslari, psixologik o'ziga xos xususiyatlari, uni ta'lim tizimida, tibbiyot sohasida hamda ish unumdorligini oshirish jarayonlarida qo'llash bo'yicha misollar keltirilgan. Shuningdek, “Motsart effekti” haqidagi konflikt fikrlar ham yoritilib, ilmiy dalillar asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Motsart effekti, musiqa terapiyasi, kognitiv qobiliyatlar, ijodiy fikrlash, aqliy faoliyati, ta'lim jarayoni, psixologik ta'sir.

ИЗУЧЕНИЕ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ЯВЛЕНИЯ “ЭФФЕКТА МОЦАРТА”

Аннотация. В статье исследуется влияние произведений Вольфганга Амадея Моцарта на мозговую деятельность человека, в частности, на развитие творческого мышления и когнитивных способностей. В статье также представлены примеры, освещающие физиологические основы музыкального эффекта, психологические нюансы и его применение в системе образования, медицине и для повышения производительности труда. Кроме того, в статье рассматриваются противоречивые точки зрения на эффект Моцарта, подкрепленные научными данными.

Ключевые слова: эффект Моцарта, музыкотерапия, когнитивные способности, творческое мышление, психическая активность, образовательный процесс, психологическое воздействие.

STUDY OF SCIENTIFIC AND PRACTICAL ASPECTS OF THE PHENOMENON OF THE “MOZART EFFECT”

Abstract. The article explores the influence of Wolfgang Amadeus Mozart's compositions on human brain activity, specifically in fostering creative thinking and enhancing

cognitive development. It also presents examples highlighting the physiological underpinnings of the musical effect, psychological nuances, and its applications within the educational system, the medical field, and productivity enhancement. Additionally, the article examines conflicting viewpoints regarding the Mozart effect, supported by scientific evidence.

Keywords: Mozart effect, music therapy, cognitive abilities, creative thinking, mental activity, educational process, psychological impact.

KIRISH. 1993-yilda F.H. Rauscher, G.L. Shaw va K.N. Kylar Motsartning sonatasi(K448)ni ikki marta pianinoda 10 daqiqa tinglagandan so‘ng, oddiy subyektlar qon bosimi yoki pulsni pasaytirish uchun mo‘ljallangan dam olish ko‘rsatmalarini tinglash davrlariga qaraganda ancha yaxshi fazoviy fikrlash qobiliyatini ko‘rsatdi, degan xulosaga kelishdi[1].

O‘rtacha IQ ballari musiqa tinglangandan keyin qolgan ikkita shartga qaraganda 8 va 9 ball yuqori bo‘lgan. Kuchaytiruvchi ta’sir 10-15 daqiqadan oshmadi. Ushbu natijalar munozarali bo‘lib chiqdi. Ba’zi tadqiqotchilar topilmalarni ko‘paytira olmadilar, ammo boshqalari Motsartning K448-sonatasini tinglash Stenford – Binet shkalasidan olingan turli xil testlar bilan o‘lchanadigan fazoviy-vaqtinchalik ishlash (masalan, qog‘ozni kesish va qatlama protseduralari yoki qalam va qog‘oz labirint vazifalari[2])ning ozgina o‘shishini tasdiqladi[3].

Biroq, Rauscher Motsart effekti fazoviy-vaqtinchalik fikrlash bilan cheklanganligini va umumiy intellektning yaxshilanishi yo‘qligini ta’kidladi; uning fikricha, ba’zi salbiy natijalar noto‘g‘ri sinov tartiblari tufayli bo‘lishi mumkin[4].

Xo‘sh, Motsart effekti mavjudmi? Asl ijobiy topilmalarning umumiyliigi, Motsartning har qanday effekti ushbu musiqa bilan bog‘liq bo‘lgan lazzatlanish qo‘zg‘alishi bilan bog‘liq va uni qadrlamagan taqdirda sodir bo‘lmaydi degan asosda tanqid qilindi. Ushbu talqinga hayvonlarning tajribalari qarshi turadi. Unda kalamushlarning alohida guruhlar, bachadonda tug‘ruqdan keyingi 60 kunlik davr, Motsartning fortepiano sonata K448, bastakor Filipp Glassning minimalist musiqasi, oq shovqin yoki sukunat va keyin labirintni muzokara qilish qobiliyati uchun sinovdan o‘tkazildi.

Motsart guruhi labirint sinovini ancha tezroq va boshqa uchta guruhga qaraganda kamroq xatolar ($P < 0.01$) bilan yakunladi. Shunday qilib, zavqlanish va musiqani tinglashning yaxshilanishga asos bo‘lishi mumkin[5].

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI. Musiqa tinglagandan so‘ng olingan natijalar uchun tushuntirish musiqa va fazoviy tasvirni miya ichida qayta ishlash usulida bo‘lishi mumkin. Musiqa idrokini lokalizatsiya qilish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazildi. Pozitron emissiya tomografiyasi (PET) va funksional magnit-rezonans skanerlash kabi usullar miyaning lokalizatsiya qilingan lezyonlari bo‘yicha tadqiqotlar bilan birgalikda musiqa tinglash miya hududlarining keng tarqalishini faollashtirishini ko‘rsatdi. Birlamchi eshitish sohasi klassik ravishda ko‘ndalang va yuqori temporal Girida yotadi, ammo ritm, pitch, metr, ohang va tembr

bilan bog‘liq musiqiy ohangning alohida komponentlari miyaning turli sohalarida qayta ishlanadi.

Bular prefrontal korteks va yuqori temporal girusdan parietal lobning prekuneusigacha bo‘lib, turli tarmoqlarning o‘zaro bog‘liqligi bilan faollashgan[6]. Ritm asosan chap yarim sharda, tembr va ohang esa asosan o‘ngda qayta ishlanadi. Fazoviy vaqtinchalik vazifalar (masalan, ketma-ket uch o‘lchovli kub yig‘ilishlarini qurish kabi) tomonidan sinovdan o‘tgan aqliy tasvirlash bilan bog‘liq miya sohaları ham Pet skanerlash orqali ko‘rsatilgan[7].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, faollashtirilgan joylarga prefrontal, temporal va prekuneus mintaqalari kiradi. Ular musiqani qayta ishlash bilan shug‘ullanadiganlar bilan uzviy bog‘liq. Shuning uchun musiqa tinglash miyaning fazoviy fikrlash bilan bog‘liq bo‘lgan sohalarini faollashtirishga yordam beradi.

Motsart musiqasini eshitadigan yoshi kattalar orasida o‘tkazilgan dastlabki tajribalar faqat qisqa muddatli edi. Tegishli tajribalarda, musiqaning uzoq muddatli ta’siri 3-4 yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalar guruhlarida o‘rganildi. Ularga olti oy davomida klaviatura musiqasi darslari berildi. Shu vaqt ichida ular balandlik intervallari, barmoqlar texnikasi, ko‘rish o‘qish, musiqiy nota va xotiradan chalishni o‘rganishdi[8].

Trening oxirida barcha bolalar Betxoven va Motsartning oddiy kuylarini ijro etishdi. Keyin ular yoshga qarab fazoviy-vaqtinchalik fikrlash testlaridan o‘tdilar va ularning ishlashi 30 oy davomida kompyuter darslarida yoki maxsus tayyorgarliksiz ($P < 0.001$) berilgan shunga o‘xshash yoshdagi bolalarga qaraganda ancha yaxshi edi.

Yaxshilash fazoviy-vaqtinchalik fikrlash bilan cheklangan. Fazoviy tanib olishga hech qanday ta’sir ko‘rsatmadi. Effekt musiqa darslari tugaganidan keyin 24 soat davomida o‘zgarishsiz davom etdi. Ammo takomillashtirishning aniq davomiyligi qo‘shimcha o‘rganilmadi. Effektlarning oldingi hisobotlarga qaraganda musiqaning davomiyligi yosh miyaning plastisitivligi bilan bog‘liq edi.

TAHLILAR VA NATIJALAR. Keyingi tajribalarda pianino mashg‘ulotlaridan so‘ng bolalarda fazoviy-vaqtinchalik fikrlashni takomillashtirish yuqori matematikada sezilarli darajada katta natijalarga olib keldi, deb da’vo qilingan[9]. Musiqa ta’siridan keyin miya hududlarining elektr zaryadsizlanishini tekshirishga urinishlar qilingan. Bir tadqiqotda Motsart sonata K448 ni 10 daqiqa davomida tinglash, qisqa musiqani tinglashdan farqli o‘laroq, 12 daqiqa davom etgan miyaning o‘ng frontal va chap temporoparietal joylari naqshining sinxronizatsiyasini kuchaytirdi[10]. Sonatani tinglash, shuningdek, o‘ng temporal, chap temporal va o‘ng frontal mintaqalarda elektroansefalogrammaning beta spektrining kuchini oshirish bilan birga keldi[11].

Motsart ta’sirining yanada ta’sirchan ko‘rsatkichi epilepsiyada ko‘rinadi. Fokal razryadlari bo‘lgan 29 bemorning 23 tasida Motsart piano sonata K448 ni tinglagan umumiy boshqoq va to‘lqin komplekslarining portlashlari, elektroansefalogramma (EEG) tomonidan ko‘rsatilgandek, epileptiform faolligida sezilarli pasayish kuzatildi[12].

Ayniqsa individual bemorlarda ajoyib ijobiy o‘zgarishlar bo‘lgan. Epileptikus holati bilan ongsiz ravishda bitta erkakda iktal naqshlar 62% edi, Motsart musiqasiga ta’sir qilish paytida bu qiymat 21% gacha tushdi.

Epileptikus maqomiga ega bo‘lgan boshqa ikkita bemorda doimiy ikki tomonlama boshqoq va to‘lqin komplekslari musiqadan 90-100% oldin qayd etilgan bo‘lib, musiqa boshlanganidan 5 daqiqa o‘tib to‘satdan 50% gacha tushib ketgan. Yaxshilanish hatto komada bo‘lgan bemorda ham sodir bo‘lganligi, musiqani qadrlash Motsart effektining zaruriy xususiyati emasligini yana bir bor namoyish etadi.

Ushbu musiqa uzoqroq ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini aniqlash uchun sakkiz yoshli qizchada bolalik epilepsiyasining chidab bo‘lmas shakli bo‘lgan Lennoks-Gastaut sindromi, ikki tomonlama boshqoq va to‘lqin komplekslari hamda o‘ng posterior temporal sohadan fokusli suyuqlik bilan birga ko‘plab tomchilar bilan tadqiqotlar o‘tkazildi[13].

Motsartning sonatasi u uyg‘oq bo‘lgan kunning har bir soati uchun har 10 daqiqada ijro etilardi. Uyg‘onish davri oxirida klinik tutilishlar soni dastlabki to‘rt soat ichida 9 dan so‘nggi to‘rt soat ichida bittaga tushdi va umumiy chiqindilar sodir bo‘lgan soniyalar soni 317 dan 178 gacha tushdi. Ertasi kuni klinik tutilishlar soni yetti yarim soat ichida ikkitasini tashkil etdi. O‘zgarishlar Motsart musiqasiga qay darajada tegishli? Rauscher va boshqalarning dastlabki tajribalaridan so‘ng aksariyat tadqiqotchilar Motsartning qo‘sh pianinosidan foydalanganlar sonata K448, Motsart hokimiyati Alfred Eynshteyn “Motsartning barcha kompozitsiyalari ichida eng chuqur va eng yetuklaridan biri” deb atagan, ammo uning fortepiano kontserti 23-sonli yirik K488 ham samarali ekanligini isbotlagan[14].

Ba’zi tergovchilar Filipp Glass[15]ning minimalist musiqasidan keyin fazoviy vaqtinchalik testlarning yaxshilanishi kuzatilmaganligini va eski pop musiqasidan keyin epileptiform EEG kuzatuvlarida yaxshilanish yo‘qligini kuzatdi[16]. Biroq, B.E. Rideout, S. Dougherty va L. Wernertlar, yunon-amerikalik musiqachi Yanni tomonidan temp, tuzilish, ohang va uyg‘unlik bo‘yicha Motsart sonatasiga o‘xshash zamonaviy kompozitsiya ham samarali bo‘lganligi haqida xabar berdi[17].

XULOSA. Motsart effekti uchun javobgar bo‘lgan jismoniy xususiyatlarni aniqlashga urinish uchun Xyuz va Fino kompyuter tahliliga musiqa keng ta’sir ko‘rsatdi[18]. Mozartning 81 ta sonatasi, J. C. Bachning 67, Chopinning 39 ta va boshqa 55 ta bastakorlarning 148 ta asari tahlil qilindi. Motsartning ko‘pgina musiqalari namoyish etilgan va ikkita Bax bilan baham ko‘rilgan xususiyat uzoq muddatli 10-60 s oralig‘idagi davriylikning yuqori darajasi edi. Motsart musiqasi va Bax o‘rtasidagi yana bir o‘xshashlik-bu alohida notalarning o‘rtacha kuchiga, xususan G3 (196 Hz), C5 (523 Hz) va B5 (987 Hz). Aksincha, Filipp Glass minimalist musiqa va qadimgi pop musiqa, ikkalasi ham fazoviy xulq-atvor vazifalariga yoki epilepsiyaga ta’sir qilmasdan isbotlangan. Uzoq muddatli davriylikni ko‘rsatmadi. Motsart yoki boshqa bastakorlar bo‘lsin, uzoq muddatli davriylik darajasi yuqori bo‘lgan musiqa faolligini pasaytirish va fazoviy-vaqtinchalik ishlashni kuchaytirish uchun miyada aks sado berishi tavsiya etadi.

Motsart musiqasini 10 daqiqa tinglaganidan keyin fazoviy-vaqtinchalik fikrlash ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi haqida bir necha tadqiqotchilar xabar berishgan, ammo barchasi emas. Hatto ijobiy natijalarga ega bo‘lgan tadqiqotlarda ham yaxshilanish kichik va taxminan 12 daqiqa davom etadi. Ta’sir shaxslar o‘rtasida farq qiladi va tanlangan fazoviy vazifalarga bog‘liq umumiy aqlga ta’sir qilmaydi. Aksincha, epilepsiya bilan og‘rigan ba’zi bemorlarga foydali ta’sir ko‘rsatadi. Natijalar Motsartning kompozitsiyalariga xos emas, ammo talab qilinadigan aniq musiqiy mezonlar to‘liq aniqlanmagan. Bunday kuzatuvlardan amaliy foydalanish hali noaniq, ayniqsa ko‘plab tajribalar faqat Motsartning pianino sonata K448-ni qisqa tinglash davrlari bilan bog‘liq. Effektni to‘liq baholashdan oldin Motsartga va boshqa bastakorlarning keng tanloviga uzoq muddatli ta’sir qilishni o‘z ichiga olgan ko‘proq tadqiqotlar zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rauscher F.H., Shaw G.L., Ky K.N. Music and spatial task performance. *Nature* 1993;365: 611.
2. Wilson TL, Brown TL. Re-examination of the effect of Mozart's music on spatial task performance. *J Psychol* 1997;131: 365-70.
3. Chabris CF. Prelude or requiem for the 'Mozart effect'? *Nature* 1999;400: 826-7.
4. Rauscher FH. Comment. *Nature* 1999;400: 82710476959.
5. Rauscher FH, Robinson KD, Jens JJ. Improved maze learning through early music exposure in rats. *Neurol Res* 1998;20: 427-32.
6. Warren JD. Variations on the musical brain. *J R Soc Med* 1999;92: 571-5.
7. Mellet E, Tzourio N, Crivello F, et al. Functional anatomy of spatial imagery generated from verbal instructions. *J Neurosci* 1996;16: 6504-12.
8. Rauscher FH, Shaw GL, Levine LJ, et al. Music training causes longterm enhancement of preschool children's spatial-temporal reasoning. *Neurol Res* 1997;19: 2-8.
9. Graziano AB, Peterson M, Shaw GL. Enhanced learning of proportional maths through music training and spatial-temporal reasoning. *Neurol Res* 1999;21: 139-52.
10. Rideout BE, Laubach CM. EEG correlates of enhanced spatial performance following exposure to music. *Percept Motor Skills* 1996;82: 427-32.
11. Sarnthein J, von Stein A, Rappelsberger P, et al. Persistent patterns of brain activity: an EEG coherence study of the positive effect of music on spatial-temporal reasoning. *Neurol Res* 1997;19: 107-16.
12. Hughes JR, Daaboul Y, Fino JJ, et al. The Mozart effect on epileptiform activity. *Clin Electroencephalogr* 1998;29: 109-19.
13. Hughes JR, Fino JJ, Melyn MA. Is there a chronic change of the "Mozart effect" on epileptiform activity? A case study. *Clin Electroencephalogr* 1999;30: 44-5.
14. Wilson TL, Brown TL. Re-examination of the effect of Mozart's music on spatial task performance. *J Psychol* 1997;131: 365-70.

15. Rauscher FH, Shaw GL, Ky KN. Listening to Mozart enhances spatial-temporal reasoning: toward a neurophysiological basis. *Neurosci Lett* 1995;185: 44-7.
16. Hughes JR, Daaboul Y, Fino JJ, et al. The Mozart effect on epileptiform activity. *Clin Electroencephalogr* 1998;29: 109-19.
17. Rideout BE, Dougherty S, Wernert L. Effect of music on spatial performance: a test of generality. *Percept Motor Skills* 1998;86: 512-14.
18. Hughes JR, Fino JJ. The Mozart effect: distinctive aspects of the music—a clue to brain coding? *Clin Electroencephalogr* 2000;31: 94-103.



FRANSUZ VIOLONCHEL MAKTABINING VIOLONCHEL TARIHIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Zuxurov Maxmud

*“Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi dotsent v.v.b
O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali*

Annotatsiya: Maqolaning maqsadi XIX asrda Fransiyadagi musiqa hayoti, bu hayotda o‘z izini qoldirgan muhim violonchelchilar bilan tanishish va konservatoriyalarda keng o‘qitilayotgan fransuz violonchel maktabining tarixiy rivojlanishi, shuningdek, uning jahon musiqa va violonchel maktablariga ta’siri va qo‘shgan hissasini tasvirlashdir. Bu maktabning paydo bo‘lishi, uning vakillari va ushbu maktabdagi muhim violonchelchilar bilan tanishtiriladi. Bu maktabning violonchel va violonchel bastakorlarining rivojiga qo‘shgan hissasi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Fransuz violonchel maktabi, Martin Bertau, violonchel, chalish texnikasi, bastakor, aka-uka Duportlar, ijro.

Аннотация: Цель статьи – описать музыкальную жизнь Франции XIX века, выдающихся виолончелистов, оставивших свой след в этой жизни, и историческое развитие французской школы игры на виолончели, широко преподаваемой в консерваториях, а также ее влияние и вклад в мировые музыкальные и виолончельные школы. Представлено возникновение этой школы, ее представители и видные виолончелисты этой школы. Рассмотрен вклад этой школы в развитие виолончели и виолончельных композиторов.

Ключевые слова: французская школа виолончели, Мартен Бертау, виолончель, техника игры, композитор, братья Дюпор, исполнение.

Annotation: The purpose of the article is to describe the musical life in France in the 19th century, the important cellists who left their mark on this life, and the historical development of the French cello school, which is widely taught in conservatories, as well as its influence and contribution to world music and cello schools. The emergence of this school, its representatives and important cellists of this school are introduced. The contribution of this school to the development of cello and cello composers is examined.

Key words: French cello school, Martin Bertau, cello, playing technique, composer, Duport brothers, performance.

XIX asrda Parij Yevropaning eng yirik musiqa markazlaridan biri sifatida ajralib turar edi. Parijdagi jonli kontsert hayoti butun dunyodan mashhur musiqachilar to‘planishlari mumkin bo‘lgan juda jozibali joyga aylandi. Fransiya poytaxti musiqiy hayotida qoida bo‘lgan turli estetik did va qarashlar o‘rtasidagi ziddiyatlar violonchel san‘atida ham o‘z ifodasini topgan. Lekin eng yaxshi namoyandalar musiqasida demokratik ruh va insonparvarlik tamoyillari, musiqa tilining ta’sirchanligi va she’riyati, rang-barang mahorati bilan ajralib turadigan ilg‘or milliy an‘analar rivojlanishda davom etdi.

Parij konservatoriyasining violonchel sinflari, XIX asr violonchel tarixida muhim o‘rin tutadi. Fransuz violonchel maktabi butun dunyodagi violonchelchilarga ta’sir ko‘rsatgan maktab edi. Biroq fransuz maktabiga boshqa juda rivojlangan Rus va Belgiya maktablari ta’sir ko‘rsatdi va buning natijasida asta-sekin universal maktab tushunchasi paydo bo‘la boshladi. Fransiya violonchelning tez sur‘atlar bilan mashhur bo‘lishining sababi Parij musiqa nashriyotchisi Le Klerkning 1738-1750-yillar oralig‘idagi taxminan 26 jildan iborat asarlari tufayli edi. Ushbu maqolalar tufayli fransuz va italyan violonchel musiqasining nufuzi sezilarli darajada oshdi.

Nemis violonchel maktabi singari, fransuz maktabi ham musiqa maydoniga ko‘p asrlik ta’sir ko‘rsatdi. Nemis violonchelchilari ijroda kuchli ovozni ushlashga va chap qo‘lda chalish texnikasini osonlashtirishga harakat qilishsa, fransuzlar sokin va tinch musiqa yondashuvini afzal ko‘rdilar [10].

XVIII asrda allaqachon juda yuqori darajaga ko‘tarilgan fransuz violonchel maktabi XVIII asr o‘rtalaridan XX asrgacha iste’dodli violonchelchilarni tayyorlashda oldingi o‘rinlarda bo‘ldi. Fransuz maktabining sozandalari ikkiga bo‘lingan: sof va yumshoq ohangga ega bo‘lganlar va texnik jihatdan qiyin pozitsiyalarda chap qo‘l epchilligi yaxshi bo‘lganlar.

Zamonning rivojlanishi, imkoniyatlarning ortishi maktablar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani kuchaytirish orqali musiqa ta’limiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Aviakompaniyalar va internetdan foydalanish zamonaviy violonchel maktablariga bir-biri bilan osonroq muloqot qilish imkonini bergan va fransuz maktabi butun dunyo bo‘ylab violonchelchilarga ta’sir ko‘rsatgan maktab bo‘lib qoldi. Boshqa tomondan, bu o‘zaro ta’sir fransuz maktabining boshqa maktablar ta’siriga tushishiga ham imkon berdi. Shunday qilib, global maktab tushunchasi paydo bo‘ldi. Boshqa tomondan, cholg‘uning boy ohangi va keng qo‘llanilishi, sozandalarga va bastakorlarga o‘z iste’dodlarini namoyish etish imkonini berdi.

Fransuz maktabining rahbari 1700-yillarning boshlarida fransuz violonchel maktabining otasi Martin Bertou bo‘lib, u barcha avlodlar uchun mohir violonchelchi va o‘qituvchi bo‘lgan.

Aka-uka Duportlar, Navarra, Gendron, Tortelier va Yo-Yo Ma bu maktabning unutilmas vakillari bo‘lgan. Paul Bazelaire (1886-1958) va Mourice Marechal (1892-1964) XIX asrda yangi avlodga katta ta’sir ko‘rsatgan pedagoglar va violonchelchilar sifatida ko‘zga ko‘ringan vakillar edi [1; 52].

Fransiyada deyarli o‘n besh violonchel usuli nashr etilgan bo‘lib, ulardan eng muhimlari Charles Nikolas Baudiot, Pierre Aleksandr Chevilliard va Hyppolite Fransua Raboudning usullari edi.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida fransuz violonchelchilari tomonidan yozilgan kontsert va sonatalar Fransiyadagi o‘sha davr violonchel san’atining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumotlar beradi va ular o‘ziga xos ijro etish tamoyillari va usullarini o‘z ichiga olgan.

XVIII asrning birinchi yarmida Fransiyada faol bo‘lgan violonchelchilar to‘rtta toifaga bo‘linadi, ular quyidagicha:

Birinchisi, erta davrlardagi iste’dodli violonchelchilar violonchelning Fransiyaga kirib kelishida hal qiluvchi rol o‘ynagan va shu orqali bu cholg‘u yakkaxon cholg‘u sifatida mashhur bo‘lgan [2; 52].

Ikkinchisi, repertuar asosida ishlaydigan violonchelchilar, ular kelajak avlodlarning fransuz violonchelchilari bo‘lib, repertuarga ko‘plab asarlar qo‘shgan [3; 65].

Uchinchisi, fransuz violonchel ijrochisi bo‘lmagan ba’zi bastakorlar erta davr fransuz violonchel repertuariga hissa qo‘shgan.

To‘rtinchisi, violonchel uchun asarlar yozgan fransuz bo‘lmagan xorijiy violonchelchilar va bastakorlar bo‘lib, Parijda o‘z chiqishlari va asarlarini nashr etish orqali mashhur bo‘ldilar.

Fransuz violonchel maktabi tarixda uzoq va muhim o‘rin tutadi. Bu maktab o‘sha davr (1700-1771)ning mashhur violonchel ijrochisi Martin Bertouning nafis ijrosi tufayli shu darajaga yetdi [4; 15].

Martin Bertou 1700-yilda Valensiyada tug‘ilgan. U fransuz violonchel ijrochisi va bastakori bo‘lishdan tashqari, o‘qituvchi va fransuz violonchel maktabining asoschisi ham bo‘lgan. Boshqa bir ma’lumotga ko‘ra, Bertou o‘zining musiqiy ta’limini Germaniyada Kozecz ismli bogemiyalikdan tahsil olib, viola da gamba bilan boshlagani aytiladi [5; 87].

1739-yilda uning nomi birinchi marta Parijda tanildi. Tasdiqlanmagan ma’lumotlarga ko‘ra, afsonaviy Fransisko Alborea (Fransiskello) ni eshitgandan so‘ng, uning violonchelga qiziqishi boshlandi va Bertou o‘zini cholg‘uga bag‘ishladi va keyinchalik Fransiskelloning shogirdi bo‘ldi [6; 8].

Bertou XVIII asr o‘rtalarida Parijda yashagan va violonchel bo‘yicha bastakor va o‘qituvchi sifatida o‘zining musiqiy faoliyatini faol davom ettirgan [7; 4]. Bertauning taraqqiyoti shunchalik ajoyib ediki, u tengsiz edi va uning Parijga qaytishi mo‘jiza deb ataldi. Bertou aslida juda sirli qahramon edi. Uning samarali ta’lim usullari haqida yozma ma’lumot yo‘q bo‘lib, u yozgan barcha kompozitsiyalar ham yo‘q bo‘lib ketgan.

Fransuz violonchel maktabi dastlabki kunlarda chap qo‘l texnikasida skripka kabi yarim ohanli va to‘liq ohangli bosish usulidan foydalangan. Bertou o‘zining go‘zal ovozi va chuqur talqini, shuningdek, zamonaviy barmoq texnikasini ishlab chiqish va garmonikadan foydalanish bilan mashhur edi. U, shuningdek, flageolet texnikasini juda yaxshi bilardi, bu sohada ko‘pchilik violonchelchilar unchalik ilg‘or emas edi.

Bertou chap qo‘lda bosh barmog‘idan foydalanishni o‘z ichiga olgan oson barmoq urish texnikasini ishlab chiqdi, bu o‘sha paytdagi violonchel uchun odatiy bo‘lmagan tabiiy va sun‘iy garmonikalardan foydalanishga imkon berdi. Uning fikricha, violonchel barmog‘i texnikasi skripkadagi kabi har bir barmoq yarim ohangni bosadigan chalish texnikasini talab qiladi. O‘sha davr violonchel ijrochilari barmoq bilan ishlash imkoniyatlari haqida cheklangan bilimga ega bo‘lganligi sababli, ular ko‘pchilik parchalarda yarim ohang va butun ohanglarni bir xil barmoq bilan almashtirdilar [8; 185].

Barmoqlarni bosishning yanada rivojlangan usullari Jean-Batist Kupis (1732-1808) va Jozef Bonaventure Tillier (1750 yilgacha va 1790 yildan keyin) kabi o‘qituvchilar tomonidan yaratilgan.

Aka-uka Duportlar Jean-Louis Duport (1749-1820) va Jean-Pierre Duport (1741-1818) Bertouning unutilmas shogirdlari edi. Bertou yakxaxon violonchel repertuarida tabiiy garmonikalardan birinchi bo‘lib foydalangan. U mohir ijrochi, tarjimon va tarbiyachi bo‘lishiga qaramay, ichkilikga mehr qo‘yganligi uning badiiy hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Martin Bertou 1748-yilda Italiyada Martino Bertau yoki Sigr taxallusi ostida oltita sonatadan iborat turkum nashr etdi. O‘sha paytda Fransiya bastakorlarga asarlarni nashr qilish qimmatga tushdi va asarlarni nashr etishga topshirish uchun ularga yaxshi havolalar kerak edi. Bertou tomonidan yozilgan bu sonatalarda violonchelning keng qo‘llanilishi ochib berilgan. Bosh barmoq pozitsiyasi ustun edi va sozandalarga asbobda o‘z ustunligini ko‘rsatish imkoniyatini berdi. Bastakor bu sonatalarda 3 ta kalitdan (sol, do, fa) foydalangan [9; 29].

Ma‘lumki, Fransiya XVIII-XIX asrlarda boshqa xalqlarga o‘rnak bo‘lgan eng muhim musiqa va madaniyat markazi bo‘lgan. Bu musiqa va madaniyatda ishtirok etish uchun butun dunyodan mashhur musiqachilar Parijga keladigan musiqa maydoniga aylandi. Fransuz musiqasining shakllanishi va maktabga aylanishida mamlakatga kelgan boshqa xalqlar katta rol o‘ynagan. Bu o‘zaro ta‘sir fransuz violonchel maktabiga ham yaqindan ta‘sir qildi va bu o‘zaro ta‘sirlar tufayli fransuz violonchel maktabi paydo bo‘ldi. Chalish qulayligini ta‘minlash uchun bir xil maktabdan foydalanadigan va bir millatdan bo‘lgan violonchelchilar o‘rtasida uslubdagi farqlar kuzatildi.

Bu davrlarda yozilgan asarlarda davr uslubi va bu uslubning cholg‘u asboblari aks ettirilishi batafsil ko‘rinadi. O‘sha davr violonchelchilari 4 toifaga bo‘linganligi ko‘rinib turibdi: bastakorlar, iste‘dodli violonchelchilar, repertuar violonchelchilari va xorijiy violonchelchilar. Ma‘lum bo‘lishicha, iste‘dodli violonchelchilarning bir qismi tarbiyachi bo‘lgan, shu bilan birga violonchelda asarlar yozgan bastakorlar va sozandalar bo‘lgan. Bu davr cholg‘uni takomillashtirish uchun keskin raqobat bo‘lgan davr edi va bu violonchelning texnika va repertuar jihatidan tez rivojlanishiga imkon berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Šarić Jelena Magdalena A Comparative Research On The Famous Violoncello Schools Of The 20th Century Master Thesis 2016 Mentor: Univ.Prof. Dr.phil. MA Klaus Aringer.
2. These sources include Ancelet, Maisonelle, Corrette and Fétis.
3. Some may not be ‘next generation’ in terms of dates, but were not regarded as seminal in the way Stück and L’abbé l’aîné, in particular, were. These ‘later’ cellists were active in producing solo cello music largely in the 1730s and 1740s.
4. Adas Jane, “Le célèbre Berteau,” *Early Music* 17, 368-380 : August 1989, in PCI Full Text [database on-line]; available from <http://iiiprxy.library.miami.edu/>; Internet (Miami, FL: Oxford University Press, accessed 5 August 2004).
5. Von Wasielewski Wilhelm Joseph, *The Violoncello and Its History*, trans. Isobella S.E. Stigend (London: Novello, Ewer, & Co., 1894/R 1986).
6. Campbell Margaret, *The Great Cellists*, Faber and Faber: London, 1988.
7. Adas Jane, „Le célèbre Berteau“, *Early Music*, 17, no.13 (August 1989).
8. Valerie Walden. “Technique, style and performing practice to c. 1900.” *The Cambridge Companion to the Cello*, edited by Robin Stowell. (Cambridge: Cambridge University Press, 1999).
9. 2006-06-19 The Influence of the French Cello School in North America Marie-Elaine Gagnon University of Miami.
10. <http://www.interlude.hk/front/schools-cello-playing-france/by> Janet Horvath | August 18th, 2018.



BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA MILLIKLIKNING O'RNI

E.QOBILOVA.

*Qo'qon davlat pedagogika instituti professori v.b
Elektron pochta;bakirovna77@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqola mazmunida uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat yuritayotgan ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislariga o'zbek mumtoz musiqasi, jumladan, maqomlarga oid nazariy va amaliy bilimlarni berish borasidagi tajribalarni o'rganishga e'tibor qaratildi. Musiqiy tarbiyaning o'ziga xos jihatlari yuzasidan tahliliy mulohazalar bildirildi.

Kalit so'zlar: musiqa, musiqiy ta'lim, maqom, mumtoz ashula, an'anaviy qo'shiqchilik, tadqiqod, tarbiya, nola, qochirim, bezak, ma'naviy-axloqiy sifat, musiqa madaniyati.

THE ROLE OF NATIONALITY IN EDUCATION OF FUTURE MUSIC TEACHERS

Abstract: In the content of this article, attention was paid to the study of experiences in providing theoretical and practical knowledge of Uzbek classical music, including status, to future specialists in educational institutions operating at various stages of the continuous education system. Analytical comments were made on the specific aspects of musical education.

Key words: music, musical education, status, classical singing, traditional singing, research, education, mourning, music, decoration, spiritual and moral quality, music culture.

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ

Аннотация: В содержании данной статьи уделено внимание изучению опыта предоставления теоретических и практических знаний об узбекской классической музыке, в том числе статусных, будущим специалистам в образовательных учреждениях, действующих на различных этапах системы непрерывного образования. Были сделаны аналитические комментарии по конкретным аспектам музыкального образования.

Ключевые слова: музыка, музыкальное образование, статус, классическое пение, традиционное пение, исследование, воспитание, траур, музыка, украшение, духовно-нравственные качества, музыкальная культура.

KIRISH

Milliy mustaqillik sharoitida bo‘lajak mutaxassislarda yuksak axloqiy va kasbga sodiqlik sifatlarini shakllantirish Oliy o‘quv yurtidagi ta‘lim-tarbiyaning muhim ajralmas vazifasiga aylandi. Hozirgi davr zamonaviy jamiyatida ta‘lim, inson faoliyatining eng muhim sohalaridan biriga aylandi hamda unga ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotning asosiy, yetakchi omili sifatida qaralmoqda. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisini tayyorlash jarayonida samaradorligini oshiradigan vositalar va shart-sharoitlarni izlashdir. “Farzandlarimizni mustaqil fikrlovchi, zamonaviy kasb – hunarni egallagan, mustahkam hayot nazariyasiga ega vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi”[1] - deydi O‘zbekiston respublikasining prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Mustaqil fikrlovchi, zamonaviy bilimlarni egallagan, mustahkam hayot nazariyasiga ega chinakam vatanparvar avlodni tarbiyalash birinchi navbatda oliy ta‘lim muassasalarida tayyorlanayotgan pedagog kadrlarni kasbiy faoliyatga har jihatdan tayyor bo‘lishini taqozo etadi. Chunki shunday sifatlar bo‘lajak mutaxassisni yaratuvchanlikka undab, o‘z kasbi orqali jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘sha olishiga zamin hozirlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Maqomlarning inson ruhiyatida kechadigan psixologik holatlarga muvofiqligini nazarda tutgan holda har bir sho‘ba va xalq ashulalarini o‘rganishdan oldin talabalarda o‘rganilishi nazarda tutilayotgan qo‘shiqqa mos kayfiyatni yuzaga keltirish maqsadga muvofiqdir. Maqom yo‘lidagi xalq qo‘shiqlari inson ruhiyatida kechayotgan turli kayfiyatlarga mos holda yaratilgan. Maqomlar mazmuni, ohangi bilan inson hayoti, ijtimoiy turmush tarzi hamda tabiat hodisalariga monand tarzda yaratilgan. Buni, Najmiddin Kavkabi Buxoriy (XVI asr) ning “Musiqa haqidagi risola” [2] asarida bayon etilgan quyidagi fikrlaridan ham anglash mumkin: “Ayrim maqomlarni ijro etish uchun muvofiq keluvchi vaqtni tanlash kerak. “Rohaviy” maqomini quyosh chiqish oldidan, “Ushshoq”ni quyosh chiqib bo‘lgach, “Rost”ni choshgoh arafasida, “Iroq”ni choshgoh paytida, “Buzruk”ni quyosh botish paytida, “Buslik”ni digar namozi (choshgoh bilan quyosh botishi oldidan o‘qiladigan namoz) vaqtida, “Zangula”ni quyosh botishi paytida, “Navo”ni nomozshom paytida, “Zirafikand”ni uyquga yotish oldidan, “Isfaxon”ni tunda ijro etish kerak” [3]. An‘anaviy xonandalik fani doirasida o‘quv dasturi bo‘yicha talabalar bilan o‘rganilishi uchun zarur bo‘lgan musiqiy asarlarning salmoqli qismini maqom sho‘balari va mumtoz xalq qo‘shiqlari tashkil qiladi. Ularni o‘rganish jarayonida talabalarda ma‘naviy-axloqiy sifatlar – bosiqlik, jiddiylik, mulohazalilik, did va farosatni shakllatiradi. Shuningdek, mavjud vaziyatga muvofiq o‘zida quvnoq kayfiyatni hosil qila olish, biroq bachkanalikdan yiroqlashish ko‘nikmalarini hosil qiladi. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida musiqa ta‘limi negizida talabalarga o‘zbek mumtoz musiqasi namunalarini o‘rgatishning jonkuyarlaridan biri Magistratirada o‘qib yurgan kezlrim ko‘p musiqiy bilimlar bergan ustozim Qo‘ldosh Mamirov o‘z ish tajribalari to‘g‘risida to‘xtalib quyidagilarni bayon etgan edi: “Ish tajribamda mumtoz asarlarning jamoa (xor) bo‘lib ijro etilishiga alohida ahamiyat beraman. Bunda nafaqat xor jamoasining ovoz imkoniyatlarini, shu bilan birga xor ovozigacha mos keluvchi sozlar va

nyuanslardan ham unumli foydalanishga urinaman. Bo‘lajak mutaxassislarga mumtoz asarlarni o‘rgatishda ovozning mayinligi, sozning tiniqligi va xonandalarning o‘zaro hamjihatlikda kuylay olishlariga erishish nihoyatda muhim. Yoshligimdan xalq qo‘shiqlarini kuylab yurganligim, milliy cholg‘u ansambllarida faoliyat ko‘rsatganligim mumtoz musiqiy asarlarni ijro eta olish imkoniyatiga ega o‘quvchi va talabalarni to‘g‘ri tanlay olishimga imkon beradi. Zero, milliy ashulalarda o‘ziga xos nola va qochirimlar mavjud bo‘lib, ularni ijro eta olish ijrochining alohida sifat va qobiliyatlarga ega bo‘lishini taqozo etadi (Suhbat 2006 yilning 23-aprelida tashkil etilgan) [2:98].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mumtoz ashulalarni jamoa bilan ishlashda faqat bilishning o‘zigina kifoya qilmaydi. Balki jamoaning ovoz imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish mumtoz ashulalarning mahorat bilan ijro etilishini ta‘minlabgina qolmay, ularning jozibadorligini ham oshiradi. Mashg‘ulotlar jarayonida taniqli hofizlar - Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Halim Ibodov, Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Matchan Xudoyberganov, Muhiddin Qori Yoqubov, Jo‘raxon Sultonov, Ma‘murjon Uzoqov, Tavakkal Qodirov, Komiljon Otaniyozov, Fattohxon Mamadaliev, Orifxon Hotamov, Eson Lutfullaev, Orif Alimahsumov, Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, O‘lmas Saidjonov, Ma‘murjon To‘xtasinov, Munojat Yo‘lchieva, Nasiba Sattorova va boshqalarning ovozlari yozilgan magnit tasmalarini talabalar ishtirokida tinglash mumtoz asarlarni o‘rganishda yordam beradi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini pedagogik amaliyotga tayyorlashda ham ular tomonidan mumtoz qo‘shiqlarning puxta o‘rganilishi muhim ahamiyatga ega. Zero, mumtoz asarlar ta‘sirchan kuchga ega bo‘lishi bilan birga ularda xalqona ruh mavjud bo‘lib, nafaqat talabalarni, shu bilan birga o‘quvchilarni ham milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda asrlar davomida e‘zozlanib kelingan ma‘naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Mumtoz qo‘shiqlar yashovchanligining sababi ham ularning xalq didiga mosligi, xalq tomonidan tan olinganligidir. O‘quvchilarning musiqiy bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan bu talablar mohiyatini mantiqan tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelish mumkin, birinchidan, ularda milliy mumtoz musiqani o‘rganishga bo‘lgan e‘tibor o‘z ifodasini topgan; ikkinchidan, ularning asosida o‘quvchilarda yuksak badiiy didni shakllantirish imkoniyatlari inobatga olinadi. Musiqiy ta‘limning samarali tashkil etilishi natijasida o‘quvchilarda mumtoz musiqiy asarlariga to‘g‘ri baho berish, yuqori badiiy saviyaga ega qo‘shiqlardan mazmuni sayoz asarlarni ajrata olish hamda mumtoz qo‘shiqlarga ob‘ektiv baho bera olish ko‘nikmalarining shakllanishiga imkon yaratadi.

XULOSA

Mashg‘ulot jarayonida o‘qituvchining jonli ijrosi o‘quvchilar ruhiyatiga yanada ijodiy ta‘sir etadi. Shu sababli mumtoz kuy-qo‘shiqlarni jonli ijroda kuylash hamda tinglash musiqa fani o‘qituvchisining diqqat-e‘tiborida bo‘lishi zarur. O‘quvchilarda ham asarlarni o‘rganish vaqtida ularning mazmunini tahlil qilish, nola, qochirim va boshqa bezaklarni anglash kabi ko‘nikmalarining bosqichma-bosqich shakllantirilib borilishi maqsadga muvofiqdir. Ta‘lim

jarayonida, shuningdek, insonni ulug‘lovchi, unga kuch-quvvat bag‘ishlovchi, unda lirik kechinmalarni uyg‘otuvchi xarakterli sho‘balar ham o‘rganiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.O‘.2017. k qo‘llanma). Toshkent – 2008..
- 2.Kobilova, Ezozkhon Bakirovna. "Classical music and youth education." Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12.9 (2022): 126-130.
3. Qobilova, E. "FORMING A SENSE OF INTERNATIONALITY IN STUDENTS THROUGH THE TRADITIONAL MUSIC OF AZERBAIJAN." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.10 (2023): 127-132.
4. Azizkhonova, M., and E. Qobilova. "IMPORTANCE OF MUSIC EDUCATION IN FORMING YOUTH'S MUSICAL CULTURE AND SPIRITUALITY." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 51-57.
5. Kabilova, E. B. "FORMING A SENSE OF PATRIOTISM IN STUDENTS THROUGH THE LIFE AND WORK OF COMPOSER DONI ZAKIROV." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.10 (2023): 68-74.
6. Qabilova, E. "FORMING A SENSE OF INTERNATIONALITY IN STUDENTS THROUGH THE TRADITIONAL MUSIC OF AZERBAIJAN." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.10 (2023): 127-132.
7. QOBILOVA, E‘ZOZXON. "Forming A Sense Of Love For The Profession By Teaching Labor Songs To 4th Class Students In Music Culture Lessons." Journal of Positive School Psychology 7.2 (2023).
8. E.Qobilova Developing methodological competence in future music teachers. Qo‘qon DPI. Scientific Reports 2024 Issue 3, page 722
9. E‘zozxon Qobilova THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF COOPERATION BETWEEN SCHOOL AND FAMILY IN SHAPING MUSICAL CULTURE AMONG YOUTH. International Journal of Pedagogics.(ISSN – 2771-2281) VOLUME 04 ISSUE 10 PAGES: 162-166
10. Qobilova, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MUSIC TEACHING IN EDUCATION. QO‘QON UNIVERSITY NEWSLETTER, 12, 99–100. <https://doi.org/10.54613/ku.v12i.999>
- 11.E.Qobilova.Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish. Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 3-son 722-bet.SAN‘ATSHUNOSLIK (MUSIQA, TASVIRIY SAN‘AT)Orcid: 0009-0001-1275-3080
12. E.Qobilova .Yoshlarda musiqiy madaniyatni shakllantirishda maktab va oila hamkorligining tarbiyaviy ahamiyati. *Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 4-son 383-bet* SAN‘ATSHUNOSLIK (MUSIQA, TASVIRIY SAN‘AT

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



SAN‘ATSHUNOSLIK
ART HISTORY

O‘ZBEK XALQ MUSIQA ME‘ROSINI O‘RGANISHNING DOLZARB MASALALARI

Professor: Sultonali Mannopov

Anvarova Gulhayoxon Umidjon qizi
Farg‘ona Davlat Universiteti Magistranti
0009-0008-4488-5847

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ozbek xalq mumtoz musiqa merosini o‘rganishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Xalq musiqasi milliy madaniyatning ajralmas qismi bo‘lib, uning saqlanishi, tadqiq etilishi va kelajak avlodlarga yetkazilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada O‘zbek xalq musiqasining tarixi, janrlari, ijrochilik an‘analari hamda ularning zamonaviy ilmiy uslubiy yondashuvlar asosida o‘rganishning muhim jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Xalq musiqasi, an‘anaviy ijrochilik, tadqiqot usullari, madaniy meros, arxivlash, dostonchilik, folklor.

CURRENT ISSUES IN THE STUDY OF UZBEKISTAN FOLK MUSIC HERITAGE

Annotation: this article analyzes the pressing issues in the study of uzbek folk music heritage. Folk music is an integral part of national culture, and its preservation, research, and transmission to future generations are of great importance. The article explores the history, genres, and performance traditions of Uzbek Folk music, as well as key aspects of studying them using scientific and methodological approaches.

Keywords: Folk music, musical heritage, traditional performance, research methods, cultural heritage, archiving, epic, folklore.

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

Аннотация: В данной статье анализируются актуальные вопросы изучения музыкального наследия Узбекского народа. Народная музыка является неотъемлемой частью национальной культуры, и её сохранение, исследование и передача будущим поколениям имеют большое значение. В статье рассматривается история, жанры и исполнительские традиции Узбекской народной музыки, а также ключевые аспекты их изучения с использованием современных научных и методологических подходов.

Ключевых слова: Народная музыка, музыкальное наследие, традиционное исполнительство, методы исследования, культурное наследие, архив, эпос, фольклору

“Xalqimizning ma’naviy savodxonligini oshirish,
Yosh avlodni yuksak insoniy g’oyalar, ona-vatanga
Mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umumbashariy
Qadriyatlar asosida kamol toptirishda milliy musiqa san’atimizning
o’rni va ahamiyati beqiyosdir.”

Shavkat Mirziyoyev

KIRISH

O‘zbek xalq musiqasi milliy madaniyatning ajralmas qismidir. Uning boy tarixi, an’analari va janrlari xalqimizning ruhiyati, dunyoqarashi va tarixi bilan bevosita bog’liqdir. Hozirgi kunda O‘zbek xalq musiqa me’rosini o‘rganishning dolzarb masalalari nafaqat musiqashunoslar, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun muhim ahamiyatga ega. O‘zbek xalq musiqasi o‘zining ulkan boyligi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. O‘zbek musiqasining eng muhim janrlaridan biri maqomdir. Maqom janri o‘zining an’anaviy shakli bilan butun dunyo miqyosida mashhur bo‘lib, u o‘zbek xalq musiqasining markaziy asosini tashkil etadi. Shashmaqom, folklor, dostonchilik va boshqa janrlar xalq musiqasining ko‘p asrlik tarixiga asoslanadi. Hozirgi kunda, bu janrlarning asl shaklini saqlab qolish va ularni zamonaviy rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Mamlakatimizda 2018-yildan buyon maqom festivallari tashkil etilib kelinmoqda. Ushbu festivalda 7 yoshdan 70 yoshgacha ishtirokchilar qatnashishi mumkin. Mana shunday ko‘rik tanlov va festivallar maqom san’atini kengroq yoyilishi va saqlab qolinishida muhim rol o‘ynaydi. Xalq musiqasi, asosan, og‘zaki ravishda avloddan -avlodga o‘tgani uchun, ko‘p musiqiy asarlar saqlanmagan va mavjud ijodiy meros qimmatli tarixiy manba sifatida yo‘qolib borish ehtimoli mavjud. Shuning uchun musiqiy asarlarni yozib olish, arxivlash va saqlash muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Bunday arxivlash ishlari nafaqat xalq musiqasining o‘zaro xosligini saqlash, balki musiqiy merosni o‘rganish va tadqiq qilish uchun ham muhimdir.

Ta’lim tizimida xalq musiqasiga alohida e’tibor qaratish zarur. Musiqa maktablarida xalq musiqasi va folklorni o‘rganish o‘quv dasturlarini kengaytirish zarur. Xalq musiqasiga o‘quvchilarni qiziqtirish va muhabbatini oshirish uchun pedagoglar darslarni yangicha metod va texnologiyalardan foydalanib tashkil qilishlari lozim. Xalq ijrochilari va ularning ijrokorliklarini qo‘llab-quvvatlash, ularning musiqiy ijodini zamonaviy auditoriyalarda taqdim etish, o‘rganish va ilmiy tadqiqotlar asosida rivojlantirish juda muhimdir. Shu nuqtai nazardan maqolamizda o‘zbek xalq musiqasining o‘ziga xosligi, uning tarixiy rivojlanishi, saqlash va tadqiq etish jarayonidagi asosiy muammolar, shuningdek kelajak avlodga yetkazish yo‘llari tahlil qilinadi.

1.O‘zbek xalq musiqasining rivojlanish jarayonlari

O‘zbek xalq musiqasi uzoq tarixiy ildizlarga ega bo‘lib , qadimiy turkiy, forsiy, arabiy va boshqa madaniyatlar ta’sirida shakllangan. An’anaviy asboblari – dutor, tanbur, rubob, doira, ud va boshqa cholg‘u vositalari yordamida ijro etilgan qo‘shiqlar va aytimlar xalq hayotining har bir jabhasida aks etgan. Musiqashunoslar V. Uspenskiy , Y Romanovskayalar o‘z davrida „Shashmaqom“ning ma’lum ijrolarini xalq orasida yurib, izlanib kitob holiga keltirishgan, keyinchalik ustoz Yunus Rajabiy “Shashmaqom”ning to‘liq nasr va mushkilot qismini notalashtirib ,12 jildli “Maqom” kitoblarini xalqimizga tuhfa qildi, bu esa o‘zbek musiqasining katta yutug‘i hoisoblanadi. Ustozlarimiz izlaridan borib o‘zbek xalq musiqasining boshqa janrlarini ham notalashtirib kitob holiga keltirishimiz zarur .

Globalizatsiya jarayonlari bilan birga ,xalq musiqasi ham turli madaniy va musiqiy ta’sirlar ostida rivojlanmoqda .Zamonaviy musiqa ta’siri bilan xalq musiqasi ba’zan o‘zining asl shaklini yo‘qotish xavfiga duch kelmoqda. Shu bilan birga xalq musiqasi va zamonaviy musiqaning uyg‘unlashuvi yangi ijod yo‘llarini ochishi mumkin. Mumtoz musiqa har tomonlama yetuk va mukammal bo‘lgan asarlarni o‘z ichiga oladi . ular har bir avlod tomonidan qunt bilan o‘rganilgan va kelajak uchun munosib voris bo‘lishga da’vat etuvchi ijodiyotning ulkan manbasi bo‘lib kelgan.Musiqani xalq yaratadi .Xalq bastakor va kompozitorlari esa xalqdan olib ,qayta ishlab mumtoz janrlar namunalarida yana xalqqa taqdim etadilar.Xalq musiqasi sodda va xalq hayotidagi voqealar bilan bog‘liqdir. O‘zbek xalq ijrochiligining katta yo‘nalishidan biri bo‘lgan katta ashula san’ati ham bora bora unitilib borilmoqda . katta ashula -Farg‘ona vodiysining mahalliy uslubiga xos vokal janrlaridan biridir .Xalq orasida „Patnisaki” ashula deb ham yuritiladi. Katta ashula odatda , cholg‘u asboblari ikki-uch -tort hofizlar tomonidan ijro etiladi .Ushbu janrda xalq orasidan yetishib chiqqan Boltaboy Rajabov, Mamatbuva Sattorov , Jo‘raxon Sultonov ,Ma‘murjon Uzoqov , Hamroqul qori To‘raqulov kabi ustoz hofizlarimiz ijod qilishgan.

2.Xalq musiqasini o‘rganish metodologiyasi va dolzarb muammolar

2.1 tadqiqot me’todlari va yondashuvlar

Xalq musiqasini o‘rganishda asosan etnografik ,filologik,tarixiy va musiqa nazariyasi yondashuvlari qo‘llaniladi.Tadqiqotchilar musiqiy materiallarni yozib olish ,transkripsiya qilish ,intervyular va arxiv materiallarini taxlil qilish orqali an’anaviy ijodning noyob namunalarini hujjatlashtirishga harakat qilishmoqda.shu bilan birga ,zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida audio va video materiallarni saqlash va tahlil qilish imkoniyatlari kengaymoqda.


Folklor musiqasi va dostonchilik san’ati o‘zbek musiqasining qadimiy va betakror janrlari hisoblanadi .Folklor musiqasi xalqimizning milliy urf- odatlari, marosimlarini ohanglar ko‘rinishida namoyon qiladi ,desak mubolag‘a bo‘lmaydi . Bu namunalar xalqimizning kundalik hayoti , mashg‘uloti va milliy qadryatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Ularni asrash va kelajak avlodga to‘laqonli yetkazish maqsadida maxsus folklor ansambllari tashkil etilgan .1978-yilda ilk bor Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida

„Gulyor“ Folklor ansambli tashkil etilgan. Hozirda esa respublikamizning har bir tumanida bunday folklor jamoalari tashkil etilgan.

O‘zbek dostonchilik san’ati yirik janrlar qatoriga kirib, nasriy, she’riy va musiqiy xususiyatlarni o‘zida jamlagan adabiy musiqiy kompozitsiya demakdir. Dostonchilik ijrochiligi asosan Surhondaryo -Qashqadaryo, Samarqand viloyatlarida rivojlangan bo‘lib, bu janrning mashhur ijrochilari ijod qilishgan. Dostonchilik san’atida Xorazm uslubi alohida o‘rin tutadi. Bu uslub aniq musiqiy ijro bilan jilolanadi. Xalq ijodiyotida bahodirlik, qahramonlik, tarixiy va lirik dostonlar mavjud. Doston janriga bir qancha o‘tmish shoirlari ham murojaat qilishgan. Firdavsiyning „Shohnoma“, Nizomiy Ganjaviyning „Haft paykar“ turkumi, Alisher Navoiyning „Xamsa“ dostoni va boshqalar shular jumlasidandir.

Tasavvuf olimlari musiqani quyidagicha tariflaydilar: „Tasavvufda oriflar dilini ramzlar, kashfiy-haqiqatlar bayoniga to‘ldiradigan fayz yetkazuvchi va targ‘ib qiluvchilarni mutrib (cholg‘uchi, qo‘shiqchi, mug‘anniy) deydi. Rabboniy olamdan ogoh qiluvchilar va komil pirlarga ham ishora qilinadi. Uning kuyi-ma’rifat, qo‘shig‘i- haqiqatdir.

Qambarov Abdumutal, Sultonali Mannopov, Najmetdinova Movludaxon. (2021). O‘zbek san’ati tarixi. Farg‘ona nashriyoti



2.2 An’anaviy va zamonaviy yondashuvlar o‘rtasidagi qarama - qarshilik

Bugungi kunda xalq musiqasini o‘rganish jarayonida ikki asosiy yondashuv -an’anaviy va zamonaviy ilmiy usullar o‘zaro uyg‘unlashuvi zarurati mavjud. An’anaviy usullar ko‘proq ustazodalar, folklor ansambllari va mahalliy bilimgozlarning tajribasiga tayansa, zamonaviy usullar esa raqamli texnologiyalar, interferensial tahlil va global hamkorlik imkoniyatlaridan foydalanadi. Ushbu ikki yondashuv o‘rtasida samarali integratsiya amalga oshirilsa, xalq musiqasini chuqurroq o‘rganilishi va uni to‘liqroq hujjatlashtirish mumkin bo‘ladi. Musiqa jamiyatning ma’naviy taraqqiyotida san’atning boshqa turlaridan ko‘ra global ta’sir etish

kuchiga egadir. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganlaridek, ‘‘Musika sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng muhim, bugungi kunda musiqa san’ati navqiron avlodimizning yuksak manaviyat ruhida kamol topishida boshqa san’at turlariga qaraganda ko‘proq va kuchliroq tasir ko‘rsatmoqda.’’

2.3 Arxivlash va digitalizatsiya muammolari

Xalq musiqasining og‘zaki an’ana sifatida saqlanib qolgani sababli, uning translyatsiya va arxivlash jarayonida bir qator texnik va metodologik qiyinchiliklari mavjud. Ko‘p hollarda, eski yozuvlar va musiqiy an’analar yo‘qolib ketish havfi ostida. Shu sababli, milliy va xalqaro miqyosda arxivlashtirish, raqamlashtirish va ommaviy axborot texnologiyalari yordamida musiqiy me’rosni himoya qilish borasida tizimli ishlar olib borilishi zarur. Insonni ezgulik olamiga etaklovchi manaviy vosita musiqa hisoblanadi. Hayotimizda qo‘shiqning o‘z o‘rni, o‘z vazifasi bor, qo‘shiqlar ermak uchun yoki havasga yaratilmagan, bekorchilikdan eshitishmagan. Musika inson ruhiyatini ko‘taruvchi, hayot tashvishlarini ma’lum vaqt unuttiruvchi, yashashga bo‘lgan muhabbatini oshiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Xalqimiz o‘zining ko‘p asrlik tarixi davomida o‘ziga hos rivojlanish bosqichini, o‘ziga xos turmush tarzini, o‘ziga xos falsafa va o‘ziga xos madaniyatni yaratdi. Ana shu o‘ziga xoslik, milliylik, ayniqsa uning musiqa san’ati va madaniyatida to‘la namoyon bo‘lgan. Barchamizga ayonki, kuy -qo‘shiqqa, san’atga muhabbat, musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab, oila sharoitida shakllanadi. Uyida dutor, doira yoki boshqa cholg‘u asbobi bo‘lmagan, musiqaning hayotbaxsh ta’sirini o‘z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin desak mubolag’a bo‘lmaydi. Shuning uchun ham milliy musiqasiz xalqimiz ruhini kotarib, uning qalbiga yo‘l topib va uni bunyodkorlik ishlariga safarbar etib bo‘lmaydi.

3. Xalq musiqasining saqlanishi va yosh avlodga yetkazilishi.

3.1 Ta’lim tizimida xalq musiqasi

Xalq musiqasini kelajak avlodga yetkazishda maktab va oliy ta’lim muassasalarining roli katta. Maktab dasturlariga an’anaviy musiqa asboblari va qo‘shiqlarini kiritish, mahalliy ustazodalar bilan seminarlar va master klasslar tashkil etish orqali yoshlar orasida milliy madaniyatga hurmat va qiziqish uyg‘otish mumkin. Shuningdek, musiqiy kollektivlar va folklor ansambllari faoliyatini kengaytirish ham xalq musiqasining jonli meros sifatida saqlanishiga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar, ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar xalq musiqasini targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaydi. You Tube, Instagram, Facebook kabi platformalarda mahalliy san’atkorlar va Folklorshunoslar tomonidan ijro etilgan qo‘shiqlar va asarlar keng auditoriyaga yetib boradi. Bu holat yoshlar orasida xalq musiqasiga yangicha munosabat shakllanishiga olib kelmoqda. Shunday bo‘lsa-da, bu jarayonda asl an’anaviy ma’lumotlar va ularning konteksti yo‘qolib ketish xavfi mavjud, shuning uchun saqlab qolish ishlariga katta etibor qaratishimiz zarur.

3.2 Xalqaro hamkorlik va tadqiqotlar

Xalq musiqasining universalligini va noyoblighi sababli, xalqaro ilmiy jamoatchilik orasida ham katta qiziqish uyg‘otmoqda. turli mamlakatlar tadqiqodchilari va etnograflari

O‘zbekistonning musiqiy merosini o‘rganish va uni taqqoslash yo‘nalishida qo‘shma loyihalar olib borishmoqda. Bu jarayon nafaqat xalqaro ilmiy almashinuvni kuchaytiradi, balki xalq musiqasining milliy identitetini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Biroq bunday hamkorlikda madaniy xususiyatlar, til va uslubiy farqlarni hisobga olish zarur. Xalq musiqasi jamiyat hayotida ijtimoiy birlashuv, milliy birlik va madaniy merosni tiklash vositasi sifatida katta ahamiyatga ega. Mahalliy bayramlar, marosimlar va ko‘rgazmalar orqali xalq musiqasi nafaqat tarixiy xotirani tiklaydi, balki zamonaviy madaniy jarayonlariga ham yangi nafas baxsh etadi. Xalq musiqasini keng targ‘ibot qilish maqsadida turli festivallar, tanlovlar va ommaviy tadbirlar o‘tkazish tavsiya etiladi. Xalq musiqasiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyalar va seminarlar ham o‘tkazilishi lozim.

O‘zbek xalq musiqasi statistik ko‘rsatkichlari

Yo‘nalish	Ma‘lumotlar	Manbalar
Musiqqa yodgorliklari soni	500+qo‘lyozma va yozma manbalar	O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi
Notaga tushirilgan xalq qo‘shiqlari	3000+ qo‘shiq	O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi
Maqom asarlari	150+maqom yo‘nalishidagi asarlar	Sharq musiqasi markazi
Xalq cholg‘ularining turi	30+ turdagi cholg‘ular	Milliy San‘at Instituti
Xalq ijodiy jamoalari	200+ Folklor ansambli	Madaniyat vazirligi

XULOSA

O‘zbek xalq musiqasi merosini o‘rganishni va uni kelajak avlodlarga yetkazish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Xalq musiqasi san’atini saqlab qolish, uni zamonaviy yondashuv bilan uyg‘unlashtirish, yosh avlodni qiziqitirish hamda ijrochilik an‘analarini rivojlantirish har birimizning vazifamizdir. Shu boisdan, ilmiy tadqiqotlar, ta’lim va madaniy targ‘ibot ishlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy musiqamizni saqlash va rivojlantirish orqali biz o‘z madaniy merosimizga hurmat bilan yondashgan bo‘lamiz. O‘zbek xalq musiqasi nafaqat o‘tmishimiz balki, kelajagimizning ham ajralmas qismi bo‘lib qolishi kerak. Bugungi kunda ustozlar an‘anasini davom ettirishib, qator yosh san‘atkorlar muvaffaqiyatli ijod qilmoqdalar. Ular ustozlar maktabiga suyanagan holda o‘zlariga hos ijro yo‘llari va uslublari bilan xalq musiqasi hazinasiga sezilarli hissa qo‘shmoqda. Ota-bobolarimiz asrlar mobaynida e‘zozlab, sayqal berib, katta ijodiy izlanishlar bilan o‘z yelkalarida opichlab o‘tgan buyuk san‘atimiz xazinasini, xalq musiqasi an‘anasini ushbu asrda yetishib chiqadigan san‘atkor avlod vakillari kelgusi asrlarga olib o‘tadilar degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdumutal Qambarov, Sultonali Mannopov, Mavluda Najmetdinova (2021). "O‘zbek san‘ati tarixi". "Farg‘ona" Nashriyoti.

2.Qodirov M.(2018). Musiqiy meros va zamonaviy tadqiqotlar.Samarqand: Sharq nashriyoti.

3.Niyozova .A .(2016). Milliy musiqa an‘analarining saqlanishi va rivojlanishi. Namangan : Ilmiy izlanishlar markazi.

4.Abdullayev .e.(2020).”Ozbek xalq musiqasining xalqaro tadqiqotlardagi o‘rni”.San’at va madaniyat instituti ilmiy jurnali ,4.(4),134-147.

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



SAN'ATSHUNOSLIK
ART HISTORY

FARG‘ONA –TOSHKENT MAHALLIY - MUSIQIY USLUBI

*Axmedov Baxodirxon Sayfiddinovich,
Namangan davlat pedagogika instituti
katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mustaqillikka erishilgandan so‘ng milliy qadriyatlarimiz tiklana boshlaganda musiqa san‘atimiz yana rivojlana boshladi. Shu jumladan katta ashulaga e‘tibor kuchaydi. Jumladan, 1996-yil aprel oyida Shahrisabz shahrida Respublika miqyosida katta ashula tanlovi o‘tkazildi. Shu yili Namangan viloyati bo‘yicha o‘tkazilgan “O‘zbekiston Vatanim manim” qo‘shiqlar tanlovida katta ashula alohida janr qilib ko‘rsatildi. Shunday ko‘rik – tanlovlar natijasida milliy qo‘shiqlarimiz ulug‘lanib, ijro etadigan hofizlar yanada ko‘payib bormoqda.

Tayanch iboralar: *katta ashula, “boychechak”, “yomg‘ir yog‘aloq”, “laylak keldi”, “o‘ftob chiqdi”, “chuchvara”, “chittigul”, dutor, tanbur, sato, g‘ijjak, qashqar rubobi, chang, nay, qo‘shnay, surnay, karnay, nog‘ora, doyra.*

ФЕРГОНА-ТАШКЕНТ МЕСТНЫЙ - МУЗЫКАЛЬНЫЙ СТИЛЬ

Аннотация: После обретения независимости, когда наши национальные ценности начали восстанавливаться, наша музыка снова начала развиваться. В том числе, возросло внимание к большой песне. В частности, в апреле 1996 года в городе Шахрисабзе прошел крупный конкурс вокалистов. На песенном конкурсе «Узбекистан ватаним маним», прошедшем в этом году в Наманганской области, большая песня была представлена как отдельный жанр. В результате таких конкурсов прославляются наши национальные песни, увеличивается число хафизов, исполняющих их.

Основные фразы: большая песня, «бойчечак», «дождевое дерево», «аист пришёл», «вышло солнце», «чучвара», «читтигул», дутор, танбур, сато, гиджак, кашкар рубоби, чанг, флейта, соседка, труба, труба, барабан, круг.

FERGONA-TASHKENT LOCAL - MUSIC STYLE

Abstract: After independence, when our national values began to be restored, our music began to develop again. Including, the attention to the big song increased. In particular, in April 1996, a major singing competition was held in the city of Shahrisabz. In the song contest "Uzbekistan Watanim manim" held in Namangan region this year, the big song was shown as a

separate genre. As a result of such contests, our national songs are glorified, and the number of hafiz who perform them is increasing.

Basic phrases: big song, "boychechak", "rain tree", "stork came", "sun came out", "chuchvara", "chittigul", dutor, tanbur, sato, gijjak, kashkar rubobi, chang, flute, neighbor, trumpet, trumpet, drum, circle.

Kirish. Toshkent–Farg‘ona mahalliy – musiqiy uslubi. Ma‘lumki, ushbu katta hududning aksariyat yirik shahar va qishloqlarida aholi zich joylashgan. Hududning an‘anaviy musiqa ijodiyoti umummilliy, oziga xos mahalliy boshqa uzoq–yaqin qo‘shni mintaqalardagidan ayrim farqli xususiyatlari bilan ham tavsiflanadi.

Tuzulishi jihatdan oddiy, ixcham hajmli mavzu va mazmun doirasi bo‘yicha xilma–xil kuy, qo‘shiq hamda ashulalar bu hududda juda keng tarqalgan. Jumladan, bu o‘lkada bir qancha xalqchil maishiy, marosim, shuningdek, erkin tarzdagi cholg‘u va ayrim janrlar qatorida ayollar qo‘shiqlari ham nihoyatda mashhurdir. Mazkur mintaqaga xos bo‘lgan yana ko‘plab terma, bolalar qo‘shiqlari, lapar, yalla, ashula, cholg‘u kuy, bir qismli va turkumli maqom yo‘llari, ko‘proq chorvachilikka ixtisoslashgan qishloq joylarida esa dostonlar va yana katta yoki patnis (yovvoyi) ashulalar asosiy o‘rin egallaydi.

Farqona vodiysi – Toshkentning bastakorlar ijodkorligiga molik misollari esa hajman kattaligi, tuzulishi nisbatan murakkabligi, ba’zida usluban mutloq noyobligi bilan ajralib turadi. Tabiiyki, musiqa ijrochiligining kasbiy mezonlari ham yuqori darajada. Bu o‘rinda, ayniqsa, katta ashula “milliy - mahalliy” jarayonga yorqin namuna bo‘la oladi.

Asosiy qism. O‘zbek milliy cholg‘ularidan esa dutor, tanbur, sato, g‘ijjak, qashqar rubobi, chang, nay, qo‘shnay, surnay, karnay, nog‘ora, doyra kabilar juda ko‘p qo‘llanib kelingan.

Farg‘ona – Toshkent maqomi namunalari o‘zlarining xalqchil, shinavandabop xalq ashulariga yaqinligidan dalolat beruvchi bir qator hislatlar bilan ta’riflanadi. O‘zbek tinglovchilari orasida mashhur bo‘lib ketgan surnay maqom yo‘llari, “yovvoyi” yoki “patnisaki” ashulalari, mumtoz cholg‘u kuy hamda ularning noyob ijrochilik san’ati ham aynan shu hududning salohiyatli musiqa madaniyatiga xosdir.

Farg‘ona – Toshkent usulbi Farg‘ona vodiysi, Toshkent shahri va viloyati hududlarida qaror topgan musiqiy an‘analarning majmuyidir. Bunda xalq musiqasiga oid kuy, terma, lapar, yalla, qo‘shiq, ashula kabi aytim janrlari, shuningdek, dostonchilik, maqomchilik kabi kasbiy musiqa hamda bastakorlik an‘analari o‘z aksini topgan.

Farg‘ona – Toshkent musqa uslubida bolalar folklori, xotin-qizlarning qo‘shiqchilik ijodi, yallachilik, ashulachilik va cholg‘u kuylari munosib o‘rin tutadi. Jumladan, mazkur uslubdagi bolalar folklori bo‘lgan “boychechak”, “yomg‘ir yog‘aloq”, “laylak keldi”, “oftob chiqdi”, “chuchvara”, “chittigul” kabi qo‘shiqlar nafaqat shu sarhadda, balki butun diyorumiz bo‘ylab mashhurdir.

Xotin – qizlar davrasida lapar-u yallalar, to‘y marosimi qo‘shiqlari bo‘lgan “yor-yor”, “kelin salom” va boshqa qo‘shiq namunalari sevib aytiladi.

Farg‘ona – Toshkent musiqa uslubida “katta ashula” deb nom olgan ashula yo‘li ham bo‘lib, u odatda turli ommaviy yig‘in va tantanalarda, bayram marosimlari va gap – gashtaklarda hamda an‘anaviy choyxona majlislarda hofizlar tomomnidan ijro etib kelingan.

Farg‘ona – Toshkent musiqa uslubida Haydar ota Boychiev, Jumaboy baxshi, Razzoq baxshi Qozoqboev, Qobilboy baxshi kabi do‘mbira chertib, doston aytuvchi baxshilar ham bo‘lib, ularning repertuari asosan “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Rustamxon”, “Avazxon”, “Shirin va shahar” kabi dostonlardan tashkil topgan.

Farg‘ona – Toshkent musiqa amaliyotida deyarli barcha xalq cholg‘ularini, jumladan, dutor, tambur, rubob, chang, sato, g‘ijjak, nay, qo‘shnay, surnay, karnay, doira, nog‘ora va boshqa sozlarni ko‘rish mumkin. Bu sozlar vaziyatga qarab yakka yoki ansambl (dasta) shaklida namoyon bo‘ladi. Xususan, ommaviy bayram, xalq tantanalari va to‘y marosimlarida surnay, karnay, nag‘ora va doiralardan iborat ansambl sadolari yangrasa, uy - xona sharoitida esa sadolanish nisbatan yumshoq cholg‘ular, tanbur, g‘ijjak, qo‘shnay, rubob va boshqalar qo‘llaniladi. Binobarin, xalqimizning madaniy hayotida har bir milliy cholg‘uning o‘z o‘rni, vazifasi va ijro etiladigan maxsus kuylari bor. Misol tariqasida dutorning tavsiflash mumkin. Bu sozda ijro etish maxsus “Qo‘shyor”, “Chertmak”, “Dunyo bayoti” kabi kuylar bo‘lmish bilan birga yana undan jo‘rnavoz sifatida ham foydalaniladi. Bu o‘rinda dutor (doira kabi) xotin qizlar orasida keng ommalashgan cholg‘udir. Ayni chog‘da, ashulaga hofizlar ham dutorni tanbur bilan birga o‘z ashula aytimlariga jo‘rnavoz etadilar. Ammo tanbur, sato, nay, qo‘shnay, g‘ijjak, chang singari sozlar asosan kasbiy musiqachilar cholg‘usi hisoblanadi, ya‘ni bu sozlarda ijro etish uchun maxsus tayyorgarlik ko‘rgan musiqachilar bo‘lishi kerak.

Farg‘ona – Toshkent cholg‘u musiqasida raqs kuylari ham mashhurdir. Bulardan: “Dilxiroj”, “Andijon polkasi”, “Farg‘onacha rez”, “Tanovor”, “Namangan olmasi”, “Katta o‘yin” kabi raqs kuylarini aytish mumkin.

Yalla – ko‘p xususiyatlari, jumladan, raqsboplik qo‘llari, ijroda ko‘pchilikning ijro etishi kabi jihatlar bilan laparga yaqin bo‘lgan janrdir. Ammo laparda, eng avvalo, aytishuvlik sifati muhim bo‘lgan holda, yallada badiiy so‘z(she‘riyat), kuy va raqsning mushtarakligi nisbatan barqarordir, shu boisdan yallaga “raqsiy aytim” (F.Karamatov), ya‘ni raqs bilan kuylanadigan aytim iborasi qo‘llanib turiladi. Ushbu holat “yalla” atamasida ham ma‘lum aks etgan. Chunonchi, og‘zaki ijodida “yalla” so‘zi “o‘ynab-kulish” va umuman, xushvaqtlik bo‘lishlik ma‘nolarida qo‘llaniladi. Shundan kelib chiqqan holda “yalla” so‘zi “o‘ynab - kuyla” qisqartma “yal-la” birikmasidagi ifodasidir, deb aytish mumkin. Yalla – bu band naqarot shakliga ega aytim bo‘lib, u raqsga tushib kuylanadi. Bunda yakkaxon yallachi doira jo‘rligida raqsga tushib bandlarni kuylasa, naqarotlarni davrada hozir bo‘lgan ko‘pchilik qo‘shilib aytadi. Bundan tashqari Buxoro – Samarqand sozandalar va Xorazm xonandalariga yaqin bo‘lgan kasbiy yallachilar ham bo‘lib, ular yakka holda yoki ansambl tarzida namoyon bo‘ladi.

Yakka holdagi yallachi, odatda, o‘z aytimlariga dutor yoki doira sozida jo‘r bo‘ladi. Yallachilar ansambli esa 2-3 ayoldan iborat bo‘lib, faqat doira jo‘rligida kuylaydilar xotin – qizlar davrasida hozir bo‘lgan yallachilarning repertuari asosan qo‘shiq, lapar, yalla va to‘y marosimi aytimlarida tuzilgan bo‘ladi.

Farg‘ona – Toshkent musiqa uslubida katta ashula haqida fikr yuritsak. Katta ashula – bu yirik hajmli ashula bo‘lib, uning kuy – ohanglari keng nafasli hofizlar ijrosi uchun mo‘ljallangandir.

Katta ashulani, odatda, ashulachi hofiz yoki 2 – 4 hamnafas ashulachi – hofizlar aytadilar. Bunda jo‘rnovoz cholg‘ular qo‘llanilmaydi. Katta ashulalarda Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Muqiyimiy, Furqat kabi mumtoz shoirlarning diniy – falsafiy, pand – nasihat va boshqa mavzulardagi she‘riy namunalari qo‘llaniladi.

Katta ashulalar ikki, ikki yarim oktavi oralig‘ida bo‘lgan rivojlangan kuylarga ega bo‘lib, erkin ritm – o‘lchov asosida badihaviylik (impravizatorlik) xususiyatlari bilan kuylanadi. Bu ashulalarning “patnusaki ashula” yoki “likobi ashula” singari boshqacha nomlari ham bor bo‘lib, buning sababi ashulachi hofizlar ijro paytida qo‘llarida patnis yoki likob (tarelka) ushlab turganliklaridadir.

Boltaboy hofiz, Hamroqul qori, Muhammadbobo Sattorov, Akbarqori Haydarov, Erkaqori Karimov, Jo‘raxon Sultonov, Ma‘murjon Uzoqov kabi hofizlar katta ashulalarning mahoratli ijrochilari edilar. Bu san‘atkorlar kuylagan “ko‘p erdi”, “Bir kelsun”, “Ey, dilbari janonim”, “Adashganman”, “Do‘stlar”, “Yovvoyi chorgoh” kabi katta ashulalari xalqimiz orasida sevimligi bilan mashhur va ma‘lumdir.

Tarixiy kitoblar, musiqiy risolalarda Farg‘ona vodiysi hamda Toshkentdan chiqqan yetuk sozandalarning nomlari ko‘plab tilga olinadi. Ularning san‘ati mahalliy doiradan ancha keng va butun Markaziy Osiyo mintaqasida shuhrat topgan. Umuman olganda, bu joylarda klassik musiqaning rivojlanishi avvaldan baquvvat an‘analarga ega.

XVIII asrning oxirlariga kelib, Qo‘qon xonligi alohida davlat sifatida tarkib topishi bilan Farg‘ona va Toshkent vohalari uning asosiy o‘zagi sifatida yagona madaniy-ma‘muriy doirani tashkil eta boshlaydi. Ana shu muhitda she‘riyat, musiqa, me‘morchilik va boshqa amaliy san‘at turlarida o‘ziga xos uslub yuzaga kelishi va takomillashuviga zamin hozirlanadi. Mazkur uslubning rivojlanish samaralari musiqa va she‘riyat borasida, ayniqsa, sezilarli bo‘ldi. Xususan, Muhammad Umarxon (1809-1822 y) va uning o‘g‘li Muhammad Alixon (Madalixon) (1822-1842 y) davrlarida Qo‘qon shoir va sozandalarning dovrug‘i keng tarqala boshladi.

Muhammad Umarxon yetuk davlat arbobi va zamonasining eng ilg‘or vakillaridan bo‘lib, uning Amiriy taxallusida yozgan devoni keng e‘tibor topgan. Shoirning umr yo‘ldoshi Nodira taxallusi bilan ijod etgan Mohlarbegim ham o‘zbek she‘riyatining yirik namoyandasidir. Amiriy va Nodira - Sharqning eng mumtoz shoirlari qatoridan o‘rin oladi. Ularning o‘zbek va tojik tillaridagi g‘azallari nafaqat Farg‘ona-Toshkent vohalari, balki Buxoro, Xorazm hofizlari orasida ham keng tarqalgan. Umarxon va Nodiralarning farzandi Madalixon ham ilm-u ma‘rifatga, nafis san‘atlarga ko‘ngil qo‘yganganligi ma‘lum.

XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Qo‘qonda Fazliy Namangoniy boshchiligida ko‘plab saroy shoirlari faoliyat ko‘rsatgan. Shu bilan bir qatorda musiqaga ham katta e‘tibor berilgan, iqtidorli sozanda va bastakorlar xizmatga jalb etilgan. Eng muhimi, saroy muhitida mumtoz she‘riyat hamda musiqa uyg‘unligida maqom yo‘llarining ilmiy-amaliy asoslari ishlab chiqilgan. Shu jarayonning boshida turgan sozandalarning nomlari ham tarixda saqlanib qolgan. Agar Buxoro Shashmaqomining xotiramiz ilg‘aydigan hujjatli tarixi Ota Jaloldan, Xorazm maqomlariniki Niyozjon Xo‘jadan boshlanadi desak, Farg‘ona-Toshkent yo‘llarining G‘ulom Zafariy tuzgan shajarasiga Xudoyberdi Ustozdan sarhisob qilinishini e‘tirof etish zarur.

Yana bir qiziq tomoni shundaki, turli hujjatlarning dalolat berishicha, maqom ilmida Xudoyberdi Ustoz xorazmlik Niyozjon Xo‘ja maktabida ta‘lim olgan. Bu dalil Xorazm va Qo‘qon manbalarida aks ettirilgan. “Xorazm musiqiy tarixchasi”da Xudoyberdi Ustoz Niyozjon Xo‘ja shogirdlaridan ta‘lim olgan atoqli maqomshunoslar qatorida tilga olinadi. M.Rahmonovning “O‘zbek teatri tarixi” kitobi, asrimiz boshida yashagan Farg‘onalik san‘atkorlarning esdaliklari hamda G‘ulom Zafariy shajarasiga ko‘ra, Xudoyberdi Ustoz Farg‘ona maqomlarining mavjud tartibini tuzganligi va u 18 yil Urganchda maqom o‘rganganligi qayd etiladi. XVIII asrgacha Ko‘hna Urganch Xorazmning eng yirik madaniy markazlaridan biri bo‘lib kelgan.

Zebo pari laqabli (ismi Xudoyberdi) sozanda tilga olinishi ham e‘tiborga loyiq. U Farg‘ona maktabi (Isfara)dan chiqqan zabardast hofiz bo‘lgan. Shashmaqomning eng go‘zal avjlaridan biri aynan shu nom bilan yuritiladi. Bundan chiqadigan xulosa shuki, Farg‘ona-Toshkent klassik musiqasining ildizlari nafaqat Xorazm, balki Buxoro Shashmaqomining an‘analari bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanganligi hamda maqomotning uchta asosiy uslubi ham yagona negizlarga borib taqalishining qo‘shimcha dalilidir.

Xulosa. Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarining kelib chiqishi va tarkibiy xususiyatlari ilmiy jihatdan ham kam o‘rganilgan. Ushbu masala yuzasidan I.Rajabovning “Maqomlar masalasiga doir” kitobining maxsus bobi ishonchli ma‘lumotlardan hisoblanadi. Unda Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari maqomot tizimida o‘z ichki qonun-qoidalari, nizom va belgilari bilan davom etib kelayotgan mustaqil an‘ana ekanligi ochib berilgan. Eng muhimi, I.Rajabov tadqiqotida Farg‘ona-Toshkent maqomlarining tarixi va amaliy tamoyillaridagi Buxoro Shashmaqomi va Xorazm maqomlaridan farqli jihatlari ko‘rsatilgan. Hozirgi zamon bo‘g‘usi musiqa madaniyati o‘qituvchilari darslarda milliy kuy – qo‘shiqlarni yosh avlodga o‘rgatishda maqomlar masalasiga ham alohida e‘tibor berishlari kerak. Kelajak avlodlarimiz maqom bilan klassik kuy – qo‘shiqlarni farqini bilishlari shart. Har bir mahalliy uslublarni ham kuy – qo‘shiqlar orqali farqini ko‘rsatib berishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yu.Rajabiy, I. Akbarov. O‘zbek xalq muzikasi. II-III- tomlar. T.,
2. R.Yunusov. Istiqlol mafkurasida va musiqiy jarayon. T., 2002.
3. A.Odilov. O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi. T., “O‘qituvchi”, 1995.

4. Mualliflar guruhi. O‘zbekiston xalq sozandalari G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va sanhat nashriyoti. Toshkent – 1974.

5. S.X.Yo‘ldosheva O‘zbekistonda musiqa tarbiyasi va tahlilining rivojlanishi. “O‘qituvchi nashriyoti” Toshkent 1989.

6. R.Tursunov. S. Mannopov. An’anaviy qo‘shiq ijrochiligi uslubiyoti. Ijod dunyosi nashriyoti 2003.

7. Botirkhanovich, Shokirkhanov Bakhtiyorkhon. "The Structure of Kashkar Rubab, And Methods of Their Execution." *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN* 5.1 (2024): 19-22.

8. Syfiddinovich, Axmedov Baxodirxon. "MUSIQA CHOLG ‘ULARINING ILK SHAKL VA TURLARI." *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH* 7.2 (2024): 92-96.

9. Олимжонович, Т. Ф. (2023, June). ТАЛАБАНИНГ МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ ОЛИШИНИ ТИЗИМЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ МЕТОДИКАСИ. In *Creativity and Intellect in Higher Education: International Scientific-Practical Conference* (pp. 123-127).



BADIIY JAMOLAR BILAN ISHLASH MUAMMOLARI VA IMMANENTLIGI

Askarova Ziywar Koshkinbaevna

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti Nukus filiali

“Xalq ijodiyoti” fakulteti katta o‘qituvchisi

Qayipov Muzaffar

O‘zDSMI Nukus filiali “Ashula va raqs” ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy jamolar bilan ishlashning asosiy muammolari va ularning immanentligi haqida so‘z yuritiladi. Badiiy jamolar ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi, ijodiy asarlar yaratuvchi ijodiy muhit bo‘lib, ijodkor inson tafakkuri va hissiyotlari, milliy qadriyatlarimizni o‘z asarlarida aks ettiradigan tarbiya vositasidir. Maqolada badiiy jamolarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning mazmun va shakl jihatidan qanday immanent xususiyatlarga ega ekanligi muhokama qilinadi. Shuningdek, badiiy jamolarda repertuarning ahamiyatiga ham to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy jamolar, immanentlik, ijodiy muhit, ijodkorlik, milliy qadriyatlar.

ПРОБЛЕМЫ И НЕОБХОДИМОСТЬ РАБОТЫ С ХУДОЖЕСТВЕННЫМИ КОЛЛЕКТИВАМИ

Аннотация: В статье рассматриваются основные проблемы работы с художественными коллективами и их имманентность. Творческие коллективы являются творческой средой для творческой деятельности и создания творческих произведений, а также средством воспитания, отражающим в своих произведениях мысли и чувства творческой личности, а также наши национальные ценности. В статье рассматриваются специфические особенности художественных коллективов, какие имманентные черты присущи им по содержанию и форме. Обсуждается также значение репертуара в художественных коллективах.

Ключевые слова: художественные коллектив, имманентность, творческая среда, креативность, национальные ценности.

PROBLEMS AND IMMANENCE OF WORKING WITH ARTISTIC GROUPS

Annotation: This article discusses the main problems of working with artistic collectives and their immanence. Artistic collectives are a creative environment that engages in creative activities, creates creative works, and is a means of education that reflects the thinking and feelings of a creative person, our national values, in their works. The article discusses the

specific characteristics of artistic collectives, what immanent features they have in terms of content and form. The importance of repertoire in artistic collectives is also touched upon.

Keywords: artistic collectives, immanence, creative environment, creativity, national values.

KIRISH. Respublikamizda bugungi kunda xalqimizning boy madaniy merosini qayta tiklash, yuksak ma'naviyat, milliy o'ziga xoslik va xalq an'alarining mavjud ko'p asrlik sarchashmalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Aholining madaniy va estetik ehtiyojlarini yanada to'la qondirishga, teatr, musiqa, tasviriy san'at hamda boshqa san'at turlarini rivojlantirishga, xalqimiz tarixi va bugungi hayotining eng yorqin sahifalarini, mamlakatimizning erkin demokratik taraqqiyotini aks ettiruvchi asarlar yaratishda badiiy, ijodiy jamoalarga har tomonlama yordam ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi O'zbekiston madaniyati va san'ati taraqqiyotida madaniyat markazlaridagi badiiy jamolarning faoliyati muhim ijtimoiy, madaniy va ijodiy ahamiyatga egadir. Badiiy jamolar, asosan, turli ijodiy sohalarida faoliyat yuritayotgan ijodkorlarning birlashgan jamoasi hisoblanadi.

Ularning faoliyati milliy san'atimizni saqlash, rivojlantirish va transformatsion jarayonlarida o'ziga xos immanentligini saqlab qolishdan iborat. Badiiy jamoalar o'z navbatida, san'atning an'anaviy shakllari bilan zamonaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirishga xizmat qiladi, bu esa milliy madaniyatning global maydondagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Sho'rolar davrida sobiq madaniyat uylari va klub muassasalarida asosiy ishidan ajralmagan holda badiiy ijodning o'zlari yoqtirgan turli yo'nalishlarida havaskor san'atkorlar faoliyat yuritgan. Ular dastlab faqat yirik shaharlar: Toshkent, Samarqand, keyinchalik Andijon, Namangan, Kattaqo'rg'on, Yangi Marg'ilonda xonanda, sozanda, raqqosa, badiiy so'z ustasi bo'lib, badiiy havaskorlik to'garaklarida ishtirok etishgan. O'zbek xalqi umumiy madaniyatining yuksalishi, oliy va o'rta maktablarning ko'payishi, ommaning savodxon bo'lishi, shahar va qishloqlarda klublarning tashkil qilinishi va boshqa omillar tufayli 20-yillar o'rtasida ishchi-yoshlar teatrlari, 30-yillarda drama va musiqa, keyinchalik estrada va sirk tomoshalari, turli ashula va raqs ansambllari, orkestrlar paydo bo'ldi. 1959-yildan ularning eng yaxshilariga "xalq teatri" kabi unvonlar berila boshlandi. 1968-yildan O'zbekistonning eng yaxshi havaskorlik jamoalari xorijiy mamlakatlarga gastrolga chiqa boshladi. O'zbekistonning mustaqilligi tufayli badiiy havaskorlikda ham yangi davr boshlandi. Tarixga, ma'naviy merosga, xalq ijodiyotiga e'tiborning kuchayishi o'z navbatida badiiy havaskorlik rivojiga ham turtki berdi. Ayniqsa, milliy bayram, Navro'zning tiklanishi va mamlakat miqyosida o'tkazilishi natijasida navro'z bilan bog'liq o'yinlar, tomoshalar, marosimlar tiklandi. Bunda malakali san'atkorlar bilan bir qatorda badiiy havaskorlik jamoalari, xalq ijodkorlarining xizmatlari katta bo'ldi[1].

Ijodiy jamoalar shaxsni ijodiy rivojlantirish va tarbiyalashda katta imkoniyatlarga ega bo'lib, milliy va jahon madaniyatining ijodiy merosini asrab, targ'ib qiladi. Aslida, yangi g'oyalar, san'at sohasida xizmat ko'rsatadigan, mahsulot chiqaradigan faoliyat yuritadigan har

qanday jamoani ijodiy jamoa deb hisoblash mumkin bo‘lsa-da, faqatgina musiqiy, xoreografik va teatr jamoalarini ijodiy jamoa deb hisoblash an‘anasi saqlanib qolgan. Badiiy havaskorlik jamoalari: ashula va raqs ansambllari, folklor-etnografiya ansambllari, raqs ansambllari, vokal, cholg‘u-estrada ansambllari, xor jamoasi, xalq teatri, qo‘g‘irchoq xalq teatri, miniatyura, maqom ansambllari, sirk jamoalari, dorbozlar guruhi, xalq filarmoniyalari, karnay va surnay jamoalari, xalq hunarmandchiligi, naqqoshlik studiyasi, tasviriy san‘at studiyasi, cholg‘u asboblari jamoalari, milliy estrada guruhi, qiziqchilar guruhi. Ushbu jamoalar respublikada 400ga yaqin bo‘lib, ularning ko‘plari “Xalq” va “Namunali” unvonlariga ega.

NATIJA VA MUHOKAMA. Madaniyat markazlaridagi badiiy jamolar ijodiy jarayonlarni rag‘batlantirish, yangi avlod ijodkorlarini tarbiyalash va ularning san‘at sohasidagi imkoniyatlarini kengaytirish uchun zarur sharoit yaratadi. Ularning ijodiy faoliyati ham ijodiy va ilmiy ishlanmalarni keng xalqimizga taqdim etish uchun ijodiy platforma bo‘lib, san‘atkorlarga o‘z ijodiy izlanishlarini amalga oshirishda yordam beradi. Natijada, san‘at va madaniyat sohasida sifatli va o‘ziga xos asarlar yaratiladi. Ularning repertuari esa, muayyan ma‘naviy qadriyatlarga asoslangan bo‘lishi kerak. Badiiy jamoalar dasturini tuzishda guruh rahbari quyidagilarga alohida e‘tibor berishi lozim:

- jo‘shqin va vazminligi turli-tuman bo‘lgan qo‘shiqlarning navbatma-navbat ijro etilishini ta‘minlash kerak. Ijro etiladigan qo‘shiqlarning ohangi yo bir-biriga juda yaqin, yo bir-biridan juda uzoq bo‘lgani yaxshi. Bu esa qo‘shiqlarning bir meyorda, ravon yangrashiga hamda dasturning qiziqarli chiqishiga imkon beradi;

- konsert dasturida ayrim xonandalar, laparchi, raqqos va raqqosalarning alohida-alohida chiqishlaridan foydalanib, ijro shaklining usluban rang-barang bo‘lishiga erishish mumkin. Bu konsertning tomoshabop va jonli chiqishini ta‘minlaydi. Bundan tashqari, ansambl dasturi murakkab syujet unsurlaridan tuzilishi, ya‘ni tarkibida syuita, shuningdek, xalqning biror bir an‘anaviy urf-odatlarini asosidagi marosim folklori janrlari bo‘lishi ham mumkin;

- dasturning avj nuqtasi, ya‘ni kulminatsiyasi bo‘lishi: mazmunan chuqur, shaklan yirik asar konsert dasturining yo o‘rtasida, yo eng oxirida ijro etilishi lozim;

- tomoshabinlarga bilvosita ta‘sir ko‘rsatish vositalarining boy xazinasidan, xatti-harakatlar, imo-ishoralar, xonandalarning sahnadagi o‘zaro munosabati, qo‘shiq ijro etib turgan holatda sahnaga chiqish va harakatlanish;

- kiyim-kechaklar ansamblning ijro uslubiga, dastur mohiyati va mazmuniga, ishtirokchilarning jinsi va yoshiga mos kelishi kerak.

Ular xalqning milliy an‘analarini, og‘zaki ijodining noyob namunalarini saqlashda, unga sayqal berib yana xalqning o‘ziga qaytarishda jonbozlik ko‘rsatuvchi ijodiy markazdir[1]. Shuningdek, badiiy jamolar ijtimoiy va madaniy integratsiya jarayonlarini rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ular turli etnik va madaniy guruhlarini birlashtiruvchi markazlarga aylanishi mumkin. Bunday almashinuv madaniy xilma-xillikni saqlash va rivojlantirish, shuningdek, xalqaro miqyosda san‘at va madaniyatning o‘zaro anglashuvini mustahkamlashga xizmat qiladi. Asosiy tuzilish komponentlari esa, quyidagilar hisoblanadi.

Birlamchi jamoalar – bevosita kishilararo munosabatlarni va muloqotni ta’minlovchi jamoalar. Bunday jamoalar sirasiga turli cholg‘u orkestrlari: doirachilar, g‘ijjakchilar, puflama va zarbli sozlar orkestrlari; xordagi ovozlar guruhi; xoreografik jamoalardagi kichik guruhlar.

Qadriyat-maqsadlar birligi – birgalikdagi ijodiy faoliyatda qadriyatlarni asosiy maqsad qilib olgan ijodiy jamoa a’zolarining birligi. Shu munosabat bilan ijodiy jamoa a’zolarining kelajagi va qadriyatlari birligi ajralib turadi.

Birgalikdagi ijodiy faoliyat. Jamoada ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish ularning ijodiy yechimlari uchun sharoit yaratadigan maxsus muammoli vaziyatlarni yaratishni loyihalashtirish zarurati bilan uzviy bog‘liq. Chunki ijodiy jamoadagi o‘qitish jarayoni asosan jamiyat tomonidan hal qilingan muammolarga qaratiladi. Ijodiy jamoa a’zolari faqatgina ma’lum holatlarda, ma’lum bir vaziyatdagina yangi qadriyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli ham ijodiy faoliyatdagi o‘qitishni insonning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan qadriyatlarni egallashga bo‘lgan intilish deb tushunish mumkin.

Bolalar va talabalar ijodiy jamoalaridagi badiiy ijodiy faoliyat o‘quv-tarbiya jarayonining bir qismi hisoblanadi va o‘rgatish jarayonining bir jihati deb qaraladi. Badiiy-ijodiy o‘quv jarayoni badiiy ta’lim unsuri sifatida bilim, mahorat, ko‘nikmalarni egallashga, san’at va badiiy ijod borasida dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan. Badiiy tarbiya unsuri sifatida badiiy-ijodiy o‘quv jarayoni “san’atni his etish, tushunish, baholay olish qobiliyatini; badiiy-ijodiy faoliyat ehtiyojini” shakllantirishga qaratiladi.

Ijodiy jamoa tarkibiy tuzilishining ko‘rsatkichlari shundaki, ular tashqi (shahar, viloyat, xalqaro) ijodiy loyihalarda ishtirok etishi va jamoada ichki ijodiy loyihalar (jamoaviy ijodiy ishlar)ni tashkil etishi lozim, bu narsa so‘rov o‘tkazish yo‘li bilan o‘rganiladi. Badiiy va ijodiy jamoalar bir qator xususiyatlarga ega. Ulardan eng muhimi shundaki, jamoa ichida kechadigan jarayonlar ikki tendensiyaning kurashi bilan xarakterlanadi. Bir yo‘nalish – jamoaning o‘z a’zolaridan konformizmni talab qiladigan ma’lum bir ijtimoiy guruh sifatidagi jipsligiga erishishdir, ikkinchisi esa o‘z tabiatiga ko‘ra konformizmga qarama-qarshi turadigan butunlay erkin shaxs uchun talab qilinadigan ijoddir. Ijodiy jamoa sifatida shunday jamoa bo‘lish kerakki, u “o‘z sohasida yangi qarorlar ishlab chiqaradigan, yangi g‘oyalarga moyil, ijodkorlik uchun rag‘batlantiradigan” bo‘lishi kerak. Aslida, bunday maqomga har qanday jamoa sazovor bo‘lishi mumkin, chunki sharoitlar o‘zgaradigan holatda ijodiy yechim zarur bo‘ladi. Ijodkor kishilardan tashkil topgan jamoa, agar yetarli sharoit bo‘lmasa, o‘ziga topshirilgan topshiriqlarni bajara olmaydi. Shu ma’noda ijrochining mahoratini ham eslab o‘tish joiz[2].

Shu bilan birga, badiiy jamolarning faoliyati O‘zbekistonning madaniy merosini saqlash, san’at sohasida yangi yo‘nalishlarni yaratish va milliy san’atning global miqyosda tan olinishi uchun zarurdir. Shu bilan birga, badiiy jamolar, milliy madaniyatni yangi istiqbollarga olib chiqish orqali, O‘zbekistonning madaniy salohiyatini yanada oshiradi. Badiiy jamolarni tashkil etish va ular bilan ishlashda bir qator muammolar mavjud. Bu muammolar asosan badiiy jamoaning samarali faoliyat ko‘rsatishi va jamoadagi ijodiy jarayonlarning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan sharoitlar, malakali rahbarlar va resurslar bilan bog‘liqdir.

Badiiy jamoalar bilan ishlashda eng katta muammolardan biri – malakali rahbarlarning yo‘qligi yoki kamligi. Jamoaning professional darajasi va ijodiy faoliyatining muvaffaqiyati ko‘p hollarda rahbarning tajribasi, yetakchilik qobiliyati va ijodiy yondashuviga bog‘liq. Agar rahbar o‘zining mahorati va tajribasiga ega bo‘lmasa, jamoaning faoliyati samarali bo‘lmasligi mumkin. Badiiy jamoalar bilan ishlashda a‘zolar orasida motivatsiya, hamjihatlik va bir-birini tushunish muhim rol o‘ynaydi. Ba‘zi jamoalarda a‘zolar o‘rtasidagi ishonch va o‘zaro anglashuv yetishmasligi, ularning birgalikdagi ijodiy faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu esa dastur, qo‘shiqlar yoki spektakllarning muvaffaqiyatini pasaytiradi. Badiiy jamoalar tarkibidagi a‘zolar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar ijodiy jarayonni to‘xtatib qo‘yishi mumkin.

Badiiy jamoalar ko‘pincha moliyaviy qiyinchiliklarga duch keladilar. Jamoaning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan materiallar, sahna jihozlari, kiyim-kechaklar va boshqa resurslar yetishmasligi ko‘plab badiiy jamoalar uchun katta to‘siq bo‘lishi mumkin. Shuningdek, badiiy jamoalarni qo‘llab-quvvatlash uchun ajratiladigan byudjetning kamligi ham ularning rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Jamoalar o‘z faoliyatini ijtimoiy va madaniy muhitga moslashtirishlari kerak. O‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlar, jamiyatda yuz berayotgan yangiliklar va badiiy talablarga moslashish jamoalarga ba‘zida qiyinchilik tug‘diradi. Ayniqsa, jamoalar global madaniyat va zamonaviy san‘at talablariga javob berishga harakat qilayotganda, ularning an‘anaviy shakllari va uslublari o‘rtasida muvozanatni topish muhim muammo hisoblanadi.

Badiiy jamoa repertuarini tanlashda ham muammolar yuzaga keladi. Ijro etiladigan asarlarning zamonaviylik, xalqchil yoki klassik bo‘lishi kerakligi masalalari jamoa ichidagi munozaralarga olib kelishi mumkin. Repertuarni tanlashda o‘zaro hamjihatlik va badiiy didning to‘g‘ri muvozanatini ta‘minlash juda muhimdir.

Badiiy jamoalarda har bir a‘zo o‘zining ijodiy yondashuviga ega bo‘ladi. Bu farqlar ba‘zan muammolarga olib kelishi mumkin, chunki har bir ijodkor o‘zining uslubi, g‘oyasi va ifodalash tarziga ega. Badiiy jamolarni tashkil etishda ijodiy yondashuvdagi farqlarni uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Badiiy jamolarni samarali tashkil etish va ularga to‘g‘ri rahbarlik qilish, ularning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun yuqoridagi muammolarni hal qilish zarur. Badiiy jamoalar nafaqat san‘at va madaniyatni rivojlantirishga xizmat qilmoqda, balki jamiyatni birlashtiradigan va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlaydigan kuch bo‘lib ham xizmat qiladi. Shu sababli, bu muammolarni hal qilish va jamoalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun davlat va jamiyat tomonidan doimiy ravishda tashkiliy, moliyaviy va ijtimoiy sharoitlar yaratilishi kerak.

XULOSA. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonunlar soha mutaxassislarini xursand qilmay qo‘ymaydi albatta. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yilgi 588-sonli qarorida badiiy ijod, shu jumladan, teatr, musiqa, xoreografiya, estrada, sirk va xalq amaliy san‘atini yanada rivojlantirishni rag‘batlantirish, xalqimiz tarixi va bugungi hayotining eng yorqin sahifalarini, mamlakatimizning erkin demokratik taraqqiyotini aks ettiruvchi asarlar yaratishda ijodiy jamoalarga har tomonlama

yordam berish, shuningdek, madaniyat markazlarida xalq badiiy havaskorlik va ijrochilik san’atini rivojlantirishga, ularning shakl va usullarini takomillashtirishga ko‘maklashish O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi zimmasiga yuklatilgan bo‘lib, shu kungacha soha yuzasidan vazirlik tizimida ham qator ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda respublikamizda 7 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan aholining bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga, estetik talablarini qondirish va milliy madaniyatimizga mehr ruhida tarbiyalashga xizmat qilishga qaratilgan 597 ta badiiy havaskorlik jamoalari mavjud. Ularda mavjud shtat birliklari soni esa qariyb 1500ga yaqin. Ushbu jamoalarga “Xalq havaskorlik jamoasi” hamda “Bolalar namunali jamoasi” unvoni berilgan.

Oxirgi ma’lumotlarga qaraganda, 160 ga yaqin ashula va raqs, 170 ga yaqin folklor ansambli, 50 ga yaqin raqs ansambli, 30 ga yaqin maqom ansambli, 30 ga yaqin vokal-cholg‘u estrada ansamblari xalqimizga xizmat qilib kelmoqda[3]. Mazkur ma’lumot, badiiy havaskorlik jamoalarining mamlakatda madaniyatni rivojlantirish va aholining estetik talablari asosida hayot sifatini oshirishdagi muhim rolini ko‘rsatadi. Jamoalarning xilma-xilligi va yuksak professional darajasi, xalqimizning madaniy merosini asrash va yangicha shakllarda taqdim etishga qaratilgan ijtimoiy yondashuvni anglatadi.

Badiiy havaskorlik jamoalarining faoliyati va yuksak professional darajasi, milliy san’atni rivojlantirishda asosiy faktor sifatida asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, jamoalar san’atning an’anaviy shakllarini zamonaviy yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirib, O‘zbekistonning madaniy salohiyatini oshirishga ham yordam bermoqda. Badiiy jamolarni yanada rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati va vazirlikning ijodiy sohani qo‘llab-quvvatlashi jamoalarning sifatini oshirishda samarali bo‘lish aniq. Badiiy jamolar Yangi O‘zbekistonning madaniy tarixini saqlash va yangi istiqbollarga olib chiqishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [5ddb70f0e62b3.pdf - Яндекс Документы](#)
2. Sunnatillayev A. Badiiy jamoalar bilan ishlash uslubiyoti. – Toshkent.: O‘zDSMI. 159 b.
3. Yusupaliyeva D., Xudayberganova G. Madaniy-ma’rifiy muassasalarda ijodiy jamoalar bilan ishlash uslubiyoti. – Toshkent.: O‘zDSMI. 2018. 115 b.
4. Karimova E., Xolmo‘minov M. Badiiy havaskorlik jamolari faoliyatiga nazar // Oriental Art and Culture. 2022. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-havaskorlik-jamolari-faoliyatiga-nazar> (дата обращения: 02.03.2025).

MUNDARIJA

PSIXOLOGIYA

PEDAGOGLARDA KASBIY REFLEKSIYANING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Jo‘rayev Nurbek Sa‘dullayevich

4

KASBIY MOTIVATSIYANING BO‘LAJAK ICHKI ISHLAR XODIMLARI RUHIY HOLATIDA TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI

Bekmuratova Xalima Maksatovna

10

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING O‘QISH DAVRIDA YUZAGA KELADIGAN PSIXOLOGIK HOLATLAR

Uzakbaeva Venera Abatbaevna

19

SHAXSNING HISSIY-EMOTSIONAL XUSUSIYATLARI

Begmatov Raximkul Olimovich

23

HOMILADORLAR PSIXOLOGIYASI VA PSIXOTERAPIYANI QO‘LLASH

Jalilova Dildora Murot qizi

28

ANALYSING ENVIRONMENTAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF FOREIGN LANGUAGE ANXIETY IN UZBEK HIGHER EDUCATIONAL CONTEXT

Utkirjon Akhrorjon ugli Islomov

34

O‘SPIRINLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Turg‘unpo‘latova Musharraf Xusniddin qizi

44

ВЛИЯНИЕ АРТ-ТЕРАПИИ НА РАЗВИТИЕ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА ДЕТЕЙ С ЗАДЕРЖКОЙ ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ (ЗПР)

Наган Олеся Талгатовна

52

RIVOJLANISHNING ZAMONAVIY BOSQICHIDA TARBIYANING MOHIYATI VA PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Korshubaeva Ra‘no Xazratkulovna

57

TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK MAQSAD VA VAZIFALARNI ANIQLASHNING MOHIYATI

B.Yakubova

61

BOSHQARUV FAOLIYATIDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK DETERMENANTLARNING AHAMIYATI

Yarmatov Raximboy Baxromovich

67

JISMONIY MADANIYAT

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA VOLEYBOL SEKSIYASI O‘QUV ISHLARINI REJALASHTIRISH

Sulaymonov Jaxongir Solijonovich

73

SPORT KO‘RSATKICHLARINI YAXSHILASH VA TIKLANISHDA MAKRO VA MIKRONUTRIYENTLARNING ROLI <i>Batirova Fotima Ashurovna</i>	83
BOLALAR VA O‘SMIRLARDA FUTBOL BILAN SHUG‘ULLANISH QOBILIYATINI ERTA ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISH USULLARI <i>Oblanazarov Faxriddin, Mardonov Nodir Jamolovich, Otaboyev Murodullo Islomovich</i>	88
ETNOSPORT VOSITASIDA KASBIY IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY JIHLATLARI <i>Kurbonova Shaxnoza Nimadovna</i>	93
FUTBOLCHINING HARAKATLARIGA QARSHI TURISH ASOSIDA DARVOZABONLARNI INDIVIDUAL-TAKTIK TAYYORLASH <i>Ziyyayev Abdurahmon Abdullayevich</i>	99
GANDBOLCHI HARAKATLARIGA DARVOZABONNING TAKTIK TAYYORGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI <i>Xatamov Zafarjon Nazirjonovich</i>	104
SPORTNING MILLIIY KURASH TURI BO‘YICHA TRENERLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI DASTURINI SHAKLLANTIRISH <i>Do‘stov Dilmurod Karimovich</i>	108
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGACHA TA‘LIM MUASSASALARIDA GIMNASTIKA VOSITALARI NAZARIYASINING MAQSAD VA VAZIFALARI <i>Qosimov Bekzod Zoirovich, Mardonov Nodir Jamolovich</i>	114
FUTBOL BO‘YICHA BOLALAR O‘SMIRLAR SPORT MAKTABLARIDA IQTIDORLI FUTBOLCHILARNI TANLAB OLIISH <i>Salayev Toxirbek Kamiljanovich, Salayev Bekzod Kamiljanovich</i>	120
TURKIIY XALQLAR MILLIIY O‘YINLARINING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISHI. <i>Talipjonov Alijon Akramovich</i>	125
JISMONIIY TAYYORGARLIK - MILLIIY GWARDIYA XODIMLARI TOMONIDAN XIZMAT OLII BORIISHDA JANGOVAR TAYYORGARLIKNING ASOSIIY ELEMENTI <i>Usmonov Suxrob Mexriddin o‘g‘li</i>	130
SPORT O‘YINLARINING QADIMGI SHAKLLARI VA PAYDO BO‘LISH OMILLARI <i>Xamroyev Behruz Xalimovich</i>	134
СПЕЦИФИЧЕСКИЕ СПОСОБЫ ОТБОРА ВОЛЕЙБОЛИСТОВ И ПОДГОТОВКИ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ СПОРТСМЕНОВ В ПРОЦЕССЕ ТРЕНИРОВОК <i>Ачилов Ойбек Хакимович</i>	141
КОНТРОЛЬ ВЕСА ЮНЫХ ДЗЮДОИСТОВ: ПРОБЛЕМЫ И МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ	148

<i>A.A.Kazarmanova</i>	
ОПРЕДЕЛЕНИЕ ТЕМПЕРАМЕНТА У СПОРТСМЕНОВ ЛЕГКОАТЛЕТОВ (НА ПРИМЕРЕ СПОРТСМЕНОВ-БЕГУНОВ) <i>Усманова Шахло Шавкатовна</i>	156
SAN'ATSHUNOSLIK	
QORAQALPOQ TEATR SAN'ATINING RIVOJLANISHIDA AKTYOR KOPJURSIN ALLANAZAROVNING TUTGAN O'RNI <i>Bahadir Allaniyazov</i>	165
BO'LG'USI MUSIQA O'QITUVCHILARIDA CHOLG'U IJROCHILIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYOTI <i>Djumaboyeva Muqaddasxon Shavkatovna</i>	170
"MOTSART EFFEKTI" FENOMENINING ILMIY VA AMALIY JIHATLARINI O'RGANISH <i>Jumanazarov Zohidjon Eldor o'g'li</i>	174
FRANSUZ VIOLONCHEL MAKTABINING VIOLONCHEL TARIHIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI <i>Zuxurov Maxmud</i>	180
BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA MILLIKLIKNING O'RNI <i>E.QOBILOVA</i>	185
O'ZBEK XALQ MUSIQA ME'ROSINI O'RGANISHNING DOLZARB MASALALARI <i>Sultonali Mannopov, Anvarova Gulhayoxon Umidjon qizi</i>	189
FARG'ONA –TOSHKENT MAHALLIY - MUSIQIY USLUBI <i>Axmedov Baxodirxon Sayfiddinovich</i>	196
BADIIY JAMOLAR BILAN ISHLASH MUAMMOLARI VA IMMANENTLIGI <i>Askarova Ziywar Koshkinbaevna, Qayipov Muzaffar</i>	202

**«Qo‘qon DPI. ILMIY XABARLAR»JURNALIDA CHOP ETILADIGAN MAQOLALARGA
QO‘YILADIGAN
TALABLAR:**

1. Jurnal tahririyatiga taqdim etilayotgan maqolaga:

a) ekspert hayati dalolatnomasi – 2 nusxada;

b) maqola yozilgan ilmiy yo‘nalish bo‘yicha tahrir hay'atiga kiritilgan fan doktori hamda filolog mutaxassis imzolagan (imzo tegishli tartibda tasdiqlangan bo‘lishi lozim) taqriz-tavsiya ilova qilinadi.

2. Maqolalar o‘zbek, rus yoki ingliz tillarida yozilgan bo‘lishi mumkin.

3. Maqola qaysi tilda yozilishidan qat’iy nazar unga uch til – o‘zbek, rus va ingliz tillarida mavzu, qisqa annotatsiya, tayanch so‘z va iboralar (kalit so‘zlar) ilova qilinadi.

4. Maqola jurnal tahririyatiga “Microft Word” dasturida (“Times New Roman” 14 o‘lchamli shriftda, satrlar orasi bir yarim intervalda) terilgan holda ikki nusxada, qog‘oz va elektron varianti bilan topshiriladi.

5. Maqolaning umumiy hajmi (rasm, jadval va diagrammalar bilan birgalikda) 8-10 sahifadan, qisqa xabarlarning hajmi 4-5 sahifadan oshmasligi talab etiladi. Maqolaning bir nusxasi muallif(lar) tomonidan imzolanadi.

6. Muallifning familiyasi, ismi-sharifi, ish joyi, lavozimi, manzili (uy va xizmat telefon raqamlari, elektron pochta) ko‘rsatiladi.

7. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

8. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa raqami ko‘rsatiladi.

9. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e‘tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

10. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonida qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.

11. Institut professor-o‘qituvchilari tomonidan taqdim qilingan maqolalar muayyan yo‘nalishlar bo‘yicha tahririyat a’zolarining yoki fan doktorlarining taqriz-tavsiyasi (tegishli tartibda rasmiylashtirilgan bo‘lishi lozim) asosida qabul qilinadi.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

«НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. Кокандский ГПИ»

Требования, предлагаемые к статьям для издания в журнале:

1. Для статьи, предъявляемой на издание, представленной в редакцию журнала требуется:
 - 1) акт экспертной комиссии - в 2-х экземплярах;
 - 2) рецензия-рекомендация, подписанная доктором наук и специалистом-филологом (подпись должна быть заверена надлежащим образом), входящими в редколлегию научного направления, в котором написана статья.
2. Статьи могут быть написаны на узбекском, русском или английском языках.
3. Независимо от языка, на котором написана статья, она сопровождается заголовком, короткой аннотацией, ключевыми словами и фразами (ключевыми словами) на трех языках - узбекском, русском и английском.
4. Статья, предоставляемая в редакцию журнала, должна быть в редакции «Microsoft Word» (шрифт Times New Roman 14-мерный, межстрочный интервал 1,5) в двух экземплярах, в бумажной и электронной версии.
5. Общий объем статьи (включая рисунки, таблицы и схемы) не должен превышать 8-10 страниц, размер коротких сообщений не должен превышать 4-5 страниц. Копия статьи подписывается автором (авторами).
6. Указываются фамилия, имя, место работы, должность, адрес автора (домашний и служебный телефоны, электронная почта).
7. Если в статью включены рисунки, таблицы, схемы, диаграммы, различные графические обозначения, они должны быть четко и ясно описаны, полное объяснение сокращений. Формулы необходимо вводить в текст в специальных компьютерных программах.
8. Упомянутая или использованная литература указывается в общем списке в конце статьи в соответствии с последовательностью в основном тексте, а не в виде подзаголовков. После копии в тексте в квадратных скобках указывается порядковый номер и страница в списке цитируемых работ. Здесь указываются имена авторов книг, сборников, монографий, полное название источника, индекс издания (город, издатель и год издания). Для журнальных статей и других периодических изданий указываются имена авторов, название статьи, название журнала, год и номер, номер страницы.
9. Статьи, поступившие в редакцию, рецензируются редакционной коллегией. По возвращении из рецензирования статья будет передана автору на доработку по всем вопросам и возражениям, если это необходимо. Копии статей не возвращаются.
10. Положительно рецензированная статья считается принятой редакцией. Редакция журнала имеет право сокращать текст статьи и вносить в него редакционные изменения.
11. Статьи, представленные профессорами и преподавателями Института, принимаются на основании рецензий (рекомендованных в соответствующем порядке) членами редакционной коллегии или докторами наук по отдельным направлениям.
12. Статьи, не соответствующие вышеуказанным требованиям, не принимаются и не рассматриваются редакционной коллегией.

REQUIREMENTS FOR PUBLISHED ARTICLES IN THE JOURNAL “SCIENTIFIC NEWS” UNDER THE KOKAND STATE PEDAGOGICAL INSTITUTE

1. To the article submitted to the editorial board of the magazine
 - 1) act of the expert board - in 2 copies;
 - 2) a review-recommendation signed by a doctor of sciences and a philologist (the signature must be duly certified) included in the editorial board of the scientific direction in which the article was written.
2. Articles can be written in Uzbek, Russian or English.
3. Irrespective of the language in which the article is written, it is accompanied by three languages - Uzbek, Russian and English, subject, short annotation, key words and phrases (keywords).
4. The article is submitted to the editors of the magazine in Microsoft Word (Times New Roman 14-dimensional font, one-and-a-half line spacing) in duplicate, paper and electronic version.
5. The total size of the article (including pictures, tables and diagrams) should not exceed 8-10 pages, the size of short messages should not exceed 4-5 pages. A copy of the article is signed by the author (s).
6. The author's surname, name, place of work, position, address (home and service telephone numbers, e-mail) are indicated.
7. If the article includes pictures, tables, diagrams, schemes, diagrams, various graphic symbols, they should be clearly and clearly described, a full explanation of the abbreviations. Formulas must be entered into the text in special computer programs.
8. The referenced or used literature is listed in the general list at the end of the article based on the sequence in the main text, not in the form of subheadings. After the copy in the text, the serial number and page in the list of the cited work are given in square brackets. The names of authors for books, collections, monographs, the full name of the source, the index of publication (city, publisher and year of publication) are indicated here. For journal articles and other periodicals, the names of the authors, article title, journal title, year and number, page number are indicated.
9. Articles submitted to the editorial board will be reviewed by the editorial board. Upon return from review, the article will be submitted to the author for revision on all questions and objections, if necessary. Copies of articles will not be returned.
10. A positively reviewed article is considered accepted by the editors. The editors of the magazine have the right to shorten the text of the article and make editorial changes to it.
11. Articles submitted by professors and teachers of the Institute are accepted on the basis of reviews (recommended in the appropriate order) by members of the editorial board or doctors of science in certain areas.
12. Articles that do not meet the above requirements will not be accepted or considered by the editorial board.

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar



Кокандский ГПИ. Научный вестник

“Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar” ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31-martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix hamda 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika fan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

Bosishga ruxsat etildi: 2025-y. Nashriyot bosma tabog‘i –16,375.

«Poligraf Super Servis» МЧЖ

150114, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahar, Aviasozlar ko‘chasi 2 –uy

Elektron manzil: kspi_info@edu.uz

№2/2025